

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

XAZRAT JABBOROV

**YOSHLARDA MAFKURAVIY
IMMUNITET SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK OMILLARI**

monografiya

**“Durdon” nashriyoti
Buxoro – 2023**

UO'K 316.6-053.81:323.1

KBK 88.53

J 13

Jabborov, X. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari [Matn] / X. Jabborov .-Buxoro: Sadreddin Salim Buxoriy, 2023.-192 b.

KBK 88.53

Mas'ul muharrir:

Sh.Baratov – Buxoro davlat universiteti, “Psixologiya” kafedra mudi, psixologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

M.Bekmurodov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi, “Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi” kafedra mudiri, sotsiologiya fanlari doktori, professor.

O.Hayitov – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni imiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi direktorining ilmiy-metodik ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Abdullayeva – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Pedagogika va Psixologiya” kafedrasи mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor.

Mazkur monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2021 yil 25- martdagи 8-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9800-5-3

Mazkur monografiyada ichki va tashqi tahdidlar, buzg'unchi g'oya va vayronkor mafkuralar hamda «Axborot maydonidagi kiberjinoyatchilik va kiberterrorizm, dezinformatsiya xurujlariga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishning psixologik omillari nazariy va empirik jihatdan atroficha tahlil qilingan.

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab global transformatsiya inson qalbi va ongini zabit etishga intilayotgan o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, radikalizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa shu kabi tashqi tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish; jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan muammolarni maqsadli va manzilli hal qilishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy axborot maydonidagi harakatlarning jadallahushi oqibatida g'oyaviy, mafkuraviy, psixologik, siyosiy ta'sir o'tkazish texnologiyalari nihoyatda havfli va ta'sirchan qurolga aylanishi natijasida turli xil siyosiy kuchlar ichki va tashqi tahidlardan o'z manfaatlar va maqsadlari yo'lida foydalanishga alohida e'tibor qaratishmoqda.

Monografiya doktorantlar, ilmiy tadqiqotchilar va ma'naviyat targ'ibotchilari hamda keng kitobxonlar ommasiga bag'ishlangan.

SO‘Z BOSHI

Mafkuraviy immunitet - ma’naviy xavfsizlik masalasi sifatida

Kishilik jamiyatining ko‘p ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka yetaklovchi qarashlar, g‘oya va mafkuralar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi bo‘lgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, tanazzulga yuz tutishiga zamin yaratgan buzg‘unchi va vayronkor qarashlar, g‘oya va mafkuralar ham mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Shunday ekan mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil manzilli kurash olib borish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi 2017 yil 28 iyuldagagi 3160-sonli Qarorida keltirilganidek, dunyoda yuz berayotgan murakkab giosiyosiy va g‘oyavfiy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib berish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish; jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sinqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy qilish ayniqsa muhim. Qolversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni

tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilyotganligi alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shib qolish holatlari hamon uchramoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyatini kuchaytirish davr talabi ekanligini ta'kidlashimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 – dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida globallashuv O'zbekistonda yoshlar tarbiyasiga millat taqdirini belgilovchi ustuvor masala sifatida alohida yondoshuvni talab qilmoqda. Zero azaliy milliy qadriyatlarni qadrsizlantiruvchi "ommaviy madaniyat", informasion xurujlar, axloqsizlik falsafasi, ekstremizm, terrorizm, nigelizm, loqaydlik, "dunyo fuqaroligi"(kosmopolitizm), missionerlik va prozelitizmni targ'ib qiluvchi g'oyalar targ'iboti kuchayotganligi, shu bois uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi doirasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish, tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish, oila, ta'lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish va ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik

tamoyillariga asoslanishi kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda.

Shunday ekan, bunday vaziyatda milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan ma’naviy tahdidlar mohiyatini oshib berish, murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy tahlil qilish hamda baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma’naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo‘yicha ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta’minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish, yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, internet, axbort-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analarini asrab-avaylash kabi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish zarurati oshib bormoqda.

Ana shu vazifalar ijrosidan kelib chiqib, qaralganda Xazrat Jabborovning “Mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari” nomli monografiyasi bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish va zarur tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilganganligi bilan juda ahamyatlidir.

Qolaversa yosh tadqiqotchi Xazrat Jabborov ushbu masala yuzasidan ancha vaqtdan buyon izlanishlar olib boradi. Ushbu mavzuga doir ellikdan ortiq ilmiy maqolalari horijiy va mahalliy nashrlarda chop etildi. Qator xalqaro ilmiy konferensiyalarda ma’ruzalar qildi. Psixologiya fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi. Ana shu bir necha yillik ilmiy tadqiqot samarsi sifatida mazkur monografiya dunyoga keldi.

Monografiyaning birinchi bobi amaldagi qoidalarga muvofiq, ilmiy muammoning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganishga qaratilgan.

Unda mafkuraviy immunitet ijtimoiy muammo sifatida sharq mutafakkirlari, xorij va Rossiya tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilishi, O‘zbekistonda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammosining tadqiq etilishi va tadqiqot vazifalari kabi dolzarb masalalar yechimi yuzasidan nazariy va tizimli tahlilni kuzatish mumkin.

Mazkur bobda mafkuraviy immunitet ijtimoiy muammo sifadida tadqiq qilinishining tizimli moduli, mafkuraviy immunitetga ma’naviy, falsafiy, psixologik, sotsiologik yondashuv va ta’riflar, mafkuraviy immunitet tushunchasi bilan bog‘liq atamalar izohi keltiriladi.

Ma’lumki hozirda mafkuraviy tahdidlarga, g‘oyaviy va axborot xurujlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Monografiya muallifi ayni ana shu masalaga jiddiy e’tibor beradi. Jumladan, ichki va tashqi tahdidlarni ma’naviy-ruhiy munosabatlarga ta’siri, hozirgi davrda buzg‘unchi g‘oyalar va vayronkor mafkuralarga qarshi kurasha oladigan axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ta’sirchan va samarador mexanizmini ishlab chiqishga doir qator takliflarni o‘rtaga tashlaydi va “Bazaviy e’tiqodlar shkalasini aniqlash” metodikasi uchun EHM dasturi / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining № DGU 06399 - sonli guvohnomasiga ega bo‘ladi.

Muallif X.Jabborov monografiyaning ikkinchi bobida o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni amaliy jihatdan tadqiq qilish va ularning mafkuraviy immunitet shakllanishiga ta’sirini aniqlash, o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillariga oid ilmiy-nazariy manbalarning muayyan mezonlar (psixologik himoya mexanimlari, shaxs xususiyatlari, e’tiqodlar darajasi, motivasion yo‘nalishlari, qadriyatlar tizimi, kognitiv jarayonlar, xulq-atvor me’yorlari, irodaviy-emotsional holatlari kabi tarkibiy qismlar) asosida tahlil qiladi. Mazkur farazlarini ilmiy asoslashda O‘zbekistonning turli hududlaridagi o‘smirlar guruhibda mafkuraviy

immunitet shakllanganlik darajalarini yosh, jins va hudud kesimida tadqiq va tahlil qilishga mo‘ljallangan maqsadli kuzatuv, suhbat, qayd qiluvchi eksperiment, “Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish” so‘rovnomasasi (Kellerman-Plutchik-Konte so‘rovnomasasi asosida), “Tayanch e’tiqodlar shkalasi” (R.Yanov-Bulman uslubi asosida), “Sub’ektiv nazorat lokusi xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasasi (S.R.Panteleyev va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan Dj.Rotter shkalasini modifikatsiya qilish asosida moslashtirilgan), “O‘smirlarning tahdidlardan xabardorlik darajasini baholash” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasasi (Sh.Baratov, X.Jabborov), hamda matematik statistik metodlari (“SPSS-22” dasturi talablari bo‘yicha) orqali empirik vizualizasion jadvallar, diagramalar va empirik tahlalrdan foydalanadi.

Monografiyaning uchinchi bobida o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni rivojlantiruvchi psixotrening dasturlari, ijtimoiy-psixologik treninglar metodologiyasi bo‘yicha xorij tajribasi, respondentlarning mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini baholashda tajriba va nazorat ob’ektlaridan olingan empirik ma’lumotlar tahlilini ko‘rish mumkin. Yosh tadqiqotchi mazkur bobda o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishini profilaktika, diagnostika, realibitatsiya qilish hususiyatiga ega bo‘lgan “Xatar chizig‘i”, “20 marta men”, “Savatcha”, “Uyushmagan yoshlar sifatidagi mening g‘oyalarim”, “Giyohvand taqdiri”, “Ezgulik elchisi”, “O‘zimni qanday tasavvur qilaman”, “Niqobni angla”, “G‘oyaviy hissiyotlarni sanaymiz”, “Qaytarish”, “Hissiyotni top”, “G‘oyaga qarshi – g‘oya”, “Ta’qiqlangan g‘oya”, “Mening samimi bo‘la olish qobiliyatim”, “Mening 10 ta kamchiligidim”, “Avlodlar o‘rtasidagi nizo”, “Men hech qachon....maganman”, “Qadriyatlar”, “Mumkin emas” kabi ta’sirchan ijtimoiy-psixologik treninglar ishlab chiqilganligi va ularning qo‘llanilishi bo‘yicha yo‘riqnomani ishlab chiqganligi tahsinga sazovor.

Ma’lumki, har qanday ilmiy tadqiqotning o‘ziga hos yutuqlaridan biri tadqiq etilayotgan jarayon oqibatini, pirovard natijasini bashorat qilishdir. Muallif ilmiy prognozlashning ana shu qoidasiga jiddiy amal qiladi va asosli fikrlarni ilgari suradi. O‘zbekistonda ichki va tashqi tahdilarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunite shakllantishning psixologik, ma’naviy omillarining istiqboldagi vazifalari aniqlanadi. Bu esa mazkur monografiyaning ilmiy zaruratini, nazariy jihatdan

ehtiyojga aylanganini va amaliy jihatdan samarali ekanligini ko'rsatadi.

Muallifning ilmga bo'lgan chanqoqligi haqida. Xazrat Jabborov ko'p yillar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaz, Milliy g'oya va mafkura tadqiqotlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i bo'li faoliyat olib bordi.

Yosh olim sifatida Xazrat Jabborov Markaz tomonidan chop etilgan "Yosh ota-onas kitobi", "Baxtli bola ma'naviyati", "Fazilatli avlod", "Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!", "Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari", "Targ'ibot tadbirlarining ilmiy-amaliy ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari", "Jonajon O'zbekistonim mangu bo'l omon!", "Rahbar ma'naviyati" kabi qo'llanmalarga mualiflik qildi.

Xazrat Jabborovning mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiyma'naviy islohotlar doirasidagi daxldorligi "O'zbekiston-24", "Yoshlar", "Madaniyat va ma'rifat", "Dunyo bo'yab", "Zo'r TV", "Mening yurtim", "Sevimli" telekanalari va hududiy Qaraqalpog'iston TV, Andijon viloyatining telekanalarida 50 dan ortiq chiqishlarida aks etdi. Ya'ni muallifning aholining turli qatlam vakillarida mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishning ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy va psixologik omillari bo'yicha ekspertlik intervylari efirga uzatildi.

Yosh tadqiqotchi o'zining ilmiy mavzusi va shu bilan birga markaz faoliyatiga daxldor bo'lgan "Nomzodning ma'naviy portreti" (NMP), "Tahdidlar narvoni metodi" (TNM), "Allomani bilasizmi?" (O'z o'zini baholash metodi), "Ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetning "Axborotni saralash", "Himoyalanish", "Qarshi kurash", "Boshqarish" kabi funksiyalarini shakllantirish" (KEYS METODI), "Ma'naviy-ma'rifiy tadbir samaradoligini belgilovchi asosiy tamoyil shkalalar", "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofiserlarining kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasi", "Ofiserlarni ma'naviy, intelektual potesialini baholovchi "Munosabatlar ierarxiyasi" (MI) testi, "Ma'naviy-ma'rifiy xodimlarni pedagogik mahoratni baholash uchun bir soatlik dars tahlili", "Targ'ibot tadbirlarida yozilgan esselarni baholash uchun "Essesining mazmun-mohiyati va himoyasini baholash" mezonlari metodikasi",

“Targ‘ibot tadbirlarida “KORRUPSIYa” illatini profilaktikasiga mo‘ljallangan so‘rovnoma” va “Hududlarning ijtimoiy – ma’naviy muhitini o‘rganish va sog‘lomlashadirish texnologiyasi(MMST)” kabi hammualiflikdagi metodlari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq qilindi.

Uning faoliyatida dastlabki yillardanoq ilmga chanqoqlik, g‘ayrat-shijoatlilik, ishga o‘ta mas’uliyat bilan yondashish, o‘z ilmiy-ma’rifiy dunyoqarashini rivojlantirib borish yo‘lida hamisha izlanuvchanlik va fidoyilik xislatlari yaqqol sezilib turdi. Mehnat faoliyati davomida o‘zining bilimdonligi, tirishqoqligi va izlanuvchanligini namoyon eta oldi. O‘z ustida tinimsiz mehnat qiladi.

Yosh olim sifatida Xazrat Jabborov halqimizga sodiqlik, o‘zgalarni hurmat qilish singari yuksak ahloqiy va insoniy fazilatlarga ega shaxs. Shu bois Xazrat Jabborov o‘z sohasi, tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha sanoqli izlanuvchilardan biriga aylandi. Mazkur monografiya bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Yosh olim Xazrat Jabborov tanlagan mavzu o‘zining dozarbligini hech qachon yo‘qotmaydi. Shunday ekan Xazrat Jabborov yosh olim sifatida mazkur masaladagi tadqiqotlar maydonini va auditoriyasini yanada kengaytishi va yana ham jiddiyroq tadqiqot natijalariga erishib borishi maqsadga muvofiq. Mazkur monografiya talablar darajasida tayyorlangan. Xazrat Jabborovning keyingi, yangi, innovasion va ta’sirchan ilmiy izlanishlariga muvofaqiyat tilab qolaman.

**Muhammadjon Quronov,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining
birinchi o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor**

Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo‘lishni talab etmoqda. Shu borada O‘zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo‘ladi.

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Jahonda bugungi kunda ijtimoiy ta’sirlarning jadal ravishda rivojlanishi, fan va texnologiyalar taraqqiyoti, axborotlar oqimining ortib borishi, inson omili bilan bog‘liq fanlar oldiga yangi vazifalar qo‘ymoqda. Ayniqsa, jadal sur’atlar bilan rivojlangan davlatlarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik tanglik holatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. «Axborot maydonidagi kiberjinoyatchilik va kiberterrorizm xurujlarini kuchayib borishi yuzasidan xususan, Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi, Yevropa Kengashi, Shanxay hamkorligi tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va boshqa tashkilotlar tomonidan qayd qilingan statistik ma’lumotlarga ko‘ra hozirgi vaqtda 7 milliardga yaqin inson (dunyo aholisining 95%) elektra aloqasining ko‘chma tarmoqlari bilan qamrab olinganligini, yiliga kiberjinoyatchilik oqibatida yetkazilgan moddiy zararning miqdori dunyo yalpi ichki mahsulotining 1% ni tashkil etishini ko‘rsatmoqda». Shu bois hozirda mafkuraviy tahdidlarga, g‘oyaviy va axborot xurujlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda axborot xurujlari, ijtimoiy ongning shakllanish xususiyatlari, shaxsning ijtimoiylashuvi, g‘oyaviy kurashning psixologik mexanizmlari, psixologik immunitet, buzg‘unchi va vayronkor mafkuralar bilan mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari o‘rtasidagi bog‘liqlik muammolari bo‘yicha

tadqiqotlar olib borilmoqda. O’smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishini ta’minlashda psixologik himoya mexanizmlari, psixologik xususiyat va o’smirlarning tayanch e’tiqodlari ta’sirini o‘rganish kabi psixologik omillar esa ushbu tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishiligidcha qolmoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridan oq mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ruxiy barqarorligi va umuminsoniy g‘oyalarga tahdid qilayotgan buzg‘unchi va vayronkor mafkuralarga nisbatan odamlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish vositalari, shakllari, omillari o‘rganilmoqda. Qolaversa, mazkur masalada davlatimiz “jaholatga qarshi ma’rifat” bilan kurashish tamoyili bo‘yicha butun dunyo hamjamiyatida namuna bo‘lib kelmoqda. Shu ma’noda mamlakatimizda mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion kurash kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda turli xil ichki va tashqi, ochiq va yashirin tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishning psixologik omillarini tadqiq qilish, o’smirlarda yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorini qabul qilinishi ham jamiyatda mazkur masalani nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, “O‘zbekiston Respublikasi aholisini zamonaviy axborot texnologiyalari hamda internet tarmog‘i orqali ko‘rsatilayotgan axborot va mafkuraviy xurujlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi”, shuningdek mazkur masalaga oid hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda turli xil

ichki va tashqi, ochiq va yashirin tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev “Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo‘lib turibdi” [5],- deya barcha soha mutaxassislari kabi psixologlar oldiga ham yuksak vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur fikrdan ko‘rinadiki, yoshlarimizning diniy ekstremizm, terrorizm, diniy aqidaparastlik kabi oqimlarga qo‘silib ketmasligi uchun ularda barqaror mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish muhim. Shu o‘rinda mafkura, immunitet, mafkuraviy immunitet tushunchalarining izohiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. “Mafkuraviy immunitet – ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan o‘smirlarni tarbiyalashda qo‘l keladi”,- deb ta’rif beriladi falsafiy qomusiy lug‘atda. Immunitet, o‘z navbatida odamni to‘g‘ri yo‘ldan “ozish”dan, turli yo‘llarga adashib, keyin pushaymon bo‘lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, parchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo‘linishlardan asrab qoladi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma’naviy birligi, ma’naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz I.Karimov “Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur”ligi haqidagi fikrni alohida ta’kidlaganlar [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish” to‘g‘risidagi PQ-3160-son qarori, hamda 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

to‘g‘risi”dagi PF-4947-son Farmoni [6], 2017 yil 8sentyabrdagi “Bolalarni ularning sog‘ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 2014 yil 6 fevraldagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalgaga oshirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2124-sonli qarori, O‘zbekiston Prezidentining 2016 yil 24 sentyabrdagi O‘RQ 406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni, 2016 yil 14 yanvardagi 9-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisini zamonaviy axborot texnologiyalari hamda internet tarmog‘i orqali ko‘rsatilayotgan axborot va mafkuraviy xurujlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgaga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida qo‘yidagi masalalarga e’tibor qaratildi:

o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir etuvchi “ijobiy taqlid”, “ijobiy motivatsiya”, “o‘zini-o‘zi nazorat qilish”, “o‘zini-o‘zi baholash” kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlangan;

mafkuraviy immunitetning “axborotni saralash”, “salbiy axborotga nisbatan himoya”, “buzg‘unchi axborotga qarshi kurash” va “o‘zini-o‘zi boshqarish” singari yetakchi ijtimoiy-psixologik sifatlari aniqlangan;

o‘smirlarda mafkuraviy immunitet barqarorligini ta’minlovchi e’tiqodning “yaxshilikka ishonch”, “men”ning qadr-qimmatiga ishonch, “o‘zini boshqarishga ishonch”, “hayotning odilligiga ishonch” tayanch mezonlari aniqlangan;

mafkuraviy immunitet barqarorlik va beqarorlik darajalarini baholashning motivasion, kognitiv va xulq-atvor komponentlari ishlab chiqilgan.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, insoniyat ongu-shuriga, uning ijtimoiy-ma’naviy, madaniy sohalariga, xulq-atvoriga, urf-odatlari hamda qadriyatlar tizimiga turli davrlarda ichki,tashqi illatlar, vayronkor, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar, ochiq va yashirin axborot xurujlari tahdid qilini va mazkur masala yuzasidan aholining turli qatlam vakillari, ayniqsa yoshlarda mustahkam mafkuraviy imunitet shakllantirish borasidagi izlanishlarning chegarasi yo‘q. Ayni vaqtida bugun dunyoda axbort xurujlari, ichki v tashqi tahdidlarning

yangidan-yangi xususiyatlari paydo bo‘lib o‘ziga xos mutasion jarayonini aks etirmoqda. Insoniyat taraqqiyoti tobora yuksalgani sayin unga tahdidlar, g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlar va oqimlar ham ko‘payib bormoqda. Demak, mazkur tadqiqotlar masalaning yakuni emas. Biz keyingi ishlarimizda ushbu masalani global muammo sifatidagi yangi qirralarini, uni asosiy omillarini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

I BOB. MAFKURAVIY IMMUNITET IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Mafkuraviy immunitet ijtimoiy muammo sifatida deb nomlangan mazkur bobda muamoning sharq mutafakkirlari, xorij va Rossiya tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilishi O‘zbekistonda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammosining tadqiq etilishi va tadqiqot vazifalari kabi dolzarb masalalar yechimi yuzasidan nazariy va tizimli tahlilni kuzatish mumkin.

Mazkur bobda mafkuraviy immunitet ijimoiy muammo sifadida tadqiq qilinishining tizimli moduli, mafkuraviy immunitetga ma’naviy, falsafiy, psixologik yondashuv va ta’riflar, mafkuraviy immunitet tushunchasi bilan bog‘liq atamalar izohi keltiriladi.

1. Muammoning Sharq mutafakkirlari tomonidan o‘rganilishi

Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sog‘lom shakllanishi, unga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog‘lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo‘lib, ezgu va sog‘lom g‘oya hamda mafkura asosida o‘z yo‘lidan adashmay o‘z hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Jumladan, Abu Nasr Forobiy [19], Abu Rayhon Beruniy [20], Unsurulmaoliy Kaykovus [86], Yusuf Xos Hojib [183] va Alisher Navoiy [22] va Husayn Voiz Koshifiy [208] kabi allomalarimizning asarlarida hamda “Avesto” [21] va “Qur’on” [196] kabi muqaddas kitoblarimizda, shaxs kamoloti, go‘zal xulqli insonning chiroyli fazilatlari, ezgulikka va bunyodkorlikka yo‘g‘rilgan g‘oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni to‘g‘ri yo‘lga solish; sog‘lom bo‘lmagan xulq egalarini zamon, jamiyat hamda Olloh kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo‘llar, buzg‘unchi fikr va g‘oyalarga chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Kishilik jamiyatining ko‘p ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka yetaklovchi qarashlar, g‘oya va mafkuralar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi bo‘lgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, tanazzulga

yuz tutishiga zamin yaratgan buzg‘unchi va vayronkor qarashlar, g‘oya va mafkuralar ham mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

O‘tmishda yot g‘oyalarning turli xil ko‘rinishlari, tarixiy shakllari bo‘lgan. Jumladan, xalqimizning o‘lmas madaniy merosi, dunyo tan olgan bebaho ma’naviyat durdonasi “Avesto” yovuz g‘oyalarini qoralash, inson va jamiyatni ezgulikka chorlashning mumtoz namunasidir. Ushbu falsafiy yodgorlikning e’tiborga sazovor jihatlaridan biri shundaki, bu asar 2700 yil avval yaratilganini inobatga olsak, unga zamin, asos sifatida, avval ham kamida ikki ming yillik hayotiy tajriba, ilmiy bilimlar va psixologik mushohada bo‘lganini ta’kidlash mumkin. Shubhasiz, bu kitobning yaratilishi ob’ektiv zaruriyatga aylangan. Avestodagi quyidagi fikrlar Zardushtiylik mafkurasining tub mohiyatini ifoda etadi: “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu ishni alqayman. O‘zimni bori ezgu fikrga, ezgu so‘zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so‘zu yomon ishlardan yuz o‘giraman” [21].

Avestoning eng qadimiyligi qismi bo‘lgan “Yasht”larda kishilarga dahshat urug‘ini sochib, yuraklariga g‘ulg‘ula soladigan qahri qattiq Anxra Manyu (Axriman) boshliq xudolar bir taraf bo‘lsa, ezgulik tarqatuvchi, yaxshilik tilovchi, yordam beruvchi Axura Mazda boshchiligidagi xudolar boshqa guruhga ajratilgan. Keyinchalik Zardusht ta’limotida politeizmdan monoteizm sari borilib, faqat Axura Mazda tangri sifatida e’tirof etilgan, qolganlari ma’bud va farishtalar, deb tushuntirilgan [153, 72-92-b].

Yovuzlik, qanday shakl va mazmunga ega bo‘lmisin, avvalo, g‘oya sifatida paydo bo‘lishi e’tiborga olinsa, Avestoda Axriman aynan buzg‘unchi va yovuz g‘oyalar muallifi, sababchisi va tarqatuvchisi, deb talqin etilgan. Bu ham hududimizda qadim davrlardayoq vayronkor g‘oyalarning ijtimoiy mohiyati teran anglab yetilgani va unga qarshi mafkuraviy immunitet tizimi ustida bosh qotirilganligidan dalolat beradi.

Zardushtiylik ta’limotining mantiqiy davomi bo‘lgan Moniychilikda ham ezgulik bilan yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Chunonchi, Moniy (216-276-y.y.) asos solgan ushbu diniy-falsafiy ta’limot, eng avvalo, ma’naviy-axloqiy poklikka davat etgan. Moniy fikricha, Zulmat va Yovuzlik kuchlari Nur va Ezgulik kuchlarini qoplab olgan va inson

faqat moddiy manfaatlarga qaramlikdan iloji boricha ozod bo‘lish orqali Nurga Zulmat bilan o‘zaro kurashda g‘alabaga erishishga imkon yarata oladi [21].

Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashning talqini Moniychilikdan qariyb ikki yarim asr keyin, taxminan V asrning oxirlarida paydo bo‘lgan Mazdakchilik diniy-falsafiy ta’limotida ham o‘ziga xos tarzda rivojlantirildi. Jumladan, uning asoschisi Mazdak qarashlariga ko‘ra, Yer yuzida Zulmat va Yovuzlik kuchlari zo‘rayib ketgan. Biroq, zaminni ulardan tozalab, Nur va Ezgulikka yuksak e’tibor qaratish zarur. Buning uchun avvalo, aql va adolatga keng o‘rin ajratish kerak. Bu borada Mazdak, odamlarni shaxsiy mulkni qayta taqsimlashga da’vat etib, boylarning ortiqcha mulklarini kambag‘allarga bo‘lib berishga chaqirgan [21].

Turli manfaat va maqsadlar ifodasi sifatida paydo bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalari, har xil ijtimoiy guruh va kuchlarga xizmat qilib, davr o‘tishi bilan tarix sahifalaridan o‘rin olgan. Ayni vaqtda, bunday g‘oya va mafkuralar muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda shakllangan bunyodkor mazmunga ega bo‘lgan ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga nisbatan mafkuraviy tahdidni o‘zida ifoda etadi.

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy aloqador bo‘lib, davrlar almashinuvi bilan yangilik tomon o‘zgaradi. Bunday o‘zgarishlar qadimdan turon va turkiston mintaqasi deb nomlangan, bugungi kunda uning markazi hisoblangan hozirgi O‘zbekiston hududida yuz bergen jarayonlarga ham tegishlidir.

D.Alimovaning “Insoniyat tarixi g‘oyalari va mafkuralar tarixidir” risolasida ham, dastlabki yozma manba – “Avesto” kitobida ham ezgulik g‘oyalari ilgari surilgan, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Ya’ni ezgulik, insonparvarlik, bunyodkorlik g‘oyalari bilan yovuzlik, buzg‘unchilik, vayronkorlik illatlar bilan kurash o‘ziga xos mafkuraviy immunitet shakllantiriganligi haqida yozadi [17,30-b.].

Avestoda ezgulik va yovuzlik kurashi quyidagicha izohlanadi. “Ezgulik” – taraqqiyotga intiluvchi kuchlarning insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini ijtimoiy adolat tamoyillari yoki shu kitobdagи “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu ish”ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o‘ziga xosligi madh qilinadi. “Yovuzlik” esa

tarixiy reaksiya, taraqqiyot g‘ildiragini orqaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi [21].

Demak, bugungi kunda ham umumbashariy, insonparvar, bunyodkor g‘oyalari bilan buzg‘unchi ommaviy madaniyatning “yovvoyilik g‘oyalari” har xil qora kuchlar, ya’ni buzg‘unchi va vayronkorlik xususiyatlarini kasb etuvchi oqimlar diniy ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik, prozelatizm, missionerlik kabilalar orasidagi kurashni ko‘rishimiz mumkin. Ular o‘zlarining buzg‘unchi g‘oyalari bilan davlatlar, xalqlar, millatlar, insonlar orasiga nifoqlar solib, ularning yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekistonning necha yuzlik solnomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo‘rlik, kulfat urug‘larini sochish hamda qon to‘kilishiga sabab bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalari va mafkuralarning halokatli ta’siri bilan bog‘liq qayg‘uli sahifalar ko‘p.

Bu g‘oyalari o‘zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko‘ramiz. Lekin mohiyat hamisha o‘zgartirishga qolaverган. Ya’ni, ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an’ana va urf-odatlarini kuch bilan o‘zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo‘ysindirish va mafkuraviy asoratga solishga, o‘zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot, buzg‘unchi, vayronkor mafkuraviy tasavvurlarni targ‘ib qilishga qaratilgan. Buzg‘unchi g‘oyalari va mafkuralar azaliy madaniyatning yemirilishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo‘lgan, ko‘plab xalqlarni o‘z yo‘lini o‘zi tanlash huquqidan mahrum etgan. G‘oyalari hukumronligning tamal toshi aynan qadimiylar sivilizatsiyalar davrida qo‘yilagan edi. Unga binoan, odatlar va taomillarga emas, balki g‘oyalari yoki biror maqsadga bo‘ysundirilgan muayyan tildagi inson xulq-atvorini shakllantirish mumkin edi. Lekin shu bilan bir vaqtida, qadimdanoq kishilar ongini nayrang va aldovlar vositasida, yolg‘on ideallar bilan zaharlash imkoniyati ham paydo bo‘ldi.

O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakillanishining psixologik omillarini nazariy jihatdan o‘rganar ekanmiz, biz mafkuraviy tahdidlar ta’sirini kuchsizlantirish, ta’sir doirasini zararlantirish, mafkuraviy xurujlarni bartaraf etishimizga to‘g‘ri keladi. Buzg‘unchi va g‘arazli g‘oyalarga ega bo‘lgan jirkanch insonlar haqida muqaddas

kitobimiz “Qu’on”da ham quyidagicha fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. “Ular Allohnini va imonli kishilarni aldamoqchi bo‘ladilar va o‘zlar sezmaganlari holda faqat o‘zlarinigina aldaydilar. Ularning dillarida maraz bor. Ularga “Er yuzida buzg‘unchilik qilmanglar!” deyilsa, “Biz – isloh qiluvchilarmiz”, deydilar. “Ogoh bo‘lingizkim, ularning o‘zlar tuban kimsalardir”, deyilgan”. Yoki “Kim qastdan bir mo‘minni o‘ldirsa, uning jazosi jahannam bo‘lib, o‘sha joyda abadiy qolajak”, deb ta’kidlangan [196].

“Qur’on”da insonning ruhiy va ma’naviy kamolga yetishiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri g‘azab deb ko‘rsatiladi. U ruhiy razolat sifatida talqin etiladi. Chunki g‘azab kelganda aql qochadi, inson o‘z xulq-atvorini to‘g‘ri tashkil qila olmasligi natijasida o‘z manfaati, obro‘sini himoya qilaman deb johillikka yo‘l qo‘yadi, g‘azab, hatto, inson salomatligiga ham zarar yetkazadi. Shuning uchun ham islom insonni aql va insofga, o‘z xulq-atvorini to‘g‘ri tashkillashtira olishga chaqiradi. Chunki g‘azab kelganda chiqarilgan hukm, amalga oshirilgan xatti-harakat johillik belgisi bo‘lib hisoblanadi. G‘azabni bosish bilan birga uni qo‘zg‘agan shaxsni kechira olish darajasida o‘zini boshqara olish xislatiga ega bo‘lish kerakligi uqtiriladi [196].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rish mumkinki, inson xulq-atvorini to‘g‘ri tashkillashtirishi, sog‘lom tarbiya olishi, shaxs kamolotining rivojlanishiga turtki bo‘lishiga, qolaversa, o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllanishiga zamin hozirlaydigan psixologik omil hamdir. Shuningdek, insonlar hayot davomida uchraydigan buzg‘unchi fikr va g‘oyalardan tiyilishi, uning ta’siriga berilmasligi uning uchun eng zarur xususiyat ekanligi e’tirof etiladi.

Inson kamoloti bilan bog‘liq islom dini g‘oyalarini o‘zida mukammal mujassam etgan “Naqshbandiya” tariqati kishilarda mehr-oqibat, samimiylit, halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, sabr-qanoatning tarkib topishiga yo‘llar ekan, ulardagi yomon illatlar – harom sanalgan ishlar, ya’ni o‘g‘rilik, nopolik, xasislik, yolg‘onchilik, firibgarlik, ta’magirlik, boylikka hirs qo‘yish kabi buzg‘unchi va vayronkor g‘oya-mafkuralarni qoralaydi.

Shuningdek, hadisi muborakda “Qaysi bir musulmon ikkinchi bir musulmon birodari boshiga tig‘ ko‘tarsa, Allohu Taoloning farishtalari to o‘sha tig‘ni qaytarib o‘rniga qo‘ymaguncha la’nat aytib turadilar” kabi fikrlar keltirilgan. Bular esa islom dinining

insonparvarlik mohiyatidan darak berib, o’smir shaxsida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va barqarorligiga erishishimizda asos bo‘lib xizmat qilmog‘i darkor.

Demak, islam dini ta’limoti bo‘yicha ham inson ma’naviy kamolotini yoki biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet asosini faqat aqliy rivojlanish emas, balki axloqiy sifatlar: sabr-qanoat, chidam, bardoshlilik, o‘z shaxsiga va o‘zga shaxsga nisbatan hurmat hissining mavjudligi, insonparvar g‘oyalarning shakllanganligi, iyomon-e’tiqod va vijdonning pokligi hamda xushhulqlilikning shakllanishi tashkil etadi.

Abu Nasr Forobiy ta’limotida axloqiy tarbiya aqlli, fazilatli inson tarbiyalashning eng muhim shartlaridan bo‘lib, aqliy tarbiya bilan uzviy ravishda bog‘langandir. Uning axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” kabi risolalarida bayon etiladi.

Bundan XI asr oldin yashab ijod qilgan Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ham shaxsda mafkuraviy immunitet shakllantirishga ehtiyoj sezilganini asar mazmunidan sezish mumkin. To‘g‘ri, o‘sha davrda mafkuraviy immunitet degan lug‘aviy so‘z uchramagan, lekin shakl jihatdan boshqa, mazmun jihatdan esa biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet tushunchasini o‘sha davrda ham ko‘rishimiz mumkin.

Demak Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini umumlashtirsak, undagi fikriga ko‘ra, “Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug‘ma ravishda o‘ziga xos bo‘lgan ichki shuurila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Hamma narsani idrok qilish insonni komillik va lazzat tomon boshlaydi. Insonning asl ruhiy kamoloti birinchi haqni tanish orqali hosil bo‘ladi. Ma’rifat— baxt-saodat va kamolot sari qo‘yilgan birinchi qadamdir” [19], demak, har bir inson komillikka o‘z-o‘zidan erishmaydi, unga qa’tiyatli iroda hamda mehnat asosida o‘z xulq-atvorida go‘zal fazilatlarni orttirish bilan erishishi ta’kidlanadi. Asar mazmunida, inson o‘z hulq-atvorida o‘n ikkita eng go‘zal va mukammal fazilatlarni shakllantira olsagina, u kamolotga yetadi va ruhan hamda tabiatan xayrli amallarni bajarishga hamda sharr (yomon), buzg‘unchi ishlardan saqlanishga o‘zida kuch topa oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli

fe'l-atvor tug'diradigan iste'dod mavjud bo'lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir [19], degan fikrlar ilgani suriladi.

Abu Nasr Forobiy o'zining asarlarida insonlardagi sog'lom xulq-atvor va uning fazilatlari kabi xislatlarni ma'naviy kamolotning asosiy mezoni sifatida ko'rsatadi. Shaxs ma'naviy jihatdan kamolga yetishida yoki biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet shakllanishida avvalo ruhan pok, turli ichki qarshiliklarni yenga oladigan, qa'tiyatli, o'zligini anglagan, insonparvar g'oyalarga pur inson bo'lishi kerakligini uqtiradi [19].

Abu Rayhon Beruniyning inson turmushiga xos bo'lgan xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari psixologik nuqtai nazardan ham qiziqish uyg'otadi.

Beruniy inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deb hisoblab, ozodalik va orastalikni olijanoblik bilan tenglashtiradi, inson doimo ularga rioya etishi zarur, deb ta'kidlaydi. Bunda inson o'zini boshqara olishga qodir bo'lishi, har bir yetuk inson uchun muhim bo'lgan xislatlarni o'zida tarbiyalashda kuch va irodaga ega bo'lishi lozim, deydi. Olim "Minerologiya" asarida "Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z joni va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir", - deb ta'kidlaydi [20].

Keltirilgan fikrlardan ko'rindaniki, alloma inson kamolotida sog'lom xulq-atvor, iroda va irodaviy sifatlarning o'rni beqiyos ekanini tan oladi. Ayniqsa, shaxs o'zidagi ijobiya va salbiy xulq-atvor me'yorlarini idora qilishi, o'zini o'zi nazorat qila olishi hamda boshqara olishida iroda va irodaviy sifatlar yaqqol namoyon bo'lishiga alohida urg'u beradi. Bu kabi xususiyat va sifatlar biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet shakllanishining ham asosini tashkil qiladi. Ya'ni shaxsda to'g'ri va sog'lom xulq fazilatlari shakllansagina, u buzg'unchi va vayronkor g'oyalalar ta'siriga berilmaydi. Allomaning yuqoridagi fikrlari bizning tadqiqotimizda ilgari surilayotgan "insonda mafkuraviy immunitet barqaror shakllansagina, u har qanday buzg'unchi va yot g'oyalarni daf eta olishi yoki ularga qarshi murosasiz bo'la olishi nazarda tutilgan g'oyalarga hamohangdir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini islom ma’naviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi deb bemalol ta’riflash mumkin. Ushbu asar ham shaxsda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o’sha davrning siyosiy, mafkuraviy qarashlari, inson kamoloti va shaxslararo munosabatlarda go‘zal va sog‘lom xulqni shakllantirish va shu asosda insonlar orasida ezgulik ishlarini olib borish, buzg‘unchi yomon illatlar bilan kurashish kabilar asar qahramonlarining timsolida shakllantirilgan.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Qytadg‘y bilig” – (baxt saodatga elituvchi bilim) asarida ham mafkuraviy immunitet tizimining asosiy vazifalirini ham uchratamiz. Misol tariqasida, asarda komil insonning eng asosiy jihatlari sifatida alohida shaxsning o‘z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g‘ami bilan yashashi, ko‘pchilik manfaati uchun fidoyi bo‘lishi belgilarini ko‘rsatib o‘tadi. U ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr eshitish bilan birga bilim va zakovatning amaliyotdagi o‘rnini ham yoritib beradi. Bilimi buyuk – uquvi ulug‘, deb ta’kidlaydi. Chunki zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi, deb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo‘sadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda shaxs axloqiy xulq-atvorini sog‘lom qilib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berish kerakligi uqtiriladi. Chunki sog‘lom axloqiy xulq-atvor inson ziynati bo‘lib, shaxs kamolotining asosiy jihatlaridan sanaladi. Shu bilan birga uning nazdida shaxsning sog‘lom xulq-atvori har qanday yomon, buzg‘unchi illatlardan uzoq bo‘lishni ta’minlaydi [183].

Inson kamoloti, sog‘lom xulq-atvorga, ma’naviy, mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish g‘oyasi Kaykovusning “Qobusnama” asarida ham keng yoritilgan. Kaykovusning fikricha, ilm insonni kamolotga yetaklovchi omildir. U ilmni uchga bo‘ladi:

1. Biror kasb-hunarga bog‘liq bo‘lgan ilm.
2. Ilm bilan bog‘liq bo‘lgan kasb-hunar .
- Z. Xayr va dalolatga taalluqli odat.

Kaykovusning mazkur qarashlari o’sha davrda ilg‘or qarashlardan sanalgan. Chunki bu fikrlar uni zukko, donishmand, har tomonlama yetuk bilimga ega bo‘lganligidan dalolat bergen. Uning pand-nasihatlarida har bir yoshning aqliy, ahloqiy, jismoniy

tarbiyasiga oid turmush “Qobusnom” asarining barkamol avlodni tarbiyalashda amaliy ahamiyati juda kattadir.

Kaykovus o‘zining asarida shaxs xususiyatlari, sog‘lom xulq-atvor, insonparvar va umuminsoniy g‘oyalarga, chuqur ilm va kuchli irodaviy sifatlarga ega bo‘lishi uni har qanday salbiy, buzg‘unchi g‘oyalar va odatlardan o‘zini tiya olishi lozimligini uqtiradi [86].

Umar Xayyom inson xulq-atvoridagi fazilatlar asta-sekin hosil bo‘ladi, deb hisoblaydi. Agar inson biron-bir ijobjiy axloqiy fazilatga ega bo‘lmasa, u harakat qilib, o‘zida uni vujudga keltirishi, yomon illatlar hamda buzg‘unchi fikrlardan esa o‘z irodasi bilan xalos bo‘lishi kerak, deb ta’kidlaydi.

Umar Xayyomning fikricha, xulq-atvor ikki yo‘l bilan – odat qilib olish yordamida va fikrlash jarayonida yuzaga keladi [159].

Demak, allomaning nazarida, insonlardagi xarakter xislatlari tug‘ma bo‘lmay, balki hayot davomida shakllanib boradi. Shu bois, insonlarda turfa xil xulq-atvor xususiyatlari tarkib topishi, avvalo, ijtimoiy hayot mahsuli hisoblanadi. Ayniqsa, shaxsning jamiyat hayotiga kirib borishi, ijtimoiy xulq-atvor namunalarini egallashida insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari hamda xarakter xususiyatlari muhim o‘rin egallaydi.

Alisher Navoiy fikriga ko‘ra, yaxshi xulqning asosi odob bo‘lib, u barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar – qanoat, sabr, tavozu’, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko‘ngillik) aynan odobli kishilarda tarkib topadi.

Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya jarayonida insonning o‘zini o‘zi tarbiyalashi, xato va kamchiliklarini anglab, ularni tuzatishi maslasiga alohida e’tibor beradi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy o‘zining qarashlarida komil insonga xos bo‘lgan axloqiy sifat va fazilatlar orasida yomon illatlardan saqlanishga alohida urg‘u beradi. Unga ko‘ra, inson o‘zligini anglashi, sog‘lom xulq-atvorga ega bo‘lishi, iymon-e’tiqod va pok vijdon, kuchli iroda kabi muhim sifatlarning shaxsda shakllanishi uning komillikka yetishida o‘ta muhimdir. Ulug‘ mutafakkir, ayniqsa, o‘zini o‘zi tarbiyalash maslasiga katta e’tibor qaratib, bu jarayon bevosita o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi nazorat qilish orqali amalgalashishi va unda qo‘llaniladigan usul va vositalarni oqilona tanlay olish muhimligini ta’kidlaydi [22].

Alisher Navoiy o‘z asarlarida “Haqiqiy insonda ko‘p fazilatlar bo‘ladi: lekin bular orasida eng sharaflisi – insofdir. Insofsiz kishi – inson emasdир. Uning atvorida xatodan boshqa narsa yo‘qdir” [22],- deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, biz tadqiq qilayotgan ishimizda ham o‘smir shaxsi barqaror mafkuraviy immunitetga ega bo‘lishida uning xulq-atvorida insof shakllanishi ham nazarda tutilgan. Insonda insof va diyonat fazilatlari shakllanmagan bo‘lsa, u har qanday buzg‘unchi nafs, faxsh, zo‘ravonlik, buzuqlik, ma’naviyatsizlik, xudbinlik, yengil-elpilik, baxillik kabi illatlarning quliga aylanishi aniqdir.

Husayn Voiz Koshifiy o‘z qarashlarida insonni har qanday yomon illatlar hamda buzg‘unchi fikr va g‘oyalarga duchor bo‘lishi unda sog‘lom va go‘zal xulq-atvor shakllanmaganligidandir, deb ta’kidlaydi. Koshifiyning ta’kidlashicha “Go‘zal fe’l-atvorning nishonasi o‘n narsadir: birinchi nishonasi – yaxshilik; ikkinchisi – insofli bo‘lish; uchinchisi – boshqa odamdan ayb qidirmaslik; to‘rtinchisi – biror kishida ham nojo‘ya harakat ko‘rsa, uni yaxshi yo‘lga boshlash; beshinchisi – bir odam o‘z aybiga iqror bo‘lib uzr aytsa, uzrini qabul qilish; oltinchisi – boshqalar uchun mashaqqatni o‘z ustiga olish; yettinchisi – faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik; sakkizinchisi – ochiq yuzli, shirin so‘zli bo‘lish; to‘qqizinchisi – muhtojlarning hojatini chiqarish; o‘ninchisi – muloyim va mulozamatli bo‘lishdir” [208].

Husayn Voiz Koshifiy o‘z asarlarida ibo-hayo haqida shunday deydi: “Hayo va andisha dunyoda tartib saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hayo yo‘qolsa, hech kimda vijdon ham qolmaydi. U holda dunyoda tartib buziladi. Kishilar bir-biriga befarq qaraydigan bo‘ladilar” .

Qarang, Husayin Voiz Koshifiy bizni bugungi kun buzg‘unchi “ommaviy madaniyat” kirdikorlaridan ogohlantirmoqda. Chunki bugungi kunda buzg‘unchi “ommaviy madaniyat” ishlab chiqaruvchilari insonlar orasiga buzg‘unchilik urug‘lari, ya’ni hayosizlik, fahsh, xudbinlik, o‘zim bo‘larchilik, loqaydlik, beparvolik, zo‘ravonlik, erkin sevgi, bir jins vakillari sevgisi kabi milliy xarakterimizga yot bo‘lgan yovuzlik urug‘ini sochib, turli tartibsizliklarni yuzaga keltirishni rejalashtirganlar.

Yuqoridagi barcha mulohazalar shaxs kamolotida sog‘lom xulq-atvor me’yorlarini tarkib toptirish, shuningdek, shaxsning go‘zal odobli, insonparvar g‘oyalarga ega bo‘lib borishi, irodaviy hamda

xarakterologik sifatlarni rivojlantirish, shu jumladan, o‘zini o‘zi to‘laqonli anglash tizimini takomillashtirish asosida ularda ma’naviy, mafkuraviy, psixologik immunitet hosil qilish muhim ekanligini ko‘rsatdi. Zero, allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosda ilgari surilgan g‘oyalar bugun yoshlarni nafaqat aqlan, axloqan, balki ularda buzg‘unchi, yot, vayronkor g‘oya va mafkuralarga qarshi mustahkam, barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi ayni haqiqatdir.

Bu esa o‘z-o‘zidan mazkur masalaga ijtimoiy psixologik muammo sifatida qarashni va uning bugungi kundagi dolzarbligidan kelib chiqib, muammoni yanada chuqurroq, mukammalroq tahlil qilish uchun o‘ziga xos empirik malumotlarga asoslangan ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy oydinliklar kiritish zarurligini taqozo etadi. Shu bois keyingi paragrafda muammoning xorij tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

2. Muammoning xorij va Rossiya tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi

O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari – ijtimoiy psixologik muammo sifatida xorij tadqiqotchilar doirasida qay tariqa va qanday o‘rganilganligini tahlil qilish hamda talqin qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mafkuraviy immunitet shakllanishiga oid olib borilgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko‘lamiga ma’lum tartibda baho bermay turib, o‘smirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr-mulohaza yuritib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida insonlar ongi uchun kurash va axborot xurujlari hamda ochiq va yopiq maqsadlarni ko‘zlagan g‘oyaviy, ma’naviy, mafkuraviy tahdidlarni inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur tahdidlarga nisbatan insonlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlari qay darajada mas’uliyatli ekanligi ko‘p hollarda mafkuraviy immunitetning psixologik omili va uning tarkibiy qismlarini bilishimizga bog‘liqdir.

Bundan ko‘rinadiki, o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini ahamiyatini ijtimoiy psixologik jihatdan tadqiq etishda yuqorida sanab o‘tilgan psixologik jabhalarga tayanib izohlash muhimdir.

Hozirgi kunda psixologiya fanida shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishi xususiyatlarini baholashga doir asosiy nazariy yondashuvlar yetarlicha bayon etilmagan bo'lsa-da, quyidagi xorij olimlarining psixologik ishlarini e'tiborga olish muhimdir.

Xorij manbalarini tahlil qilganimizda aynan mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi shaxsning to'laqonli shakllanishi, sog'lom xulq-atvor va uni boshqarish mexanizmlari, o'smir shaxsda "Men" konsepsiyasi, uning shakllanish qonuniyatlarini, shaxsning psixologik himoya mexanizmlari, o'zini o'zi anglash qonuniyatlarini, ijtimoiylashuv jarayoni qadriyatlar tizimi, ma'naviy bilimlarning orttirishi, etnopsixologik va milliy xarakterologik xususiyatlar shakllanish kabi shaxsning har xil g'oya va mafkuralarning maqsadlarini anglashga yordam beruvchi masalalarda bir qator tadqiqotlar olib borilganligiga guvoh bo'lamiz.

Turli davrda yashab, ijod qilgan xorijlik psixolog, faylasuf, tarixchi, mafkuraviy texnologiyalar va geosiyosat mutaxassislari K.Girs [62, 225-226 s.], F.Kazin [88], L.Shabanov [180,65-b.], A.Morozov [114], Ye.Karseva [89], Z.Bjezinskiy [48], S.Kara-Murza [90], A.Zinovev [75], G.Grachev [63], S.Zelinskiy [76], A.Karayani [91], R.Chaldini, R.Xarris [173], I.Zasurskiy [77], S.Rastorguev [132], R.Abdullatipov, K.Kalandarov [87], pedagog va psixologlar A.Rean [133], O.Petrich [124], I.Kolotilova [92], V.Druzin [66] va boshqalar mafkuraviy kurash, yoshlarga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlar, manipulyatsiya jarayonlari, "ommaviy madaniyat"ning globallashuvi, g'oyaviy kurashning turli jabhalarini tadqiq qildilar va barcha tadqiqotlarning asosida insonda buzg'unchilik va vayronkorlik g'oyalari paydo bo'lishi ko'p jihatdan ularning psixologiyasiga borib taqalishini qayd etib o'tdilar.

Jumladan, Charlz Rubining 2002 yilda yozilgan "Terroristlar ruhiy xastamilar?" nomli kitobida odamlar ommanning ijtimoiysisiy holatini yaxshilash maqsadida emas, psixologik ehtiyojlarini qondirish maqsadida terroristga aylanadilar" degan fikrlari shaxsda buzg'unchi va vayronkor g'oyalari hamda ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda uning psixologik omillarini tadqiq qilishimizga turtki bo'ldi.

Yana shunday fikrlar Abraxam Kaplan – terrorizm bo'yicha xalqaro ekspertning qarashlarida ham mavjuddir. Abraxam Kaplan

ijtimoiy sharoitlar – terrorizm asosini, shaxs xususiyatlari esa terrorizm sababini aniqlashda katta yordam bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Siyosiy psixolog Djerrold Post [67,12-b.] esa insonlarning buzg‘unchi oqimlarga og‘ishib ketishini uning psixologik omillariga bog‘lab, ikki turga bo‘lib o‘rganadi va ularni yuzaga keltiruvchi psixologik omillarga quyidagicha izoh beradi:

- Anarxist – ideolog;
- Millatchi – separatist;

Anarxist – ideolog. Bolaligida ota-onalari o‘rtasidagi jiddiy janjallar qurboni bo‘lgani bois oilaga, unda birinchi navbatda, otaga qarshi isyon vujudga keladi. Ota-onsa mavjud siyosiy tartibga itoat ramzi ekan, o‘z otasiga isyon osongina davlatga qarshi isyonga aylanadi. U o‘z maqsadlariga erishsa ham isyonga sabab topaveradi, zotan isyon ichki nafratni namoyon qilish imkoniyatidir.

Millatchi – separatist. U o‘z davlati hokimiyatiga qarshi emas, uning xohishi tashqi dushmanlarga qarshi qaratilgan. Muammo: o‘zligini boshqalardan farqlashning patologik imkoniyatidan mahrum ekanlidigkeitdir. Shu sabab ular jamiyatga qarshi isyon ko‘taradi va bir paytlar uning ota-onasiga yetkazilgan azoblar uchun qasos oladilar.

Aksilterroristik markazning sobiq direktori Pol Pilar fikrida ham buzg‘unchi g‘oya vakillarining ushbu holatlarni sodir qilishda ularning asosi sifatida psixologik omillarga urg‘u beradi. Ya’ni, Pol Pilarning yondashuviga ko‘ra, terroristik uyushmalar impulsiv emas, rejaga muvofiq faoliyat yuritadi. Maqsadlari kriminal emas, siyosiy: shunchaki pul emas tartibni o‘zgartirish. Maqsadlari harbiylar emas, fuqarolardir. Davlat chegaralari doirasida emas, millatlararo guruuhlar doirasida ish yuritadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarga hamda ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan insonlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda psixologik omillarni tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Shu bois mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarining tarkibiy qismi sifatida shaxs xususiyatlari, uning irodaviy-emotsional holatlari, ong usti va ong osti jarayonlari, bilish jarayonlari, ijtimoiylashuv jarayonlari, ustakovkalar, motivatsiyalari, ehtiyojlari, maqsadlari, e’tiqodlari, qadriyatlar tizimi kabilarning o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir .

Jumladan, psixolog olimlardan A.N.Leontev [96] o‘zining “Psixikaning rivojlanish muammolari”, B.G.Ananev [34] “Inson

bilishning predmeti sifatida”, L.I.Bojovich “Shaxs va uning bolalar jamoasida shakllanishi” kabi asarlarida [43] inson ongiga o‘zini o‘zi nazorat qilish usullarini singdirish kabi psixologik xususiyatlar tadqiq qilingan. Mazkur olimlarning ishlarida biz tadqiq qilayotgan o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, birinchilardan bo‘lib shaxs o‘zini o‘zi boshqara olishi, nazorat qila olishi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarurligi ta’riflangan. Ya’ni o‘zini o‘zi nazorat qilish usullarining shaxs tomonidan to‘laqonli o‘zlashtirilishi shaxsning o‘z faoliyatini o‘zi boshqarishdan murakkab boshqarishga o‘sib o‘tadi. Shunday qilib, shaxslarningo‘zini o‘zi nazorat qilishga o‘rgatilishi natijasida ularning o‘z shaxsiy aqliy faoliyatini boshqarish, bilish tizimini nazorat qilish, o‘z kuchiga ishonch, o‘ziga va o‘zgalarga ob’ektiv baho bera olish tizimi shakllanadi.

B.G.Ananев, N.V.Kuzmina, N.F.Talizina, V.Ya.Lyaudis, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, A.A.Bodalevlarning asarlarida “shaxsning kamoloti, ma’naviy tushunchalari o‘smirlik yoshi davriga kelib ancha takomillashadi. Bu davrda yoshlarda xulqnining eng muhim sifatlari: mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va o‘zlikni anglash takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi. Bu davrda shaxsda “Men” real menlikdan “ideal menlikka” (yuksak darajada ma’naviy, axloqiy tushunchalarning anglanishi, barqaror va barkamol sifatlar majmui)ga o‘tiladi”, - deb ta’kidlanadi .

Yuqoridagi mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va o‘zlikni anglash, ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish kabi fazilatlar shaxs mafkuraviy immunitetining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki buzg‘unchi g‘oya inson ongiga ta’sir qilganda, u o‘zining farosati, yuksak umuminsoniy va insonparvar bilimi, topqirligi, hushyorligi, axloqiy sifatlarga egaligi bilan unga qarshi tura oladi, yoki kurasha oladi.

AQShlik yirik psixologlar B.Skinner [143, 82-91-b.] o‘zining “Xulq texnologiyasi”, K.Rodgers [131] “Ozodlik – bu inson o‘zi yashayotganligini anglashdir” deb nomlangan asarlarida inson xulq-atvori shaklanishi stimul, imitatsiya, rag‘batlantirish, jazolash kabi ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq ekanligi ta’kidlab o‘tiladi. B.Skinner nazariyasining asosiy (bosh) g‘oyasi – mustahkamlash,

ya’ni xulq aktining qayta takrorlanish ehtimolligi kamayishi yoki kuchayishi hodisasisidir. Bunda mustahkamlanish rag‘batlanish (stimul, mukofotlanish) sari yo‘nalgan bo‘ladi, lekin u biron-bir asosga sira tenglashmaydi. Uning ta’kidlashicha, mustahkamlanish ijobiy (pozitiv) va salbiy (negativ), birlamchi va shartli ko‘rinishlarga ega.

Bizning tadqiqotda ham buzg‘unchi g‘oyalarning inson xulq-atvoriga ta’sirida hamda unga qarshi immun tizimi hosil qilinishida bu kabi omillar tadqiq qilinadi.

A.Bandura [45] sub’ektda xulq-atvor yangi ko‘rinishining shakllanishida taqlid modelining roli to‘g‘risida mulohaza yuritib, “stimul-reaksiya” sxemasi to‘rt oraliq jarayondan iborat ekanligini ko‘rsatib o‘tadi:

1. Harakatdagi modelga bola diqqati qaratilganligi. Modelga qo‘yiladigan talablar: aniqlik, tafovutlilik, his etish, funksional ahamiyatlilik bilan tavsiflanadi;
2. Ta’sir o‘tkazuvchi model to‘g‘risida axborotlarni saqlovchi xotira;
3. Kuzatuvchi esga tushirish jarayoniga imkon beruvchi harakat malakalari;
4. Bolaga ko‘rib turganlarini bajarishga nisbatan xohishini aniqlovchi motivatsiya kabilari.

Bu o‘rinda muallifning normal va normal bo‘lmagan xulqining shakllanishida uchta omil kuzatish, imitatsiya, identifikatsiyaning roli beqiyosdir. Biz ham o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda shu uch omildan foydalanishimiz maqsadga muvofiq. Misol tariqasida birinchi omil kuzatib o‘rganish, bolalarimiz bugungi kunda OAVlaridan internetdan nimani ko‘proq ko‘rishsa, o‘shani o‘rganadi. Demak, biz OAV, Tvlarda berilayotgan bolalar dasturlarida ko‘proq Vatanni, xalq farovonligini, yurt tinchligini, komillik sir-sinoatlarini, ijtimoiy hamkorlikning foydali tomonlarini, millatlararo totuvlik milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligini, diniy bag‘rikenglik insonni ulug‘lashi kerakligi kabilarni namoyish qilishimiz kerak. Shaxslararo munosabatlarda katta avlod vakillarimiz ijtimoiy normalarga, milliy qadriyatlар tizimimizga to‘laqonli rioya qilsalargina,bolalarimiz buni kuzatib barkamol modelni namoyon qilishlari mumkin. Ikkininchi omil imitatsiya (taqlid) milliy pedagogikamizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan naql bor.

Biz xalqimiz orasida shunday ideal siymolarni ko‘paytiraylikki, yoshlarimiz unga zo‘rma-zo‘rakidan emas, balki o‘zлari xohlab, qiziqib ergashsinlar. Uchinchi omil identifikatsiya, bunda ham biz zamonaviy ibratli, namuna bo‘la oladigan darajadagi barkamollikni namoyon qilaylikki, ushbu model fazilatlaridan yoshlarimiz har onda o‘xhashlikka va undan foydalanishga ehtiyoj sezsinlar. Demak, A.Banduraning qarashlarida biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik omillar identifikatsiya, stimul, imitatsiya, kuzatib, ko‘rib o‘rganish kabilar insonda sog‘lom xulq-atvor yoki og‘ishgan xulq-atvor shakllanishiga sabab bo‘lishi psixologik jihatdan izohlab o‘tilgan.

Biz tadqiqotimizda bugungi globallashuv davrida insoniyat ongini zaharlashga qaratilgan ma’naviy va mafkuraviy xurujlarga nisbatan o‘smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda o‘smirlardagi tabiy psixologik himoya mexanizmlarining o‘rni va ahamiyatini ham tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

Shaxslarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishi muammozi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, chet el psixolog va sotsiolog olimlari, A.Villi, E.Dyurkgeym, P.Jane (Fransiyada), T.Shrayber Amerikada K.Byuler, V.Metyuza, Dj Bruner, S.Xoll, U.Djeyms, D.Cheyni (Germaniyada), E.Klapared (Shveysariyada) va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan bu sohada bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Sobiq ittifoq pedagog, psixolog va sotsiolog olimlari N.N.Obozov, V.A.Sisenko, A.N.Leontev, Yu.E.Alyoshina, N.I.Gubanov, V.N.Sokolova, G.Ya.Yuzefovich, D.V.Kolesov, N.V.Silverova, N.N.Tolstix, A.G.Shmelev, T.Karsev, E.Goffman, V.G.Vlastovskiy, A.V.Baranov, P.F.Lesgaft, R.Plutchik va boshqalar ham bu borada ma’lum ishlarni amalga oshirganlar.

Psichoanalitik yo‘nalishda psixologik himoya mexanizmlari Z.Freyd, A.Freyd, E.Fromm, K.Xorni va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar markazida bo‘lgan. Z.Freyd “himoya” atamasini ilk bora “Himoyaviy neyropsixozlar” nomli ishida qo‘llagan (1894). Keyinchalik “Isterika etiologiyasi” nomli qo‘llanmasida qo‘llagan (1896). Mazkur asarlarda Z.Freyd himoya mexanizmining maqsadi, mazmunini to‘liq ifoda etgan. U intropsixik nizoni bo‘shatishdan iborat ijtimoiy hamkorlik natijasida yuzaga keluvchi ongsizlikni instinkтив impulslari va tashqi muhitning interifizatsiyalashgan

talablari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan shartlangan. Keyinchalik esa “Tushkunlik konsepsiysi”, “Rohatlanish tamoyilining narigi tomonida”, “Omma psixologiyasi” va “Men tahlili”, “Men” va “U” maqolalarida davom ettirgan. Shuningdek, hozirgi kungacha ilmiy adabiyotlarda qo‘llaniladigan boshqa himoya mexanizmlariga ham maxsus tushunchalarni keltirib o‘tgan. Shu tariqa fenomenologiyaning maqsadi va psixologik himoyaning sub’ekti aniqlangan. Bu muammolar bo‘yicha yanada shiddatli hamda ilmiy asoslangan fikr va mulohazalar Z.Freydning “Chekli va cheksiz tahlillar” (1937) nomli maqolasida bayon etiladi. Bu maqolada himoya mexanizmini rivojlantirish va o‘zlashtirish jarayoni sifatidagi dialektik umumiyligi bo‘lgan ichki-tashqi nizolarni bo‘shashtiruvchi va individual xulq-atvorni boshqaruvchi (barcha mexanizmlarning umumiyligi nomi sifatida” qayd etiladi. Ya’ni hodisalar psixikaning asosiy funksiyalari moslashuv, barqarorlashuv va boshqaruv kabilalar bilan bog‘lanadi. A.Freydning qarashlari Z.Freydning so‘nggi ishlaridagi qarashlaridan deyarli farq qilmaydi. Uning izlanishlari himoya mexanizmlarining umumiyligi nazariy tizimini yaratishga harakat qilgandir. 1936 yilda nashr qilingan o‘zining fundamental monografiyasida himoyaviy harakatlarning turli uslublari haqida to‘liq ma’lumot bergen.

A.Freydning fikricha, himoya mexanizmlari reaksiyalarning ikki tipiga asoslanadi:

1. Ongli harakatda impulslarning namoyon bo‘lishini bloklash;
2. Ularni shu qadar buzib ko‘rish kerakki, avalgi intensivligi yetarlicha pasayib yoki boshqa tomonga og‘ishi.

A.Freyd o‘z tadqiqotlarini umumlashtirib himoya mexanizmlariga quyidagicha ta’rif beradi: himoya mexanizmlari – bu “Men” faoliyatidir, u uning uchun xavf tug‘diruvchi “Men”ning haddan ziyod faollikka yoki unga mos affektlarga tushishi mumkin bo‘lganda paydo bo‘ladi. Ya’ni, ular ong bilan kelishilmagan holda funksiyalashadi. Bu tushunchada avtomatizm deb nomlanuvchi himoyani ongsiz hodisalarning mos turiga keltirish haqidagi muhim fikr ilgari suriladi. Shunga muvofiq, himoya jarayonlarini tashkil qilishda onglini ongsizga taqqoslash haqidagi savolni qo‘yishi o‘rinlidir. Undan so‘ng oddiy fikriy operatsiya yechiladi, mustahkamlanadi va shartli reflektorli beqaror avtomatik xarakterga ega bo‘ladi.

Z.Freyd nazariyasi davomchilari A.Freyd, K.Levin, T.Shibutanilar psixologik himoyaning maqsad va vazifalarini aniqlashga harakat qilganlar. F.Bassin, A.G.Rotenberg, V.V.Varshavskiy, V.G.Myager, Ye.P.Sokolov, Ye.S.Romanov, L.R.Grebennikovlar nazariyalarida psixologik himoya mexanizmi shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligi qayd etilib, ayniqsa, insondagi ruhiy zo'riqish holatining oldini olishda inson psixikasining me'yoriy ishlashini ta'minlab turishi ta'kidlangan.

Bizda tabiiy ravishda psixologik himoya tizimi nima o'zi va uning ta'rifi qanaqa bo'ladi? Uning vazifasi nimadan iborat? U kimni nimadan yoki kimdan himoya qiladi? Uning bo'lishi insonlarga kerakmi yoki aksinchami? degan o'rinli savollar tug'iladi.

Ko'plab tadqiqotlar shaxsning psixologik himoya mexanizmlariga quyidagicha ta'rif berishimizni taqozo qiladi.

Psixologik himoya – bu shaxsni salbiy kechinmalardan himoya qilishga yo'naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir.

Endi shaxslarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllanish qonuniyatları va shu asosda yuqorida tug'ilgan savollarga javob topib boramiz. R.Plutchik psixologik himoya mexanizmiga *ob'ektiv vaziyatning inson tomonidan real tarzda idrok etilishi natijasida vujudga keluvchi ziddiyatlari, tashvishli holatlarni hissiy-emotsional tarzda yumshatish, ruhiy zo'riqishni pasaytirish sifatida qaraydi*. Bu o'rinda ikkita bir-biriga qarama-qarshi fikr maydonga keladi. *Psixologik himoya mexanizmi birinchi holatda insonning o'z-o'zini rivojlantirishiga, o'z-o'zini qayta qurishiga monelik ko'rsatadi, sababki, "Men-obrazi"ni xavfdan saqlash uchun inson xotirjamlikka beriladi, tashqi shart-sharoitga, vaziyatga moslashishga undaydi; ikkinchi holatda esa inson ichki ruhiy va tashqi to'siqlarni, ziddiyatlarni yengishga, uni bartaraftoshga chog'lanadi*. Bu o'rinda "Men obrazi"ni rivojlantirish maqsadida kuchli emotsional zo'riqish holatini boshdan kechirishga rozi bo'ladi, u o'z ustida ishlaydi, muammoning yechimini izlaydi.

Shaxs psixikasida ilk bolalik davridan boshlab umrining oxiriga qadar "psixologik himoya", "psixikaning himoya mexanizmlari" deb ataluvchi mexanizmlar shakllanadi va rivojlanib boradi. Bu mexanizmlar shaxs ongini turli salbiy emotsional kechinmalardan va persepsiyalardan, o'zi uchun notshg'ri deb hisoblagan fikrlardan

asraydi. Aslida bu yerda fikr turli moslashish jarayonlarida shaxs o‘zi tomonidan egallaydigan xususiyatlar va sifatlar haqida ketmoqda.

“Psixologik himoya”, “himoya mexanizmlari” atamalari Z.Freyd tomonidan fanga kiritilganidan so‘ng, bu tadqiqotlar yanada katta shiddat va qiziqish bilan interpretatsiyalanib, transformatsiyalanib va modernizatsiyalanib kelingan. Shuningdek, psixoanalitik yo‘nalishlarning turli davr tadqiqotlari va psixoterapevt namoyondalari tomonidan hamda boshqa psixologik yo‘nalishlar – ekzistensional, psixologiya, insonparvarlik psixologiyasi, geshtalt psixologiya va boshqalarning izlanishlarida ko‘rish mumkin.

“Himoya” va “kurashish” psixikaning maxsus mexanizmlari unga yoqimsiz tuyg‘u va xotiralardan xalos bo‘lishga yordam beradi. Ularni ongdan tashqarida tutadi, ya’ni xavotir va stressni ushlab turadi hamda ongsiz kompensatsiyani bajaradi.

Rus psixologiyasida himoya mexanizmlari fenomenologiyasi ko‘p vaqt mobaynida umumiylah tahlil predmeti bo‘lmagan. Buning asosiy sababi 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshida katta tortishuvlarga sabab bo‘lib, psixoanalizning likvidatsiya qilinishidir. Rus psixologiya matabining rivojlanish mantig‘i ma’lum ma’noda psixologik himoya nazariyalari bilan kesishuvchi nazariyalar paydo bo‘ldi. Bunday nazariyalar qatoriga D.B.Uznadzening [160] ustanovkalar nazariyasi va V.N.Myasiщevning [113] munosabatlar nazariyasini kiritish mumkin. Avval rus psixologiyasida psixologik himoya tarqoq tarzda o‘rganilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar psixoanalizning qabul qilinmaganligi sabablarining birinchisiga g‘oyaviy tartib omillarini qo‘yadilar. G.L.Ilinning ta’kidlashicha, “Freydning ijtimoiy pessimizm boshqarilayotgan jamiyatga ishonmasligi odamlar xulq-atvorini shakllantirish imkoniyati, insonlarni qayta tarbiyalashdan iborat”. Bu pozisiya zamonaviy dunyo talablari bilan qarama-qarshi boradi hamda unda jamiyat va insonlarni boshqarishning hal qilish vazifasi nafaqat talab qilinar, balki hayotiy zarur edi.

Himoya mexanizmi – bu xatar yoki xavotir manbaini buzib ko‘rish rad etish yoki qochish mumkin bo‘lgan har qanday jarayon. Himoya mexanizmlari, shuningdek, bizning “Men”ligimizning ideallashtirilgan obrazini tartibga solish hamda o‘zimizni qabul qilishimiz qulay bo‘lishi uchun yordam beradi. Zigmund Freyd

birinchilardan bo‘lib, himoyaning ko‘p turlarini identifikatsiyalangan va bu mexanizmlar ongsiz tarzda harakat qilishini taxmin qilgan.

Demak, mazkur ilmiy mulohazalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, xorij psixologlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda shaxs psixologik apparatining mazmun-mohiyati, tuzilishi, turlari, funksiya va tamoyillari bat afsil yoritib berilgan. Bu bilimlar bizga o‘s mirda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi. Shundan kelib chiqib, keyingi paragrafda muammoning O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi doirasida tadqiq qilinishiga alohida e’tibor qaratiladi.

3. O‘zbekistonda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammosining tadqiq etilishi va tadqiqot vazifalari

Tadqiqot ishida mafkuraviy immunitet muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish vazifasi yuzasidan mazkur masalaning adabiyotlarda yoritilganlik darajasini birma-bir ko‘rib chiqish davomida bir qancha nazariy hamda tahliliy ma’lumotlar to‘plandi.

Bugungi kunda O‘zbekiston sharoitida “mafkuraviy immunitet” tushunchasi faylasuf, huquqshunos, tarixshunos, ayniqsa, siyosatshunos, pedagog va psixolog olimlar tomonidan keng doirada talqin qilib kelinmoqda. Chunki bizningcha, bu jarayon doimiy ravishda davriy o‘rganilib, uning shakllanish mexanizmlari yangilab turilishi lozim.

Tabiiy ravishda, nimaga shakllantirish mexanizmlari yangilab turilishi kerak, degan savol yuzaga keladi. Bunga quyidagicha javob berish mumkin: bugungi kunda globallashuv sharoitida mafkuraviy jarayonlar murakkablashib borayotgan bir davrda milliyligimizga hamda umuminsoniy qadriyatlarga begona bo‘lgan vayronkor oqimlar diniy eksterimizm, terrorizm, aqidaparastlik kabi yovuz harakatlar hamda buzg‘unchi “ommaviy madaniyat” tarafдорлари o‘zlarining axloqsizlikka, zo‘ravonlikka, xudbinlikka, buzg‘unchilikka, vayronkorlikka yo‘g‘rilgan g‘oya va mafkuralarini insonlar ongiga singdirishning yangidan yangi usul va vositalarini ishlab chiqmoqdalar.

Bunday vaziyatda biz soha vakillari ham kishilarimizda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning psixologik usul va

tamoyillarini doimiy ravishda yangilab borishimiz bugungi zamонning qat’iy talabidir.

Bu kabi masalalarda O’zbekistonlik olimlar S.Shermuhamedov, A.Aliev, Z.Islomov, B.Aminov, S.Otamuratov, Sh.Baxranov, A.Jalolov, N.Jo’raev, Q.Nazarov, M.Ortiqov, A.Ochildev, J.Tulenov, Q.Qur’onboyev, M.Rustamova, M.Rajabova, U.Ubaydullaev, Z.Xusniddinov, E.Yusupov, Sh.G’oyibnazarov, A.Shariповлар ishlarida mafkuraviy immunitet masalasining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va islomshunoslik nuqtai nazardan tahlil etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Pedagog olimlardan professor M.Qur’onov, O.Musurmonova, U.Mahkamov, Sh.Abdullayeva, M.Maxmudov, U.Nishonaliev, S.Nishonova, N.Ortiqov, Sh.Qurbanov, E.Seytxalilov, Z.Qurban niyozov, Z.Qosimova, M.Abdujabborova, M.Yul dashova, Sh.Akramova, I.Mirziyotov, M.Aripova, I.Xushmurodovalarning ishlarida ham mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik asoslari, buzg‘unchi “ommaviy madaniyat”ga xos salbiy illatlarning pedogik jihatlari, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma’naviy qiyofaning pedagogik omillari, vatanparvarlik, milliy iftixor, milliy g‘ururni shakllantirishda pedagogik tamoyillarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinganligini ta’kidlash o‘rinlidir;

Tarixchi olimlar tomonidan esa o‘zbek xalqi tarixini puxta bilish, tarixiy jarayonlar mohiyatini to‘g‘ri anglash, ijtimoiy voqeа va hodisalarga ongli munosabat, xalq qahramonlarining faoliyatidan ibrat olish, yoshlarning milliy iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lishlari oqibatida mafkuraviy immunitet hosil bo‘lish xususiyatlari haqida fikr bildirilgan risola, qo‘llanmalari tahlilini ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu masalalarda tarixchi olimlarimiz U.Abduvahobov, A.Abdullaev, T.Abdullaev, D.Abuladze, E.Asimov, A.Aliev, B.Aminov, A.Ahmedov, B.Ahmedov, X.Bobomirzaev, I.Galiulin, I.Mo‘minov, Q.Nazarov, X.Samatov, X.Shayxova, M.Sharifxo‘jaevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy-tarixiy jarayon, uning shaxsda milliy-etnik xususiyatlarni shakllantirishga ta’siri, xalq o‘tmishi, tarixi va uning jahon taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rniga munosabat masalalari yoritilgan;

Psixolog olimlar M.G.Davletishin, E.G.G.oziev, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Sh.R.Baratov, N.S.Safaev, B.M.Umarov, R.I.Sunnatova, M.M.Mamatov,

G.Q.To‘laganova Z.X.Abdurahmonova, O‘.B.Shamsiev,
E.M.Muxtorov, N.I.Xalilova, M.T.Isanova, U.A.Qosimov,
B.M.Botirov va D.M.Anvarovalarning ishlarida barkamol shaxs
psixologiyasi, uning psixologik xususiyatlari, sog‘lom xulq-atvorni
shakllantirish mexanizmlari, shaxsda yuksak ma’naviyat hamda
sog‘lom mafkura shakllantirishning psixologik yo‘llari kabi bir
qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishga pedagogik yondashuv pedagogika fanlari doktori, mafkurashunos olim, professor M.Quronov tadqiqotlarida “Milliy tarbiya [189], “Biz anglayotgan haqiqat” [190], “Ogohlik: tarix va zamon saboqlari” [191], “Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi” [192], “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” [193], “Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari” [194], kabi bir qancha mavzularda pedagogik tahlillar, yangicha pedagogik usul, shakl va tamoyillarini ishlab chiqadi.

F.Ravshanovning “Ma’naviy va g‘oyaviy taraqqiyotga tahdidlar” nomli [128, 19,22-b.] risolasida ham shaxsni g‘oyaviy tahidlardan asrashning pedagogik, falsafiy jihatlari yoritilgan. Bu ishlarda juda asosli ravishda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi fuqarolarni buniyodkor g‘oyalarga undashi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, buyuk kelajak sari aniq maqsadlar qo‘yib ildamlashining o‘zi har xil g‘oyaviy, mafkuraviy xurujlarning oldini olishi yoritilgan. Bu kabi psixologik mexanizmlar mohiyatini ochib berish va shu tamoyilarga qurilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar barqaror mafkuraviy immunitet tizimini tashkil qilishi mumkinligi masalalari tadqiqotning keyingi bob va bo‘limlarida bat afsil yoritiladi.

Z.Qosimovaning “Talaba yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik asoslari” [199] nomli nomzodlik ishida talaba yoshlarni g‘oyaviy va mafkuraviy tahidlarga qarshi tayyorlashda o‘ziga xos pedagogik usul va vositalar ishlab chiqiladi. Bu usul va vositalar oliy ta’limda rejali va rejadan tashqari o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ko‘rgazmali vositalar asosida ko‘pchilikka sezilmaydigan, ko‘zga ko‘rinmaydigan mafkuraviy tahidlarning asosiy mazmunini ochib berish, ularga qarshi insonda mafkuraviy immunitet shakllanishi kerakligi asoslab beriladi.

Yana bir pedagog olima Sh.Akramovaning “O’smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ham yoshlarni mafkuraviy xurujlardan asrashning, ularda mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik tamoyillari ishlab chiqilganligini ko‘rish mumkin [18].

M.Abdujabborovaning “O’smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ham yoshlarni har xil salbiy, buzg‘unchi, vayronkor g‘oyalardan himoya qilish xususiyatiga ega bo‘lgan mafkuraviy profilaktika ishlari usul va vositalari ishlab chiqilgan [27, 22-b.].

S.Otamuratovning “Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizlik” doirasida amalga oshirgan izlanishlarida shaxsning ma’naviy merosi, ma’naviy yuksalish, “ommaviy ma’naviyat”ning ijobiy va salbiy oqibatlari, milliy o‘zlikni anglash, milliy birlik tuyg‘ularining o‘ziga xos jihatlari, milliylik, milliy xarakter, milliy mafkuraning g‘oyaviy-nazariy tizimi, milliy ma’naviyatimizning ildizlari, unga tahdidlar (o‘tmishdagi, bugungi tahidlarni) atroflicha o‘rganilgan [121].

Falsafa fanlari doktori, proffessor S.Mamashokirovning “Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari” [104], “G‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar” [105] muammo doirasida olib borgan izlanishlarida juda ko‘plab mafkuraviy tahidlarga nisbatan milliy ma’naviyatimiz asosida kurashish mumkinligining falsafiy xususiyatlari yoritib berilgan.

A.Ochildev [120, 5-6-b.] izlanishlarida globallashuv sharoitidagi mafkuraviy jarayonlarning o‘ziga xos bo‘lgan ijobiy va salbiy jihatlari o‘rganilib, muallif mafkuraviy immunitet tushunchasiga quyidagicha: “Mafkuraviy immunitetning asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo, bilimlar ko‘p. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan “bilim”larga tayanadilar va uni singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob’ektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi unsuri ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik ob’ektiv va chuqr bo‘lsa, uning zamirida baholar,

qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo‘lida mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi”, - deb ta’rif beradi.

O.Abbosxo‘jaev, N.Umarova, R.Qo‘chqorov o‘z qarashlarida jamiyatimizda mafkuraviy profilaktika borasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ayrim holatlar bilan bog‘liq hodisalarga e’tibor berish joizligini ilgari surishadi [23,48-49-b.].

Xususan, mafkuraviy immunitetni yuksaltirish yo‘lidagi muammolardan biri, yoshlarga doim ta’sir ko‘rsatib turuvchi mavjud ijtimoiy muhitdagi ayrim holatlar bilan bog‘liqdir. Afsus bilan bo‘lsada, tan olish va ta’kidlash kerakki, ba’zan bozorlarda va savdo shahobchalari atrofida maktab yoshidagi bolalarning pornografik mazmundagi filmlar tushirilgan disklar bilan yashirincha savdo qilayotgani yoki bo‘lmasa, maktab o‘quvchilarining bir-birlari bilan “Internet kafelarda” soatlab fahsh, zo‘rlik, qotillik, razillikni targ‘ib qiluvchi tarmoq o‘yinlarini o‘ynab vaqt o‘tkazayotganiga guvoh bo‘lamiz.

M.Yuldashevning “Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo‘lishining xususiyatlari va ularning oldini olish yo‘llari” [184] nomli nomzodlik ishida ham mafkuraviy tahidlarning salbiy oqibatlari hamda ularning oldini olish yo‘llari kabi xususiyatlari ochib berishga harakat qilingan, mazkur tadqiqot doirasida “mafkuraviy tahdid” tushunchasi mazmuni, mafkuraviy tahidlarning tarixiy o‘zgaruvchan xarakteri, hozirgi davrda g‘oyaviy xurujlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning oldini olishda milliy g‘oyaning o‘rni, yoshlar buzg‘unchi g‘oyalar ob’ektiga aylanish sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, oila qadriyatlarga e’tiborsizlik, mahalla va ta’lim-tarbiya tizimida mafkuraviy tahidlarning oldini olish muammolari, ommaviy axborot vositalari va g‘oyaviy tarbiyaning ustuvor yo‘nalishlari asosida yoritib beradi.

Dj.Bayalievning “Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy mafkuralarning o‘zaro ta’siri” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ham mafkuraviy jarayonlarga, mafkuraviy immunitetni hosil qilishga ehtiyoj kundan-kunga ortib borayotganligi falsafiy jihatdan tahlil qilingan [36].

D.Himmatovning “Globallashuv sharoitida milliy mafkurani takomillashtirish muammolari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida

milliy mafkura, mustaqillik mafkurasini takomillashtirish asnosida fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish mumkinligi yoritilgan [207].

Sh.G‘oyibnazarovning “Ommaviy madaniyat” [204], “Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai” [203] kabi tatqiqotlarida buzg‘unchi “Ommaviy madaniyat”ning insoniyat tamadduniga salbiy ta’siri, insonlarda axloqsizlik, zo‘ravonlik, xudbinlik, vatansizlik, hayotga yengil-elpi qarash kabi g‘oyalar,millatimiz uchun yot madaniyatlar, vayronkor g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarning salbiy oqibatlari tahlil qilingan.

A.Tashanovning muammo doirasidagi izlanishlarida milliy insonparvar va umuminsoniy qadriyatlarga zarar yetkazuvchi xususiyatga ega bo‘lgan vayronkor g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarning kelib chiqish omillari, salbiy oqibatlari, tarqalish xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar falsafiy nuqtai nazardan yoritib berilgan [152].

“Milliy g‘oya va mafkuraviy jarayonlarning to‘laqonli anglanishi, jamiyat kishilarining barqaror mafkuraviy immunitetga ega bo‘lishi – bu ijtimoiy taraqqiyot garovidir”,- deb ta’kidlaydi A.O‘tamurodov, Sh.To‘raevlar “Milliy g‘oya va ijtimoiy taraqqiyot” nomli o‘quv qo‘lanmasida [186].

N.Saliyevning tadqiqotlarida yoshlar ma’naviyati va uni tahdidlardan himoya etish zaruriyati, ma’naviy sohadagi xavf-xatarlarning ko‘rinishlari, ma’naviy tahdidlar va mafkuraviy immunitet, yoshlar va milliy g‘oya, sport, yoshlar va millat ruhiyati, an’analar – milliy tarbiya omili kabi bugungi kunning dolzarb mavzulari tarixiy va falsafiy jihatdan atroficha yoritilgan [138].

Milliy ongda tolerantlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, ongda tolerantlik shakllanishining ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-ma’rifiy negizlari, tolerantlik shakllari va ularning namoyon bo‘lish xususiyatlari, milliy ong va unda tolerantlik shakllarining vujudga kelishi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, milliy ongda murosa tamoyilining shakllanishi va uning tolerantlikka aylanish jarayoni, barqaror mustaqil taraqqiyotda milliy ongda tolerantlik yo‘nalishlarini shakllantirish vazifalari, tolerantlik mafkurasi kabi muammolarning ma’naviy va falsafiy yechimlarini M.Xojiyevning izlanishlarida kuzatish mumkin [165].

B.Iminov tadqiqotlarida mafkuraviy jarayonlardagi mushtaraklik, mafkuraviy munosabatlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari, manfaatlar va mafkura, mafkuraviy jarayonlarga xos bo‘lgan xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar maydonida manfaatlar mafkuraviyligi kabi mavzular falsafiy jihatdan o‘ziga xos tahlil etilganligini ko‘rish mumkin [79].

Milliy mafkura negizi bo‘lgan milliy istiqlol g‘oyasini kutubxona imkoniyatlari orqali yoshlar ongiga singdirishning yo‘l va usullari, mafkuramiz xalqni xalq, millatni millat qilsin kabi mavzular A.Umarov, M.Raxmatullaev, I.Maminova, X.Mamatrayimova, M.Matmurodovalarning “Mafkura va yoshlar” metodik qo‘llanmasida yoritilgan [157].

Yot, buzg‘unchi, vayronkor g‘oyalar, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda ma’naviy-mafkuraviy asoslar, din va davlat orasidagi munosabatlar, fuqarolarda diniy ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni va ahamiyati kabi masalalar Z.Islomov tahriri ostida chop etilgan “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” o‘quv qo‘llanmasida keltiriladi [80].

Taraqqiyot – g‘oya va mafkuralar tarixi, tarixda bunyodkorlik g‘oyalari, yovuz g‘oya va tajovuzkor mafkuralar, g‘oyaviy mafkuralarni mutlaqlashtirishning salbiy oqibatlari kabi mavzularning nazariy va amaliy tahlilini D.Alimovaning “Insoniyat tarixi – g‘oyalar va mafkuralar tarixidir” kabi tadqiqotlarida uchratish mumkin [17].

Ijtimoiy hamkorlik milliy g‘oya tamoyilining asosiy nazariy qoidasi hamdir. Zero, milliy mafkura tizimidagi g‘oyalar jaholatga qarshi kurash ilmiy yondashuv asosida belgilab olingan asosiy ma’rifiy vosita hisoblanadi. Shu ma’noda, A.Sharipov o‘z tadqiqlidarida ijtimoiy hamkorlikning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi xalq farovonligi va boshqa shu kabi tamoyillar bilan o‘zaro dialektik aloqadorligini ochib berish, bu boradagi amaliy xatti-harakatlarimiz samaradorligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi,- deb ta’kidlaydi [174].

Istiqlol mafkurasi, birinchi navbatda, yosh avlodning hayotiga yangicha ma’no va mazmun baxsh etishga, unda faol hayotiy pozisiyani shakllantirishga qaratilgandir. Chunki yoshlar faqat milliy g‘oya timsolidagina mamlakat taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq

farovonligini ta'minlashning muhim vositasini ko'radilar. Yoshlar tabiatan turli g'oyalarga qiziquvchan va ularga tez beriluvchan bo'ladilar. N.Shabkarova tadqiqotlarida milliy istiqlol mafkurasi hali turmushning achchiq-chuchugini tatib ko'rmagan, hayotiy tajribaga ega bo'lmanan ana shu avlodni milliy manfaat va taraqqiyotimizga yet bo'lgan soxta va buzg'unchi g'oyalar tajovuzidan himoya qiladi, o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantiradi, degan mulohazalar ilgari suriladi [175].

Sh.Usmonov milliy g'oya, demokratiya va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi, ma'naviy merosning komil inson shakllanishidagi o'rni va ahamiyati, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotida milliy g'oya omillarini tahlil qilib, o'z tadqiqotlariga quyidagicha xulosa yasaydi: Insoniyat tarixida bo'lib o'tgan turli voqeа-hodisalardan to'g'ri va xolis xulosalar chiqarish inson ma'naviy kamoloti uchun zamin bo'lgan. O'tmishto falsafiy tafakkuri tarixini o'rganishdan maqsad – tarixda ro'y bergan voqeа-hodisalarni millat va xalq ongida qanday aks etib, qanday g'oyalarning tug'ilishiga sabab bo'lGANI, ularning milliy taraqqiyotga qanday ta'sir ko'rsatgani, qaysi mafkura ko'proq rivojlanish yoki tanazzul tomon yetaklagani kabi haqiqatlarni bilishdir. Ajdodlarimizning ma'naviy merosiga murojaat qilib borganimiz sari, milliy g'oya, milliy mafkuramizning falsafiy negizi, uning mazmuni va bugungi hayotdagi o'rni haqida yanada chuqurroq bilimga ega bo'lib boraveramiz [154].

I.Mirziyotov o'z tadqiqotlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda iyomon-e'tiqodning roli, sog'lom e'tiqod va uni shakllantirishning nazariy shakllari, o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda sog'lom e'tiqodning, pedagogik usul, shakl va omillarning nazariy va amaliy xususiyatlarini asoslab bergan [111].

M.Aripova o'z ishlarida Vatan ravnaqi g'oyasi tushunchasini mohiyat va mazmunini pedagogik tamoyillari, oliy ta'lim muassasalarida Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni, talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish usul, shakl va mezonlarining pedagogik jihatlari nazariy va amaliy asosini ko'rshimiz mumkin [28].

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ma'naviy madaniyatning pedagogik tamoyil va mezonlari, ma'naviy madaniyatning tarkibiy unsurlari, Sharq

mutafakkirlari ijodida ma’naviy-axloqiy tushunchalarning yoritilishi, milliy g‘oya, milliy mafkura va ma’naviyatning o‘zaro pedagogik aloqasi kabi masalalar I.Xushmurodovaning “Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari” nomli nomzodlik ishida kuzatiladi [163].

Jamiyat manfaatlari, barqarorligi hamda xavfsizligida milliy g‘oyaning o‘rni bilan bog‘liq muhim masala barcha davlatlar ilm ahlining diqqatini doimo o‘ziga jalb qilib kelgan. Xusan, M.Jakbarov, Sh.Abbasova, T.Jo‘raev, A.Yaxshievlar tomonidanolib borilgan izlanishlarda davlatlar, jamiyatlar yangi ijtimoiy, halqaro jarayonlarga to‘g‘ri yo‘l topib, ularni inson manfaati sari yo‘naltirishi uchun ko‘p asrlar mobaynida millatni asrab kelayotgan noyob tayanch – millat g‘oyasiga murojaat qilishga majbur bo‘lmoqda,- deya ta’kidlangan mulohazalar aks etgan [72,31-b.].

Insonning milliy qadriyatlariga, ma’naviyatiga salbiy ta’sir qilish xususiyatiga ega bo‘lgan buzg‘unchi “ommaviy madaniyat”ning ma’no mazmuni, uni tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari, “ommaviy madaniyat”ning strukturaviy va fuksional tahlili, zamonaviy ko‘rinishlari, uning mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘lishi,“ommaviy madaniyat”ning oldini olish yo‘l-yo‘riqlari kabi bir qancha bugungi kunning dolzarb masalalari F.Madraximovaning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [106, 179-181-b.].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga oid psixologik jihatlar ham yoritilgan, albatta, lekin bizning fikrimizcha, bugungi mafkuraviy xurujlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xavf solib turgan bir zamonda bu manbalar yetarli emas. Chunki o‘smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda, avallo, uning psixologiyasiga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keladi. Insonlarning atrof-muhitda bo‘layotgan voqelikni qay darajada anglashi (ong, ong osti va ongsizlik darajalari), tushunishi, tahlil qilishi (diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlari), ularning manfaatlari, orzu-istiklari, ehtiyojlari, maqsadlari, iyomon-e’tiqodlari, irodaviy-emotsional holatlari (irodaviy sifatlar, emotsiyalar, hissiyotlar), individual xususiyatlari (xarakter, temperament, qobiliyat), vijdoni, ijtimoiy burchi, mas’uliyat va ijtimoiy rollari, ijtimoiy faolligi, munosabatlar tizimi kabi bir qancha psixologik kategoriyalarni, ya’ni shaxsning psixologik tuziminitahlil qilish kerak bo‘ladi. Yana bir

haqiqat, bugungi kun globallashuv, ma’naviy, mafkuraviy tahididlar va xurujlar oshib borayotgan bir zamonda o’smirlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga oid usul va vositalarni qayta tanqidiy ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Chunki bugungi mafkuraviy jarayonlar har kuni o‘z shakl-shamoyilini o‘zgartirib bormoqda. Shunday ekan, yuqorida ham ta’kidlaginimizdek, soha vakillari shaxslarda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik usullari bilan bir qatorda o‘zining ta’sirchan xususiyatiga ega bo‘lgan psixologik mexanizmlarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq qilishi bugungi kunning dolzarb muammosidir.

O’smirlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishga oid masalalarning u yoki bu jihatdan o‘rganilishini psixologiya vakillari ishlarida ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshinning tadqiqotlarida, milliy ma’naviyat, milliy xarakter xususiyatlari hamda etnik xususiyatlarning psixologik asoslarini tahlil qilganligini kuzatishimiz mumkin [65,26-b.].

Professor G‘.B.Shoumarov va uning shogirdlari olib borayotgan bir qancha tadqiqot ishlarida ham mafkuraviy jarayonlarning psixologik xususiyatlari, buzg‘unchi g‘oyalarning inson ongiga ta’siri, shaxs xulq-atvordagi og‘ishlar yuzaga kelishining psixologik omillari, insonlar xarakteridagi aksentuatsiyalarining ortib borishi va ularning psixokorreksiysi, insonlarda bag‘rikenglik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik mexanizmlari kabi ishlar kuzatiladi [177].

Professor E.G‘.G‘oziev o‘zining ko‘p yillik izlanishlarida shaxsning psixologik ma’naviy qiyofasi, barkamol shaxs konsepsiysi, milliy xarakterning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari, shaxs ma’naviyati va mafkurasi shakllanishida etnopsixologik jihatlarning ta’siri, shaxs mafkurasiningnamoyon bo‘lishida mentalitet tuzilmasi, umumilliylilik va xususiylik munosabati, shaxs ma’naviyati shakllanishida o‘zbek milliy o‘yinlarning o‘rni, XXI asr odamlarining psixologik tuzilmasi, umumiylilik psixologiyada milliylik muammolari kabi masalalarning psixologik tamoyillarini asoslab bergen [206].

Professor A.M.Jabborov tomonidan milliy qadriyatlar tizimi, milliy xarakter sifatlarining shakllanish qonuniyatları kabi tadqiqotlar olib borilgan [69].

Professor Sh.R.Baratovning “Istiqlol g‘oyasining ijtimoiy psixologik asoslari”, “Milliy istiqlol g‘oyasi targ‘ibotining ilmiy asoslari” [38,80,82-b.], “Ko‘k kit” tuzog‘iga qarshi kurashishning psixologik mexanizmlari” [39,2,12-b.],.. “Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari” [40] kabi ilmiy izlanishlarida shaxs mafkurasini shakllantirishda psixologik mexanizmlarning o‘rni, ma’naviy tuzilmada shaxs psixikasining o‘rni kabi masalalarni psixologik jihatdan tahlil qilganligini kuzatish mumkin.

Professor V.M.Karimova o‘z tadqiqotlarida shaxs ma’naviyatining psixologik mexanizmlari, oila barqarorlashuvida oilaviy qadriyatlar, ma’naviy qiyofaning psixologik tuzilmasi, o‘quvchilarda sog‘lom mafkura va ma’naviy yuksaklik sifatlarini shakllantirishning psixologik asoslari kabi masalalarni tahlil qilgan [84].

R.I.Sunnatova [142] tomonidan “Fikrlash faoliyatining individual-tipologik xususiyatlari” mavzusida yozilgan doktorlik dissertatsiyasi doirasida shaxs individual xususiyatlari, jumladan, fikrlashning mantiqiyligi, shakllanganlik darajasi, o‘zini o‘zi baholashning konstruktiv-destruktivligi, shaxslararo o‘zaro ta’sirda nizolashuvchanlik-komformlik, sub’ektning qaror qabul qilishda mustaqil yoki mustaqil emasligi kabi xususiyatlari o‘rganilgan.

N.S.Safaev tomonidan “Talabalarda milliy o‘zlikni anglashning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida [136] milliy o‘zini o‘zi anglash fenomenining mohiyati to‘la ochib beriladi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida muammo falsafiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik ilmiy adabiyotlar yordamida chuqur tahlil qilingan. Tajriba natijalari asosida talabalarda milliy o‘zini o‘zi anglash xususiyatlari o‘rganilgan. Milliy o‘zini o‘zi anglashning barcha komponentlari birlashishi natijasida o‘zini o‘zi anglash shakllanib boradi. O‘z navbatida, talabaning ongida ijtimoiy faollikning kuchayishi psixologik jihatdan tadqiq qilinib, har tomonlama isbotlab berilgan. Turli diniy konfessiyalarining qarashlari va e’tiqodlari o‘rganilib, yoshlar ongida diniy his-tuyg‘u va e’tiqodning shakllanishi ma’naviy hayot doirasida muhim ahamiyatga egaligi va ularning ijtimoiy axloqini, xulqini takomillashtiruvchi reguluator hisoblanishi ko‘rsatib berilgan.

Professor B.M.Umarovningham qator tadqiqotlarida ham shaxs ma’naviyati bilan bog‘liq psixologik xususiyatlar tahlil qilingan. Bu olimning ishlarida buzg‘unchi va vayronkor g‘oya “O‘z joniga qasdqilishning psixologik omillari”, “Voyaga yetmagan bolalar orasida jinoyatchilikning yuzaga keltiruvchi omillarning psixologik omillari” atroflicha nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilingan [156].

M.Mamatovning “Qishloq yoshlarining ma’naviyatini shakllantirish” risolasida juda ko‘plab ma’naviy qiyofaning psixologik aspektlari, ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog‘lik psixologik xususiyatlar va etnopsixologik xususiyatlar tahlil qilinadi [107,62-b.].

Z.X.Abdurahmonova “Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish” [29] nomli nomzodlik dissertatsiyasida yoshlarda ma’naviy sifatlarni kuchaytirish, milliy birlik asosida ularda milliy istiqlol g‘oyasiga hamda milliy mafkuraga nisbatan hurmat hissini oshirib, ularni amaliyatga tatbiq qilishning psixologik mexanizmlari psixologik jihatdan ilmiy asoslab berilgan.

O‘.B.Shamsiev o‘zining “Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsi o‘zini o‘zi anglashining ijtimoiy psixologik omillari” nomli dissertatsiyasida ilk bolalik yoshidan boshlab ma’naviy bilimlarni, oilaviy qadriyat va odatlarni shakllantirish hamda uning psixikasi me’yorida shakllanishi bolada o‘zini-o‘zi anglashni ancha osonlashtirib, shaxsni to‘g‘ri qaror toptirishda, keyinchalik, har bir voqelikka to‘g‘ri baho berish yoki o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri chamalay olish xususiyatlari barqarorlashuvining psixologik xususiyatlarini tahlilini kuzatishimiz mumkin [178].

E.M.Muxtorov “O‘smirlar guruhida o‘zo‘zini psixologik muhofaza qilishning o‘ziga xos xususiyatlari” [108] nomli dissertatsiyasida o‘smirlarning o‘z-o‘ziga bahosi, xavotirli vaziyatlarda o‘zining psixologik jihatdan boshqara olishi va shu o‘rinda o‘smirlarning ma’naviy bilimlari, mafkuraviy qarashlari, mustaqil fikrlay olishidagi psixologik o‘ziga xoslik tahlil qilingan. Bu ishning ahamiyati shundan iboratki, shaxsda psixologik muhofaza modeli ishlab chiqilib, bu model yosho‘smirning ko‘plab salbiy illatlarga og‘ishishidan, yot g‘oyalarga berilishdan himoyalaydi.

N.I.Xalilova “O‘smirlik davrida o‘zini o‘zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shaxsnинг o‘zini o‘zi nazorat qilishi, birinchi

navbatda, uning psixologik bilish jarayonlari, individual psixologik xususiyatlari hamda irodaviy-emotsional holatlarining shakllanish darajasiga, ikkinchidan, uning ma’naviy bilimlari shakllanganlik darajasiga, uchinchidan shaxs mafkurasi, fikr mulohaza va tafakkurining shakllanganlik darajalari bilan tahlil qilinadi [164].

Sh.Alimbayeva “O’smirlar o‘quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik ishida o’smirlarda yuzaga kelishi muqarrar inqirozlar ularda xavotirlanish hissining kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bu holat o‘z-o‘zidan ularning mafkura tizimiga ham xavf soladi. Chunki xavotirlanish, fobiyalar (qo‘rquv) kuchaygan bir vaqtda o‘smirda sog‘lom, barqaror fikr va tafakkurni shakllantirish qiyin ro‘y beradi. Bu jarayon ularning qaror qabul qilishiga halaqt beruvchi psixologik sun’iy to‘sinq hisoblanadi,- deb ta’kidlaydi muallif [31].

M.T.Isokova “Milliy an’analar va ijtimoiy omillar ta’sirida o’spirinlarda ma’naviy tasavvurlarni shakllantirish” nomli dissertatsiyasida milliy qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, milliy a’analar, ijtimoiy normalar inson ma’naviyatini, mafkurasini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qilishining psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi [81].

U.A.Qosimovning “Komil insonning ijtimoiy psixologik xususiyatlari” nomli tadqiqotlarida barkamollik xususiyatlari, ma’naviy bilimlar, shaxs psixologik tuzilmasi kabi jihatlarning shakllanganligi komil inson qiyofasini namoyon qilishi mumkinligini psixologik jihatdan asoslab beradi [200].

B.M.Botirovning “O‘zbek milliy xarakteri shakllanishiga qadriyatlar ta’sirining psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik ishida milliy xarakterning shakllanish qonuniyatları, milliy qadriyatlar tizimi shakllanishiga ta’sir qiladigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, gender tafovutlar kabi masalalar psixologik jihatdan yoritilgan[41].

D.M.Anvarovaning “O’smirlar ma’naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida esa shaxslarda ma’naviyat shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatları va aynan o’smirlik yoshida kechadigan inqirozli holatlarda shaxsda shakllangan ma’naviy bilimlar uning ko‘plab salbiy ilatlarga og‘ishishini bartaraf qilishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan [30].

Mavzuning adabiyotlarda yoritilgan jihatlarini o'rganishimiz shuni ko'rsatdiki, o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari ko'p qirali murakkab jarayon bo'lib, u psixologiyada yetarlicha yoritilmaganligi va bir butun tizimga solinmaganligi, maxsus konsepsiya yaratilmaganligi kuzatildi.

O'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini aniqlash uchun bu tushunchaning mohiyatini anglab olish talab etiladi. Shu sababli uning manbalarda yoritilish holatini tahlil qilish asosida o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beruvchi mezonlarni yaratishga urinib ko'ramiz.

Mafkuraviy immunitet iborasining mohiyatini aniqlashda biz yuqorida "mafcura" tushunchasiningmazmun-mohiyatini atroficha psixologik tahlil qildik. "Immunitet" so'zining lug'aviy ma'nosi borasida bu tushuncha funksiyalarining ham nazariy, ham amaliy xususiyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

"Mafkuraviy immunitet" tushunchasi birinchi bor O'zbekistonda Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan qo'llanilgan bo'lib, uning mohiyati quyidagicha tushuntirib berilgan: "Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning immunitetini kuchaytirishimiz zarur" [9, 464, 491-b.].

Mafkuraviy immunitet (lotincha immunitatis – biror narsadan ozod etish) – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim.

Immunitet tibbiy tushuncha bo'lib, u organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuini ifodalaydi. Soddaroq qilib aytganda, immunitet – organizmning o'zini o'zi turli kasallikkardan himoya qila olish qobiliyatidir.

Tadqiqotimiz davomida mafkuraviy immunitet ko'proq nimaga qarshi shakllanishi lozimligi bizning asosiy diqqat markazimizda bo'ldi. Biz tadqiqotda, asosan, ma'naviy, mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirish uchun, avvalo, mafkuraviy tahdidning mazmun-mohiyati, uning

ko‘rinishlari haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim edi. Shu boisdan mafkuraviy tahdidlarni ham tadqiq qilishni maqsad qildik.

Mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini ochib berish uchun, avvalo, “tahdid” tushunchasining ijtimoiy mazmunini oydinlashtirib olish maqsadga muvofiq. Ta’kidlash joizki, tahdidlarning mavjudligi xavfsizlik masalalarining ham doimiy ravishda kun tartibida turishini taqozo etadi. Zero, xavfsizlikni ta’minalash bu – tahdidlarning oldini olishni anglatadi. Shu munosabat bilan xavfsizlik masalalari bo‘yicha ilgari surilgan quyidagi yondashuvlarga e’tiborni qaratish o‘rinli: Jumladan, M.M.Gadjimirzaev fikricha, “Xavfsizlik – muntazam kuchayib boruvchi, fuqarolik jamiyatida hokimiyat siyosiy institutlari funksiyalarining buzilishi va hatto, jamiyatning tanazzuliga olib keluvchi ziddiyatli holatlarning yo‘qligidir” [60,16-b.]. Ushbu ta’rifda xavfsizlik va tahdid masalasiga siyosiy nuqtai nazardan yondashilgan. Zero, mutaxassis tahdid sifatida hokimiyat siyosiy institutlari faoliyatiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan omillarni nazarda tutgan. Shu ma’noda, ushbu metodologik yondashuv umumiyligi ma’nodagi xavfsizlik, o‘z navbatida, “tahdid” tushunchasining ham mazmunini konkretlashtirishga imkon bermagan.

Yu.Kuznesov, V.Nikolskiylar tomonidan esa xavfsizlikning ijtimoiy, milliy, davlat kabi shakllari tahlil qilingan va jamiyat umumiyligi xavfsizligining asosiy kafolati sifatida milliy davlatchilik ko‘rsatilgan [94].

Xavf-xatarlar mohiyatiga nisbatan mazkur yondashuvlar tahlili “tahdid” tushunchasini umumiyligi ma’noda biologik va ijtimoiy tizimdagini normal hayot tarzining buzilishiga olib keladigan omillar, xavf-xatarlar majmui. Shu ma’noda, u negativ hodisa, jarayondir, deb izohlashimiz uchun asos bo‘ladi.

Jamiyat hayotiga nisbatan tahdidlar tarixiy hodisa bo‘lib, ular taraqqiyotning barcha bosqichlarida mavjud. Shu nuqtai nazardan tahdidlar bir-biridan farq qiluvchi turli madaniy tizimlar, davlatchilik an’analarining shakllanishi, ular o‘rtasidagi tabiiy va ijtimoiy resurslar uchun kechadigan doimiy kurash va raqobat turli yo‘nalishlardagi tahdidlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

Bugungi kunga kelib, insoniyat hayotiga xavf soladigan tahdidlarning shartli ravishda harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, demografik, ekologik, psixologik kabi shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin. O‘z navbatida, turli sohalar orqali amalga oshiriladigan

tahdidlar ham yanada konkret shakllarda yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, harbiy tahdidlar haqida gapirganda, bir davlatning boshqa davlatga nisbatan harbiy agressiya xavfini namoyon qilishinazarda tutiladi. Ammo, yadro qurollari orqali kechadigan harbiy harakatlar xavfi global xarakterga ega bo‘lib, umuminsoniyat tahdidini ifoda etadi.

Alovida ta’kidlash zarurki, xavfsizlik va tahdid masalalari O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarida fundamental tahlil etilgan. Unda bayon qilingan fikr-mulohazalar, konseptual qarashlar tahdidlarning mohiyatini anglash, ularning namoyon bo‘lish shakllarini aniqlashda ulkan nazariy manba bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, asarning birinchi qismida jamiyatimiz hayotiga nisbatan yettita yo‘nalishdagi tahdidlar tizimli tahlil qilingan bo‘lsa, uning ikkinchi qismida tahdidlarning oldini olish omillari sifatida barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari aniq ko‘rsatib berilgan [13,26-b.].

Tadqiqotimizda ma’naviy tahdidlaring ijtimoiy-psixologik mohiyatini ilmiy tadqiq etishga harakat qilganmiz. Zero, mafkuraviy tahdidlar ma’naviy xavf-xatar, ta’sirlarning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ma’naviy, mafkuraviy tahdidlar tahlil qilinib, ular ichki va tashqi tahdidlarga ajratib ko‘rsatiladi. Ular quyidagilardan iborat:

Ichki tahdidlar:

- el-yurt taqdiriga loqaydlik tahdidi;
- milliy qadriyatlarga nisbatan e’tiborsizlik tahdidi;
- oilada farzand tarbiyasiga va oilaviy qadriyatlarga nisbatan e’tiborsizlik tahdidi;
- mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik tahdidi;
- erta turmush qurish va oilaviy ajrimlartahdidi;
- yoshlar orasida jinoyatchilik tahdidi.

Tashqi tahdidlar:

- diniy ekstremizm, xalqaro terrorizmtahdidi;
- aqidaparastlik tahdidi;
- radikalizm tahdidi;
- separatizm tahdidi;
- buzg‘unchi “Ommaviy madaniyat” tahdidi;

- narkobiznes tahdidi;
- odam savdosi tahdidi;
- korrupsiya va jinoyatchilik [7];

E’tibor berilsa, ushbu hodisalar, asosan, g‘oyaviy, mafkuraviy yo‘llar orqali jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda, ular ayni paytda, mafkuraviy tahdidlardir.

Mafkuraviy tahdidlar makon va zamon xususiyatlariga ega. Zero, ma’lum bir tarixiy davr uchun real xavf-xatarni ifodalagan g‘oyalar va mafkuralar vaqt o‘tishi bilan boshqa tarixiy bosqichda bunday tavsiflanmasligi ham mumkin. Shuningdek, bir makonda tabiiy holat sifatida qabul qilinuvchi voqeа, hodisa, jarayonlar ayni bir tarixiy davrda boshqa makonga nisbatan tahdid sifatida o‘zligini namoyon qilishi ham mumkin.

Mafkuraviy tahdid mafkuraviy xavfsizlikni taqozo etadi. So‘nggi yillarda nashr etilayotgan lug‘atlarda ushbu tushunchalarga ta’riflar berilgan. Jumladan, ularning birida “mafkuraviy xavfsizlik – shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladigan mafkuraviy tajovuzlardan, turli mafkuraviy markazlarning buzg‘unchilik ta’siridan himoyalanganlik darajasini tavsiflovchi tushuncha” sifatida talqin etilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, mafkuraviy tahdid g‘oyaviy ta’sirlar tizimini ifoda etib, aniq maqsadlar yo‘lida ongli, puxta o‘ylangan reja asosida hamda uni ro‘yobga chiqarishga potensial imkoniyatlar mavjud bo‘lgan ijtimoiy makonga yo‘nalgan bo‘ladi. Bizningcha, ta’rifda mafkuraviy tahdidning yovuz g‘oyalarni qo‘rkitish va zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga singdirishga urinilishi tarzida izohlanishi ham mazkur tushunchaning mazmunini to‘liq ifoda etmagan. Zero, hozirgi kunda mafkuraviy tahdidlar chetdan qaraganda zararsiz, pinhona yo‘llar orqali amalga oshirilayotgani hammaga ma’lum. Chunonchi, “demokratiyani olg‘a siljitish” yo‘lidagi xattiharakatlar, ayrim xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan noxolis xabar va ma’lumotlar, kontrabanda yo‘li bilan mamlakatimiz hududiga kirib kelayotgan pornografik mazmundagi filmlar qo‘rkitish, zo‘rlik yo‘li bilan emas, balki pinhona, “yumshoq” shaklda bo‘layotgan mafkuraviy tahidlarga misoldir. Biroq, bir qarashda sezilmas, beozor bo‘lsada, ular jamiyatimiz ma’naviy-axloqiy, mafkuraviy barqarorligini izdan chiqarishga qaratilgan real xavf-xatarlar hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bizningcha, tahdidiga quyidagicha ijtimoiy-psixologik ta’rif berish o‘rinlidir. Ya’ni ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion xurujlarni nazarda tutish lozim.

Darhaqiqat, globallashuv, universallashuv jarayonlari ta’sirida yot va begona g‘oyalarning xurujlari tobora avj olib bormoqda. Bu esa ma’naviy, mafkuraviy masalalarga alohida diqqat-e’tibor qaratishni taqozo qiladi.

Aslida, mafkuraviy tahdidlarni ifodalovchi buzg‘unchi, vayronkor mazmundagi g‘oyalar turli davrlarda har xil nomlar, tushunchalar bilan atalgani holda, barcha ijtimoiy-psixologik, diniy-falsafiy ta’limotlardan o‘rin olgan markaziy muammolardan bo‘lib keladi. Har bir psixologik tizimda inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir etadigan g‘oyalar, ularning paydo bo‘lishi, manbalari, oldini olish yo‘llari va vositalari kabi masalalarning o‘ziga xos yechimi o‘z ifodasini topib keladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mafkuraviy tahdidlar buzg‘unchi, vayronkor g‘oyalar shaklida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadqiqotimiz doirasida “buzg‘unchi g‘oya” markaziy tushuncha hisoblanadi. Ayni vaqtida, mazkur tushunchaning mazmunini oydinlashtirib olish mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini teran anglab olishga yordam beradi.

So‘nggi yillarda buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalar, ularning xarakterli xususiyatlarini ochib berishga bag‘ishlab amalga oshirilayotgan ilmiy ishlarga birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan konseptual fikr-mulohazalar, falsafiy umumlashmalar asos bo‘layotganini alohida ta’kidlash joiz. Zero, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov nafaqat siyosiy rahbar, balki xalqimizning ma’naviy yo‘lboshchisi va g‘oyaviy rahnamosi sifatida ham maydonga chiqdi. Ularning nutq va ma’ruzalarida, kitob va intervyularida g‘oyaviy-mafkuraviy masalalar chuqur ilmiy-nazariy, falsafiy tahlil qilindi, ushbu sohadagi vazifa va muammolar atroflicha yoritildi.

Birinchi Prezidentimizning asarlarida “soxta mafkura” [9, 464, 491-b.], “yot, buzg‘unchi g‘oyalar” [14], “vayronkor g‘oyalar” [15],

“ma’naviy tahdid”, “g‘oyaviy xuruj” [10] kabi tushunchalar, ularning ma’no-mazmuni, reaksiyon mohiyati, ijtimoiy ildizlari, ularning oldini olish, bunday tahdidlardan xalqni himoya qilish masalalari keng o‘rin egalladi. Aytish mumkinki, Islom Karimov tomonidan vayronkor g‘oyalar va ularga qarshi kurash konsepsiysi yaratildi, uning nazariy-metodologik va amaliy jihatlari asoslab berildi. “Aslida, mening nazarimda,- deb ta’kidlaydi I.A.Karimov,- ikki kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o‘zaro kurashadi. Afsus bilan ta’kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko‘ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya’ni xattiharakatlarini qo‘zg‘atib yuborish osonroq” [9].

Yuqorida fikr buzg‘unchi g‘oyalarning ijtimoiy, biosotsial negizlarini ko‘rsatib beradi. Ularda asosiy e’tibor faqatgina yot, vayronkor g‘oyalarning oqibatlari va namoyon bo‘lishini tahlil qilishga emas, avvalo, ularning asl sabablari va tub ildizlarini ochib tashlashga qaratildi.

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasi e’lon qilingach, ushbu soha bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, nazariy va amaliy ishlar sezilarli darajada jonlandi. Jumladan, so‘nggi yillarda nashr etilgan, xususan, milliy istiqlol g‘oyasining mohiyatini ochib berishga qaratilgan kitoblarda “buzg‘unchi g‘oya”ga sinonim sifatida “vayronkor g‘oya” tushunchasi ham keng qo‘llanilmoqda. Chunki, bu turdagi g‘oyalar o‘zbek tili so‘z boyligi imkoniyatlaridan kelib chiqib “buzg‘unchi” yoki “vayronkor” deb izohlansa xato bo‘lmaydi. Zero, ikkala tushuncha ham muayyan ijtimoiy tizim barqarorligiga putur yetishi, boshqa tizimlar bilan dialektik aloqadorligining buzilishini ifodalaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bizning fikrimizcha, “buzg‘unchi g‘oya” tushunchasining ta’rifini quyidagicha taqdim etish maqsadga muvofiqdir: “Shaxs, ijtimoiy guruh, millat, xalq, jamiyat manfaatlari, maqsadlari va qadriyatlariga zid bo‘lgan, taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘ladigan, ma’naviyati va qat’iyatini susaytirishga qaratilgan g‘oyalardir”.

Mazkur ta’rif buzg‘unchi g‘oyalarning aynan buzg‘unchiligi ma’naviyat, qadriyat sohasida namoyon bo‘lishiga, o‘zi esa g‘arazli, qabih maqsad va manfaatlarga xizmat qilishiga e’tibor qaratadi. Zotan, manfaat bo‘lmasa, g‘oya ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi, havoyi bir xayol, fantastika darajasida qolaveradi.

Ta’rifda tavsiflanayotgan tushunchaga qarama-qarshi bo‘lgan zid tushuncha orqali ta’rif berish usuli qo‘llaniladigan bo‘lsa, buzg‘unchi g‘oyalarni bunyodkor g‘oyalarga qarama-qarshi bo‘lgan, jamiyat yoki uning ayrim qatlamlarini ezgulik yo‘lidan og‘diradigan vayronkor, yovuz, g‘ayriinsoniy g‘oyalar tarzida ta’riflash o‘rinli bo‘ladi.

Buzg‘unchi g‘oyalar g‘oyaning shakllaridan biri hisoblanadi. Binobarin, g‘oyalar, ularning evolyusiyasiga xos umumiy sifatlar buzg‘unchi g‘oyalarga ham tegishlidir. Demak, buzg‘unchi g‘oyalar ham konkret tarixiy sharoitda muayyan maqsad va muddaolarni ifoda etib, ijtimoiy munosabatlar va ularning rivojlanish mo‘ljallarini ko‘zlab yaratiladi.

Ilmiy adabiyotlar, vaqtli matbuot sahifalarida “yot g‘oyalar”, “begona g‘oyalar”, “soxta g‘oyalar”, “yovuz g‘oyalar”, “vayronkor g‘oyalar” buzg‘unchi g‘oyaning sinonimlari sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Ta’kidlash kerakki, yot va begona g‘oya (bu ikkovi bir ma’noda keladi) tushunchasi buzg‘unchi g‘oya tushunchasiga nisbatan keng, mazmunan esa tordir.

Yot, ya’ni, muayyan sub’ekt uchun begona, notanish yoki nomaqbul g‘oyalar ko‘p. Masalan, marhumlarni olovda yoqib yuborish yoki dafn va xotirlash marosimlarida spirtli ichimliklar ichish odatlari va bularga asos bo‘lgan g‘oyalar o‘zbek xalqi mentalitetiga yot, begona. Lekin, boshqa xalqlar amal qiladigan bu odatlarni buzg‘unchi g‘oyalar, deb bo‘lmaydi. Bizning o‘zbek mentalitetiga asos bo‘lgan ayrim g‘oyalar ham ajnabiylar uchun tushunarsiz yoki begona bo‘lishi mumkin.

“Buzg‘unchi g‘oya” tushunchasi “g‘oya” tushunchasi tarkibiga kiradi. Umuman “g‘oya”ning bir qismi “yot g‘oya” tushunchasi bilan ifodalanadi; “buzg‘unchi g‘oya” esa yot g‘oyaning bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqotimizda buzg‘unchi g‘oyalar xususida e’tiborga molik fikr-mulohazalar ko‘p. Unda, jumladan, quyidagi satrlarni o‘qish mumkin: “Insoniyat tarixida o‘z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm kabi mafkuralarni yuzaga keltirgan. Bunday g‘oyalar xalqlar boshiga ko‘p kulfat va musibatlar solgan”.

Tarixda muayyan bir iz qoldirgan, o‘z ta’sirini o‘tkazgan har qanday mafkura borki, u biron bir g‘oyani asos qilib olgan va uni

mutlaqlashtirishga harakat qilgan. Biroq, o‘tmish tajribasi mutlaq haqiqatga da’vo qiladigan, yakkahokimlikka intiladigan mafkuraning kelajagi yo‘qligini isbotladi. Zero g‘oyalar mutlaqlashtirilsa, hurfikrlik, vijdon va e’tiqod erkinligi, qarashlar xilma-xilligi, tafakkur ozodligi cheklanadi. Natijada, shu millat yoki davlatni halokatga va tanazzulga duchor etadigan muhit paydo bo‘ladi.

Har kanday ilmiy konsepsiya, psixologik ta’limot, diniy ilohiy maktab, ijtimoiy-siyosiy mafkura bir yoki bir necha g‘oyalarga tayanadi, bular asosida o‘z tizimini yaratadi, ana shundagina yaxlit tizim sifatida yashay oladi. Demak, bu o‘rinda g‘oya va mafkuralarning mutlaqlashtirish oqibatlari emas, tarixiy ko‘rinishlari bayon etilgan.

Bizningcha, buzg‘unchi g‘oyalarni ilmiy tasniflashda tarixiylik va mantiqiylik usulidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq. Xususan, bunday g‘oya va mafkuralarni sinflarga ajratish uchun asos sifatida ta’sir nishonlari, ya’ni buzg‘unchilik ob’ekti olinadigan bo‘lsa, quyidagi guruhlar ajratilishi maqsadga muvofiq:

1. Jamiat va shaxs ruhiyatiga tahdid soluvchi g‘oyalar (axloqsizlik, egotsentrizm, kosmopolitizm, ludomaniya va h.k.).

2. Irqiy, diniy, etnik, milliy tenglikka hamda xalqning ozod yashash huquqiga qarshi qaratilgan g‘oyalar (rasizm, shovinizm, agressiv millatchilik, panislomizm, panarabizm va shu kabilar);

3. Davlat yoki millatning ijtimoiy, hududiy, ma’naviy yaxlitligiga qarshi qaratilgan g‘oyalar (separatizm, sinfiy kurash, mahalliychilik, aqidaparastlik va boshqalar);

4. Davlatning suvereniteti, ozodligi va erkin yashash huquqiga qarshi qaratilgan g‘oya va mafkuralar (noagressiv bosqinchilik, tajovuzkorlik, kolonializm, mustabidchilik, neokolonializm, terrorizm, diniy ekstremizm va h.k);

Yuqorida tasnif, garchi mukammal bo‘lmaseda, buzg‘unchi, yovuz mafkura va g‘oyalarni ma’lum bir asosda guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Umuman olganda, buzg‘unchi g‘oyalar tasnifidan o‘rin olgan yovuz qarashlar (bosqinchilik, tajovuzkorlik, mustamlakachilik, terrorizm, diniy ekstremizm, rasizm, shovinizm, agressiv millatchilik, separatizm, mahalliychilik, egotsentrizm, kosmopolitizm va h.k.) turli tarqalish doirasi va ta’sir kuchiga ega. Shuning uchun ularni alohida olib o‘rganishda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Zero,

shunda ularning har biriga xos tahdid va real xavfni baholash imkonini paydo bo‘ladi.

Hozirgi davrda yangi shakl va qiyofalarda namoyon bo‘layotgan buzg‘unchi g‘oyalarning ijtimoiy xavfi, ma’naviy va psixologik zarari globallashuv jarayoni jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olmoqda. O‘z kelajagi, xalqining ma’naviy jipsligi, yoshlarining istiqboli haqida qayg‘uradigan har bir davlat, jamiyat bu borada loqaydlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini anglab yetmoqda. Turli yo‘nalishdagi vayronkor g‘oyalar tizimi sifatida mafkuraviy tahidlarning mohiyati ularning tarixan o‘zgaruvchan xususiyatlari ochib berilganda yanada oydinlashadi.

Tadqiqotimiz davomida biz o‘smirlarda buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalar hamda mafkuraviy tahidlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish kerakmi?, yoki bu o‘z-o‘zidan shakllanadimi?, uning shakllanganlik darajasini qaysi mezonlar asosida bilish, aniqlash mumkin? degan savollarga javob topishga harakat qildik.

Shunga ko‘ra, o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik **omillarini** tatqiq qilishda asosan biz “shakllantirish”, “shakllanish”, “shakllanganlik” kategoriylarini chuquroq o‘rganishni maqsad qildik.

Shakllantirish jarayoni – shaxsni rivojlantirish (aniqroq qilib aytganda, shaxsda muayyan sifatlarni tarbiyalash, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish) negizida sodir bo‘luvchi ijtimoiy hodisadir. Ushbu ijtimoiy hodisa ta’lim-tarbiya jarayonida maxsus harxil ta’sirli metodlar asosida yushtiriladi yoki shaxs ongiga singdiriladi.

Shakllanish jarayoni – dunyoqarash va uning tarkib topishini anglatuvchi asosiy tushunchadir. Bizga yaxshi ma'lumki, shaxs dunyoqarashining tarkib topish hodisasi unda shaxsiy, irodaviy hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarning mavjudligi va yaxshiligiga tayangan holda sodir bo‘ladi.

Psixologik nuqtai nazardan inson shaxsining shakllanishi o‘yin, ta’lim(o‘quv), mehnat, muloqot va boshqa faoliyatning turlarida amalga oshadi. Faollik tufayli faoliyatni amalga oshirish jarayoni yuzaga keladi, xulq-atvor, muomala (kommunikatsiya) vositasida ehtiyoj, istak, ijtimoiy talablar qondiriladi, turli xususiyatlari axborotlar o‘zlashtirilishi natijasida shaxs tarkib topa boshlaydi. Pedagogik

jihatdan yondashilganda “shakllanish” tushunchasi, asosan, tarbiyaviy jarayon hamda ayrim o‘rinlarda ijtimoiy munosabatlar mohiyatini ochib berishda qo‘llaniladi. Xususan, “shaxsning shakllanishi uning insonlarga, o‘ziga, o‘z kelajagiga va boshqalarga nisbatan ijtimoiy munosabatlarida shaxsning qiyofasini belgilab beruvchi xulqi va xatti-harakatlaridagi o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi murakkab hodisadir”.

Shakllanganlik jarayoni – faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarilishi. Shaxs shakllanganlik darajasining yuqori bosqichi shaxsning ijtimoiylashuvi hisoblanadi.

Yuqoridagi “shakllantirish”, “shakllanish”, “shakllanganlik” tushunchalarini **psixologik** nuqtai nazardan tahlil qilganda, shaxslarda mafkuraviy immunitet **shakllantirish bizningcha** dastlabki jarayon bo‘lib, bunda maxsus tamoyillar, ta’sirli yo‘llar, o‘zining ilmiy asosiga, ishonchilik dararajasi va samarali sifatiga, xaqchilligiga ega bo‘lgan usullar hamda g‘oyalar asosida shaxsda ezgulikka, ishonchli kelajakka, bunyodkorlikka asoslangan mafkuraning shakllantirilishiga aytildi. Bu jarayon maxsus uyushtiriladi.

Mazkur jarayon uzliksiz ta’limda bosqichma-bosqich amalgalashirilishi maqsadga muvofiq. O‘smirlardamafkuraviy immunitet shakllantirish o‘z tarkibiga quyidagi omillarni qamrab olishi kerak: shaxs o‘zligini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida qaror toptira olish, o‘z menligini to‘laqonli anglash, xarakterida milliylik sifatlari tarkib topgan bo‘lishi, o‘tmish zalvorli tariximiz-u, ajdodlar ruhini hurmat qilish, ularning bizga qoldirgan meroslaridan milliy iftixor hissini his qilish, kelajak avlodga faxr va g‘urur bilan bu meroslarni bus-butun yetkazish, hozirda sodir bo‘layotgan voqelikka nisbatan o‘z mustaqil fikri va pozisiyasiga, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy ongga ega bo‘lishi, ayni vaqtda yaratilayotgan imkoniyatlarning qadrini bilish orqali mammunlik, shukuronalik hislarini shakllantirish, ozodlikka, erkinlikka, mustaqillikka osonlikcha erishilmaganligini anglash kabi jihatlardan iborat.

O‘smirlarning mafkuraviy immuniteti yuqoridagi omillar bilan to‘ldirilsagina bu mexanizm ishlay boshlaydi, ya’ni o‘smir har qanday yot g‘oyalarni, vayronkor, buzg‘unchi mafkuralarni, ma’naviy tahdidlarni anglay oladi, ularni ta’siriga berilmaydi, uni bartaraf qilish kuch-qudratiga ega bo‘ladi.

O'smirlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishi esa shakllatirishdan so'ng yuzaga keladigan jarayon bo'lib, bunda endilikda shakllantirilgan bilimlar asosida shaxs o'z faoliyatini mustaqil rejalshtira olishi, faoliyatida uchraydigan yot g'oyalarni tanlay olishi va uni korreksiya qila olish xususiyatiga ega bo'ladi. Shakllanish jarayoni ko'p o'rirlarda ijtimoiy munosabatlar mohiyatini ochib berishda namoyon bo'ladi. Jumladan, "O'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi uning insonlarga, o'ziga, o'z kelajagiga va boshqalarga nisbatan, yot buzg'unchi g'oya va vayronkor mafkuralarni anglay olishida ma'naviy taxdidlarga qarshi kurasha olishida, ijtimoiy munosabatlarda shaxsning qiyoferasini belgilab beruvchi xulqi va harakatlaridagi o'ziga xoslikni aks ettiruvchi murakkab jarayondir.

Shakllanganlik jarayoni, bizningcha, shakllantirish, shakllanish jarayonlaridan so'ng yuz berib uchinchi va eng oliy darajadir. Bu jarayonda o'smirning mafkuraviy immuniteti o'zining barqarorlashuviga erishadi. Har qanday yot g'oya va mafkuralarga, ma'naviy hamda mafkuraviy taxdidlarga tezlik bilan o'zining qarshi javobini namoyon qilib murosasiz kurashadi. Bu jarayonda o'smir o'zini to'laqonli anglagan, o'zining milliy xususiyatlarini, madaniyatiyu urf-odatlarini, qadriyatlar tizimini, zalvorli o'tmish tarixini hamda o'zining milliy istiqlol g'oyasiga ergashib uni naqadar bunyodkor va ezgulikka asoslanganligini anglash orqali milliy mafkurani namoyon qiladi.

O'smir shaxsi shakllanganlik darjasini yuqori bosqich hisoblanib, demak unda endilikda mafkuraviy immun tizimi barqaror ravishda namoyon bo'ladi. Bu hodisa psixologiyada shaxsning normal ijtimoiylashuvi omili ham deyiladi. Normal ijtimoiylashgan inson voqelikka aniq va to'g'ri in'kos bildiradi.

Yuqorida o'smirlarda mafkuraviy immunitet hosil qilishning uch bosqichi "shakllantirish", "shakllanish", "shakllanganlik" daraja va jarayonlarini ko'rib chiqdik. Psixologik jihatdan bu tushunchalarga yondashsa, bular jarayon hisoblanadi. Ya'ni jarayon so'zining ma'nosi xarakat, davom etuvchi, ro'y beruvchi, namoyon bo'luvchi, degan ma'nolarda ishlataladi. Shunday ekan, biz o'smirlardagi mafkuraviy immunitet tizimini tezlik bilan uzviy va uzlusiz hamda tizimlilik va izchillik bilan tarbiyalab borishimiz maqsadga muvofiqdir.

Biz tadqiqotimiz davomida o'smirlarda mafkuraviy immunitet hosil qilishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda "shakllantirish", "shakllanish", "shakllanganlik" tushuncha va jarayonlarini ko'rib chiqdik. Endilikda biz "rivojlanish", "tarbiyalash", "omil", "psixologik ta'sir", "psixologik mexanizm", "milliy g'urur", "milliy iftixor" va "milliy o'zlikni anglash" kabi tushunchalarini ahamiyatini yoritish maqsadga muvofiq deb topdik. Chunki tadqiqot muammosini ishonchli va ijobjiy hal etishda bu tushunchalarning mazmun-mohiyatini to'laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Ko'plab adabiyotlarda "shakllanish", "rivojlanish", "tarbiyalash", "shakllanganlik", "shakllantirish", ayrim manbalarda esa "ijtimoiylashuv" tushunchalarining yagona mantiqqa egaligi qayd etiladi. Ayrim manbalarda "shakllantirish" va "rivojlanirish" tushunchalarining o'zaro bir-birini o'rmini to'ldiruvchi tushunchalar ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham mavjud. Ularga ko'ra, shakllantirish jarayoni rivojlanish va rivojlanirish jarayoni esa shakllantirish negizida sodir bo'lishi jarayoni ilgari suriladi.

O'smir shaxsini tarbiyalash tarbiya jarayonini tashkil etish chog'ida ro'y berib, o'smirda ma'lum ma'naviy-axloqiy, irodaviy va shaxsiy xislatlarni qaror toptiradi. Tarbiya ijtimoiy hayotning umumiyligi va muhim kategoriyasi sanaladi. Shu bilan birga ijtimoiy hodisa sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Jumladan, ajdodlar tomonidan to'plangan tajribalarni avlodlarga yetkazish, insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni egallash, inson salomatligi va rivojini ta'minlash, dunyoqarashni tarkib toptirish va boshqalar. Tarbiya jarayonining samarasi maqsadning aniq belgilanganligi, faoliyat asosida tashkil etilgan faoliyatning natijaliligi va uning mazmunida aks etuvchi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

N.I.Boldirevning fikricha, shaxsning tarbiyalanganlik darajasi barqaror xulq-atvor ko'nikmasida, o'quvchining xatti-harakati, muomalasi va ularning nuqtai nazarida vujudga keladi. Mazkur daraja shaxsning xulq-atvorida sodir bo'lgan ma'lum sifat o'zgarishi bilan belgilanadi. Shaxsda ma'lum sifatlarning tarbiyalanganlik darajasini quyidagi shartlar asosida aniqlash maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlovchi yondashuvlar ham mavjud:

-shaxsning alohida sifatlarini ajratib ko'rsatish, ularni namoyish etish (M.I.Shilova, N.I.Monaxov [181]).

-shaxs tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat yo‘nalishlari (L.I.Bojovich, A.V.Zasimovskiy [43]).

-ular faoliyati jarayonining mohiyatini o‘rganish (O.S.Bagdanov, V.P.Petrova [52]).

“Rivojlanish” atamasining sof **biologik**, “tarbiyalash” atamasining **pedagogik**, “shakllanish” atamasining esa **psixologik** kategoriya sifatida qabul qilinganligini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘z-o‘zidan anglanadiki, shaxsni **shakllantirish** jarayoni uni **rivojlantirish** (aniqroq qilib aytganda, shaxsda muayyan sifatlarni **tarbiyalash**, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish) negizida sodir bo‘luvchi ijtimoiy hodisadir.

Zero, “shakllanish” atamasi dunyoqarash va uning tarkib topishini anglatuvchi asosiy tushunchadir. Bizga yaxshi ma’lumki, shaxs dunyoqarashining tarkib topish hodisasi unda shaxsiy, irodaviy hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarning mavjudligi va yaxshiligiga tayangan holda sodir bo‘ladi. Bu omillar, bizningcha, o‘smirlarda mafkuraviy immunitet tizimini namoyon qiladi.

Inson shaxsining shakllanishi o‘yin, ta’lim, mehnat, sport va boshqa faoliyatning turlarida amalga oshadi. Faollik tufayli faoliyatni amalga oshirish jarayoni yuzaga keladi, xulq-atvor, muomala (kommunikatsiya) vositasida ehtiyoj, istak, ijtimoiy talablar qondiriladi, natijada turli xususiyatli axborotlar o‘zlashtirilishi natijasida shaxs tarkib topa boshlaydi.

Shakllanganlik tushunchasini tahlil qilganda E.G‘.G‘ozievni ta’rifini har jihatdan mukammal tushunilishga olib kelgan ta’rif deb bildik. **Shakllanganlik** – faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarishga aytiladi [206].

Ijtimoiylashuv omili esa shaxs shakllanganlik darajasining yuqori bosqichi hisoblanadi. J.Piajening [126] ta’rifiga ko‘ra, **ijtimoiylashuv** – bu ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoni bo‘lib, u individning muayyan rivojlanish darajasiga erishib, boshqa insonlar bilan hamkorlik qilish layoqatiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonining mohiyatini o‘rganish borasida M.I.Rojkovning quyidagi mazmunni ifoda etuvchi konsepsiysi alohida ahamiyatga egadir: ijtimoiy tarkib topishda ijtimoiy amaliyot, ya’ni, individning ijtimoiy munosabatlarning turli sohalariga amaliy kirishishi muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qayd etish lozimki, o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini tadqiq qilish va shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik-psixologik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs, mafkuraviy immun tizimi barqarorlashgan va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Tadqiqot muammosini hal etish uchun "omil" tushunchasining mohiyatini anglash bilan birga bu yo'lda samarali faoliyatni tashkil etishda muhim rol o'ynovchi omillarni aniqlab olish muhimdir. Zero, uzlusiz ta'lim tizimining yetakchi bosqichida faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalari sub'ektlarida mafkuraviy immunitet shakllantirish muayyan omillar mavjudligi asosida tashkil etiladi.

Bu tushunchani lug'aviy ma'nosini ko'plab adabiyotlar hamda psixologik, pedagogik tadqiqotlarda muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli kechishini, muvaffaqiyatli natijani ta'minlovchi "shart" (T.V.Frolova), "holat" (P.I.Djanelidze), shuningdek, "sabab" (D.M.Grishin) kabi tushunchalar bilan talqin etilgan. So'nggi yillarda olib borilgan shaxs tarbiyasini tashkil etish, unda ma'naviy sifatlarni tarbiyalash, ularni takomillashtirish, tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan tadqiqotlarning aksariyatida omillar "ichki va tashqi omillar" tarzida o'rganilgan. Ayrim tadqiqotlarda ma'lum faoliyat yoki jarayonning samarali bo'lishini ta'minlovchi omillarning ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarga ega bo'lishi ta'kidlanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga muvofiq muammo doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda ko'zga tashlangan holatlarni tahlil etish asosida o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishning psixologik omillarini quyidagicha ustuvor o'rin tutishiga ishonch hosil qildik:

1. Sub'ektiv omillar:

- o'smir shaxsining psixologik to'g'ri qaror topganligi (voqelikni to'g'ri anglashdagi bilish jarayonlari, shaxs, jamiyat, davlatga bo'lgan munosabatlarini in'ikosi bilan bog'liq individual psixologik xususiyatlari, vaziyatlar bilan bog'liq o'zgarishlar va ularni anglanishi bilan namoyon bo'ladigan shaxsning irodaviy-emotsional holatlari);

- jamiyatda normal va sog‘lom muhitning qaror topganligi, o‘smir shaxsining o‘zligini anglashiga, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini topishga, kelajak istiqbolini rejalashtira olish va uni ko‘ra olishga yordam beruvchi g‘oyalarning yetakchi o‘rin tutishi;
- shaxslararo munosabatlarda kishilik munosabatlarining milliy xususiyatlarga asoslangan yangicha mazmun kasb etishi;
- milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo‘lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga erishish;
- ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratik g‘oyalarning aks etishi;
- ta’lim muassasalari o‘quvchi-yoshlarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda oila qadriyatlarni o‘rgatish, o‘quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokining ta’milanishiga erishish;
- o‘smir shaxsi ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanish;
- ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlik va majburlovlardan voz kechish;
- o‘smirlar shaxsida mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirish ehtiyojining yuzaga kelganligi;
- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e’tiqod va o‘zgalarga ibrat, shaxsiy namuna bo‘la oluvchi hayot tarziga ega pedagog va psixologlar kuchiga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarining ko‘rilganligi;
- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishning mukammal psixologik mexanizm tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi;
- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllantirish andozasining yaratilganligi va hokazolar.

2. Ob’ektiv omillar:

- ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini, sifatini oshirishga xizmat qiladigan manbalardan foydalanishning yo‘lga qo‘yilishi;
- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet barqarorlashuvini yuzaga keltiruvchi hamda g‘oyalar singdirilgan o‘quv manbalari (o‘quv

dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilishi;

- o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishda axborot texnologiyalari (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va kompyuter) xizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi va boshqalar.

Tadqiqotimiz davomida o'smirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllatirishda psixologik omillar sifatida shaxsning psixologik himoya mexanizmlari, tayanch e'tiqodlar tuzilmasi hamda shaxsning esternal va internal xususiyatlari o'r ganildi.

Shunday qilib, birinchi bobda mafkuraviy immunitet ijtimoiy muammo sifatida Sharq mutafakkirlari, xorij, Rossiya va O'zbekistonda olib borilgan izlanishlar va ilmiy manbalar tahlil qilindi va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirildi.

Mafkuraviy immunitet ijimoiy muammo sifadida tadqiq qilinishining tizimli moduli.

Nº	Mutafakkirlar, olimlar, tadqiqotchilar, asarlar	Metodologik yondashuv tizimi
1	Avesto, bitiktoshi, karim” Kultegin “Qur’oni	Mafkuraviy immunitetning tarkibiy sifatlari kamolot, go'zal xulqli, chiroyli fazilatlar, ezgulikka va bunyodkorlikka yo'g'rilgan g'oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni to'g'ri yo'lga solish; sog'lom bo'lмаган xulq egalarini zamon, jamiyat hamda Olloh kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo'llar, buzg'unchi fikr va g'oyalarga chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlar ilgari surilgan.
2	Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur,	Shaxs kamolotida sog'lom xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, shuningdek, shaxsning go'zal odobli,

	Jaloliddin Manguberdi, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Abu Ali ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Abu Homid G'azzoliy	insonparvar g‘oyalarga ega bo‘lib borishi, irodaviy hamda xarakterologik sifatlarni rivojlantirish, shu jumladan, o‘zini o‘zi to‘laqonli anglash tizimini takomillashtirish asosida ularda ma’naviy, mafkuraviy, psixologik immunitet hosil qilish muhim ekanligini ko‘rsatdi. Zero, allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosda ilgari surilgan g‘oyalar bugun yoshlarni nafaqat aqlan, axloqan, balki ularda buzg‘unchi, yot, vayronkor g‘oya va mafkuralarga qarshi mustahkam, barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi ayni haqiqatdir.
3	A.Ochildiev, A.G‘aniev, A.Mavrulov, U.Ubaydullaev, A.Mo‘minov, G.Tulenova, F.Ravshanov, S.Otamuratov, S.Mamashokirov, D.Himmatov, Sh.G‘oyibnazarov, A.Tashanov, A.O‘tamurodov, Sh.To‘raev, B.Iminov, A.Umarov, M.Raxmatullaev, I.Maminova, X.Mamatrayimova, M.Matmurodova, Z.Islomov, D.Alimova, A.Sharipov,	Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o‘zbek xalqi tarixini puxta bilish, tarixiy jarayonlar mohiyatini to‘g‘ri anglash, ijtimoiy voqeа va hodisalarga ongli munosabat, xalq qahramonlarining faoliyatidan ibrat olish, yoshlarning milliy iftixon, milliy g‘urur, milliy birlik, milliy tuyg‘u, milliy faxr kabi omllar tadqiq qilingan.

	N.Shabkarova, Sh.Usmonov, M.Jakbarov, Sh.Abbasova, T.Jo‘raev, A.Yaxshiev	
4	M.Quronov, O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Nishonova, Sh.Qurbanov, D.Ro‘ziyev, M.Abdujabborova, Z.Qosimova, Sh.Akramova, G.Maxmutova, D.Kenjayeva, Sh.Rayimov, Sh.Shodmonova, B.Xodjaev, I.Mirziyotov, M.Aripova, I.Xushmurodova, M.Yuldasheva	Mafkuraviy immunitet shakllantirishda pedagogik omillar, shakl, tamoyil, metodlar va pedagogik mexanizmlar tadqiq qilingan.
5	M.Davletshin, E.G‘oziev, B.Qodirov, G‘.Shoumarov, A.Jabborov, V.Karimova, Sh.Baratov, N.Safaev, B.Umarov, Z.Nishanova, R.Sunnatova, M.Mamatov, G.To‘laganova, Z.Abdurahmonova, O‘.Shamsiev, E.M.Muxtorov,	Barkamol shaxs psixologiyasi, uning psixologik xususiyatlari, sog‘lom xulq-atvorni shakllantirish mexanizmlari, shaxsda yuksak ma’naviyat hamda sog‘lom mafkura shakllantirishning psixologik yo‘llari kabi bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligini ko‘rishimiz mumkin. Biz (X.Jabborov) tomonimizdan mafkuraviy immunitet shakllantirishda uning psixologik omillari (psixologik himoya mexanizmlari, psixologik xususiyatlar, tayanch e’tiqodlar),

	N.Xalilova, U.Qosimov, B.Botirov, D.Anvarova	psixologik funksiyalari (“axborotni saralash”, “himoya”, “kurash”, “boshqarish”) tadqiq qilindi
6	Z.Freyd, A.Freyd, E.Fromm, K.Xorni, K.Girs, F.Kazin, L.Shabanov, A.Morozov, Charlz Rubin, Djerrold Post, Pol Pilar, A.N.Leontev, B.G.Ananев, L.I.Bojovich, N.V.Kuzmina, N.F.Talizina, V.Ya.Lyaudis, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, A.A.Bodalev, B.Skinner, K.Rodgers, A.Bandura, P.Jane, T.Shrayber, K.Byuler, Dj Bruner, S.Xoll, U.Djeyms, D.Cheyni, E.Klapared, N.N.Obozov, V.A.Sisenko, A.N.Leontev, Yu.E.Alyoshina, N.I.Gubanov, V.N.Sokolova, G.Ya.Yuzefovich, D.V.Kolesov, N.V.Silverova, N.N.Tolstix, A.G.Shmelev, T.Karsev, E.Goffman, V.G.Vlastovskiy, A.V.Baranov, P.F.Lesgaft, R.Plutchik	Xorij manbalarini tahlil qilganimizda aynan mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi shaxsning to‘laqonli shakllanishi, sog‘lom xulq-atvor va uni boshqarish mexanizmlari, o‘smir shaxsda “Men” konsepsiysi, uning shakllanish qonuniyatları, shaxsning psixologik himoya mexanizmlari, o‘zini o‘zi anglash qonuniyatları, ijtimoiylashuv jarayoni qadriyatlar tizimi, ma’naviy bilimlarning orttirishi, etnopsixologik va milliy xarakterologik xususiyatlar shakllanish kabi shaxsning har xil g‘oya va mafkuralarning maqsadlarini anglashga yordam beruvchi masalalarda bir qator tadqiqotlar olib borilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Mafkuraviy immunitetning ta’riflari.

№	Ta’riflar
1	Falsafiy ta’rif: Mafkuraviy immunitet bu – ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan tizimdir.
2	Ma’naviy ta’rif: Mafkuraviy immunitet, o‘z navbatida odamni to‘g‘ri yo‘ldan “ozish”dan, turli yo‘llarga adashib, keyin pushaymon bo‘lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, parchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo‘linishlardan asrab qoladi.
3	Psixologik ta’rif: Mafkuraviy immunitet shaxsning ong va ong ostini turli zararli axborot ta’sirlaridan himoyalashga qaratilgan psixologik muxofaza tizimdir (X.Jabborov).

“Mafkuraviy immunitet” tushunchasi bilan bog‘liq atamalar.

№	Tushuncha	Tushunchalar mazmuni
1	Ijtimoiylashuv	Ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoni bo‘lib, u individning muayyan rivojlanish darajasiga erishib, boshqa insonlar bilan hamkorlik qilish layoqatiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. J.Piaje .
2	Ong	Ong - psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo‘lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish maqsadni ko‘zlash, o‘zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga egadir. E.G‘oziev Umumiy psixologiya .
3	Ongsizlik	Ongsizlik - birinchidan, voqelikning hodisalari bilan shartlangan ruhiy jarayonlar, aktlar va holatlarning majmuasi; ikkinchidan, tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan sub’ektning o‘ziga hech qanday hisobot bermasligi; uchinchidan, psixik aks ettirishning shakli, ya’ni voqelikning obrazi:

		tasviri, timsoli va unga nisbatan sub'ektning munosabati refleksiyaning max-sus predmeti sifatida vujudga kelmaganligi; to‘rtinchidan, qismlarga ajralmovchi yaxlitlik tarkibiga ega ekanligi va hokazo. E.G‘oziev Umumiy psixologiya.
4	G‘oya	G‘oya – ma’naviy hayot hodisasi, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr.
5	G‘oyaviy- mafkuraviy qarash	G‘oyaviy- mafkuraviy qarash - muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari orzu-istik va maqsad-muddaolarini ifodalovchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlар ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi.
6	Vayronkor g‘oya	Vayronkor g‘oyalalar – bunyodkor g‘oyalarga zid bo‘lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g‘oyalalar majmuini ifodalaydigan tushuncha. Jamiyatni tubanlikka yetaklab, odamlarni g‘arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatta mahkum etadigan g‘oyalalar.
7	G‘oyaviy tajovuz	G‘oyaviy tajovuz — muayyan bir jamiyat yoki millat, ijtimoiy qatlam yo guruh ongi va ruhiyatiga tashqaridan o‘tkaziladigan mafkuraviy ta’sir, begona va yot maqsad-manfaatlarga xizmat qiladigan g‘oyaviy bosqinchilik.
8	Immunitet	Immunitet - tibbiy tushuncha bo‘lib, u organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta’sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmuini ifodalaydi. Soddaroq qilib aytganda, immunitet – organizmning o‘zini o‘zi turli kasalliklardan himoya qila olish

		qibiliyatidir.
9	Mafkuraviy immunitet	Mafkuraviy immunitet (lotincha immunitatis – biror narsadan ozod etish) – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim. Falsafiy qomusiy lug‘at .
10	Buzg‘unchi mafkura	Buzg‘unchi mafkura – jamiyat taraqqiyotining turli sharoitlarida ob’ektiv zaruriy bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarning buzulishiga sabab bo‘ladigan mafkura.
11	Agressiya	Agressiya – tajovuz, hujum idividual tarzda odamzodga xos biologik yoki ijtimoiy xulq-atvorning buzg‘unchi shaklidir; bir davlat tomonidan boshqa davlatning xududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi har qanday kuch ishlatalishining anlatuvchi tushuncha. “Agressiya” tushunchasining ilk psixologik tahlili R.Beron, D.Richardsonlar tomonidan amalga oshirilgan.
12	Ma’naviy tahdid	Ma’naviy tahdid - avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion xurujlarni nazarda tutiladi. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.
13	Psixologik himoya	Psixologik himoya – bu shaxsni salbiy kechinma va yot g‘oyalardan himoya qilishga yo‘naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir. Z.Freyd himoya mexanizmini maqsadi, mazmunini to‘liq ifoda etgan. U intropsixik nizoni bo‘shatishdan iborat ijtimoiy hamkorlik natijasida yuzaga keluvchi ongsizlikni instinktiv impulsları va tashqi muhitning interifizatsiyalashgan talablari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan shartlangan. Z.Freyd
14	Tayanch	E’tiqod - (arabcha «i’taqada» fe’lidan)

	e'tiqod	ishonch, imonli bo'lish ma'nolarini anglatadi. Keng ma'noda e'tiqod inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilim, g'oya va shu asosda shakllanadigan maqsadlar majmuini hamda ularning to'g'rilingiga ishonch bilan bog'liq bo'lgan psixologik holatni ifodalaydi. Tayanch e'tiqodlar 3ta kategoriyadan iborat bo'lib, bizning sub'ektiv olamimiz yadrosi hisoblanadi. Dunyoni anglashga bo'lgan munosabat.
		Tayanch e'tiqodlar shkallalari: Insonlarning yaxshiligiga ishonch; Hayotning odilligiga ishonch; Hayotning boshqaruvchanligi ishonch; Tasodif bo'layotgan voqealarni taqsimlanish tamoyili sifatida bilish; O'z "Men"ining qadr-qimmatini yuqori qo'yish; O'zini o'zi boshqarish darajasi; Omad darajasi. Yanov – Bulman.
15	Shakllanish	Shakllanish jarayoni – dunyoqarash va uning tarkib topishini anglatuvchi asosiy tushunchadir.
16	Shakllantirish	Shakllantirish jarayoni – shaxsni rivojlantirish (aniqroq qilib aytganda, shaxsda muayyan sifatlarni tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish) negizida sodir bo'luvchi ijtimoiy hodisadir.
17	Shakllanganlik	Shakllanganlik jarayoni – faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarilishi. Shaxs shakllanganlik darajasining yuqori bosqichi shaxsning ijtimoiylashuvi hisoblanadi.
18	Ustanovka	Ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish D.N.Uznadze.
19	Motivatsiya va motiv	Motivatsiya - bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv - bu shaxs xulq-atvorining kog-nitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'ek-tiv tarzda aks etish demakdir. S.L.Rubinshteyn
20	Motivlashtirish	Motivlashtirish - bu inson axloqi va

		faoliyatini o‘zi boshqa-ruvchi vosita tariqasida namoyon bo‘lishidir. Ushbu vositalar tarki-biga emotsiyalar, xohishlar, tilaklar, qiziqishlar, mayllar va bosh-qalar kiradi. E.G‘oziev
21	Xavsizlik	“Xavfsizlik – muntazam kuchayib boruvchi, fuqarolik jamiyatida hokimiyyat siyosiy institutlari funksiyalarining buzilishi va hatto, jamiyatning tanazzuliga olib keluvchi ziddiyatlari holatlarning yo‘qligidir” M.M.Gadjimirzaev
22	Internallik	Agar odam ichki lokus nazoratiga ega bo‘lsa, bunday odamlarni internallar deb atashadi. Inson hayoti davomidagi ijobjiy yoki salbiy o‘zgarishlarni o‘z kuchi, harakati bilan bog‘lasa, bu o‘zgarishlarga javobgarlikni his etsa, bunday inson qisqa tarzda “internal” deb baholanadi. Dj.Rotter
23	Ekternallik	O‘z hayotidagi o‘zgarishlariga omad, atrofidagi insonlar, tashqi ta’sir sabab deb o‘ylaydigan, bu o‘zgarishlarda faqat atrofdagilarni sababchi qiladigan insonlar “eksternallar” toifasiga kiritiladi. Dj.Rotter

Keyingi boblar va paragraflarda:

- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni amaliy jihatdan tadqiq qilish va ularning mafkuraviy immunitet shakllanishiga ta’sirini aniqlash;

- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillariga oid ilmiy-nazariy manbalarning muayyan mezonlar (psixologik himoya mexanimlari, shaxs xususiyatlari, e’tiqodlar darajasi, motivation yo‘nalishlari, qadriyatlar tizimi, kognitiv jarayonlar, xulq-atvor me’yorlari, irodaviy-emotsional holatlari kabi tarkibiy qismlar) asosida tahlil etish;

- O‘zbekistonning turli hududlaridagi o‘smirlar guruhida mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini yosh, jins va hudud kesimida tadqiq va tahlil qilishga mo‘ljallangan “Mafkuraviy jarayonlar xaritasi”ni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish kabi vazifalarni ko‘rib chiqiladi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, o‘smirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini nazariy tadqiq qilishga bag‘ishlangan ishlarning bugungi kundagi taqchilligi va tizimlashtirilmaganligi hamda shu bilan birga dolzarbligini ko‘rsatdi.

Dunyodagi ko‘plab ilg‘or psixologiya namoyondalarining g‘oya va mafkuraga oid qarashlari tadqiq qilinganda, bu jarayon shaxsning yosh va individual psixologik xususiyatlari, ong usti va ong osti tizimlarining psixologik himoya mexanizmlari, shaxs sifatlari, qadriyatlar tizimi, iymon-e’tiqodi, vijdonining shakllanishi, xulq-atvorxususiyatlari kabilar inobatga olinib, shaxsning sog‘lom ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun o‘rganilishi muhim bo‘lgan tadqiqot yo‘nalishi ekanligi yana bir bor ta’kidlandi.

Ayni paytda, Sharq allomalari, xorij hamda mamlakatimizda aynan ushbu muammo bo‘yicha nazariy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Umuman, o‘smirlarda ma’naviy tahdidlar, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlari yuzasidan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G‘arb mutafakkirlari ijodida, ilg‘or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan, ammo o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari muammosi psixologiyada o‘zining muayyan nazariy-metodologik bazasiga ega bo‘lsa-da, ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar ko‘lami hali o‘zining mukammal yechimlariga ega bo‘lmagan.

2. O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini ijtimoiy psixologik muammo sifatida o‘rganishga qaratilgan nazariy-ilmiy manbalarni tadqiq etish mafkuraviy immunitet tushunchasining tarkibiy qismini aniqlash va o‘smirlarni turli xil buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalari, ma’naviy, mafkuraviy tahidlardan saqlash haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat o‘smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarini jonlantirishga hissa qo‘sadi.

3. O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo‘lgan mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarida uning psixologik omillarini empirik jihatdan o‘rganish muqarrarligini

ko'rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo, mafkuraviy immunitet tizimining tarkibiy qismlari bilan o'smir shaxsning psixologik himoya tiplari, tayanch e'tiqodlari va psixologik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va koorrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda elon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini ochib berishga xizmat qiladi.

4. Sharq allomalari asarlarida mafkuraviy immunitet shakllantirish masalalarining ifodasi insonlarni yaxshilikka, ezgu ishlarga, buniyodkorlikka, daxldorlikka chorlash, ularda rostgo'ylik, to'g'ri e'tiqod, sof vijdon, sog'lom xulq-atvor kabi fazilatlarni kuchaytirish orqali jaholat, g'arazlik, qabohat, buzg'unchilik, vayronkorlik kabi g'oyalarga qarshi tura olishga targ'ib etishi bilan xarakterlanadi.

5. Mafkuraviy immunitet shakllantirish masalasi xorij psixolog, pedagog, faylasuflari tomonidan tadqiqotlari, shaxsdagi o'zini o'z anglash tizimi, "Men" siymosi va psixologik himoya mexanizmlari, shaxsning psixologik xususiyatlari bilan bog'liqligi asoslab berilgan.

6. O'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllantirish va uning psixologik omilarini o'rghanish muammosining mavjudligi yaqqol namoyon etilmoqda. Ushbu muammoning turli xil psixologik omillarini aniqlash va uni atroflicha o'rghanish mazkur ishlar uchun yangi ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda inson ongi uchun dunyo siyosatidagi mafkuraviy kurashlarning murakkabligidan kelib chiqib, mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlariga ijtimoiy-psixologik jihatdan baho berilishi mazkur sohada olib borilayotgan ishlarni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Bugungi kunda o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari ierarxiyasining ishlab chiqilishi va uning amaliyatga tatbiq qilinishiga juda katta ehtiyoj sezilayotganligi nazariy tamoyillar asosida izohlandi.

II BOB. O‘SMIRLARDA MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANISHINI TADQIQ QILISHNING AMALIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mazkur bobda o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni amaliy jihatdan tadqiq qilish va ularning mafkuraviy immunitet shakllanishiga ta’sirini aniqlash, o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillariga oid ilmiy-nazariy manbalarning muayyan mezonlar (psixologik himoya mexanimlari, shaxs xususiyatlari, e’tiqodlar darajasi, motivasion yo‘nalishlari, qadriyatlar tizimi, kognitiv jarayonlar, xulq-atvor me’yorlari, irodaviy-emotsional holatlari kabi tarkibiy qismlar) asosida tahlil etish, O‘zbekistonning turli hududlaridagi o‘smirlar guruhida mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini yosh, jins va hudud kesimida tadqiq va tahlil qilishga mo‘ljallangan “Mafkuraviy jarayonlar xaritasi”ni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish hamda mafkuraviy immunitet shakllanishinining psixologik mexanizmlari kabi vazifalarni ko‘rib chiqiladi.

1. Mafkuraviy immunitet shakllanishinining psixologik mexanizmlari

Mafkuraviy immunitet shakllanishida ijtimoiylashuv jarayonining o‘rni va ahamiyati: Shaxsning dunyoni, o‘zini va atrofidagi axborot almashinuvini bilishi, tushunishi va o‘zaro munosabatlar jarayonida o‘zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog‘liq ayrim jihatlarini taxlil qilish bizga umumiyl ravishda shaxs - jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi (*bu o‘rinda diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi shaxsning bilish jarayonlari psixologik mexanizm sifatida, ya’ni ularni normal yoki normal bo‘lmagan holatda, yuqori, o‘rtta yoki past darajada shakllanishi kabi psixologik mexanizmlari shaxsni atrofida bo‘layotgan voqelikni anglashi yoki yetarlichcha angloolmasligi, tushinishi yoki palapartish tushinishida asosiy o‘rin tutadi*). Ya’ni, u tug‘ilgan onidan boshlab o‘ziga o‘xshash insonlar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potensiali va psixologik mexanizmlarining

shakllanishi ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, xali gapirmay turib, odam bolasi o‘ziga o‘hshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko‘rinishlarining faol ob’ekti va sub’ektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘silib yashashimizning psixologik mexanizmlarining (*Bu o‘rida psixologik mexanizmlar shaxsning psixologik strukturasining normal ishlash jarayoninini boshqaradigan vositachi, yordamchi qurilma*) muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada *ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya* deb yuritiladi.

Demak *ijtimoiylashuv* - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallah va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo‘silishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta’sirini qabul qilgan xolda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi va kerak bo‘lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta’sirini o‘tkaza olishi jarayonidir (*Bu o‘rinda yetarlicha yoki normal ravishda ijtimoiylashmagan shaxs boshqalarga ta’sir o‘tkazish emas balki ko‘proq tasirlarga beriluvchan bo‘ladi. Bunyodkorlikka, insonparvalikka, umuminsoniylikka yo‘g‘rilgan g‘oyalarni eshitmagan, tushunmagan, angolmagan, o‘rganmagan bola yot, buzg‘unchi g‘oyalarga tasiriga nisbatan kurashuvchan emas, aksincha ularni tasiriga berilishi psixologik xavfi yuqori bo‘ladi*).

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko‘rsatilayotgan ta’sir oddiy, mexanik tarzda o‘zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyonи aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub’ektiv tarzda idrok etiladi (*Bu o‘rinda shaxsning normal yoki og‘ishgan xulq-atvor sifatlari, ijobiy yoki sylbiy xarakter fazilat va illatlari, temeramental xususiyatlarining psixologik mexanizmlari ahamiyatini ko‘rish mumkin bo‘ladi*). Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta’sirlar odamlar tomonidan turlicha xarakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10-15 ta o‘quvchidan iborat akademik litsey o‘quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota-

onalarining kutishlari, o‘qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma’lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir hilday. Lekin baribir ana shu 15 o‘quvchining har biri shu ta’sirlarni o‘zicha, o‘ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o‘quv ko‘rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o‘sha biz yuqorida ta’kidlagan ijtimoiylashuv va individualik jarayonlarining o‘zaro bog‘liq va o‘zaro qarama - qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Bizningcha bolaning past, o‘rta, yuqori darajada ijtimoiylashuvi undagi psixologik mexanizmlarning qay darajada ishlayotganligi bilan belgilanadi. Shunday ekan bolani ijtimoiylashuviga ko‘maklovchi ijtimoiy institular diqqatini ko‘proq bola psixologiyasi bilan hisoblashish ko‘nikmasiga qaratishimiz lozim.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro‘y beradigan shart-sharoitlarini *ijtimoiy institutlar* deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog‘cha, maktab, maxsus ta’lim o‘choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda *oila va mahallaning* roli o‘ziga xosdir. Insondagи dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, *oilaviy munosabatlar* tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda “qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bor. Ya’ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta’sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o‘zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda *mahalla* ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya’ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo‘lib, bu farq odamlar psixologiyasida o‘z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya’ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, odobli, mehnatkash bo‘lib yetishishlariga ko‘maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko‘cha-eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o‘hshash normalar tizimi har bir ko‘cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo‘layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o‘choqlariga ***uzluksiz ta’lim maskanlari*** kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg‘unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta’lim oladigan, bola bilimlar tizimini o‘zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda tashkil etilgan “Tarbiya”, “Etika”, “Odobnoma” kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman mактабдаги шарт-шароитлар, умумий мухитнинг **tarbiyalovchi roli haqida**. Masalan, dars paytida o‘qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko‘zlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o‘qituvchining ***o‘zini qanday tutayotganligi, kiyim - boshi, mavzuga sub’ektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o‘quvchilarga munosabati*** hamma **narsani belgilovchi**, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omildir. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o‘qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks xolda esa o‘qituvchining ta’siri faqat salbiy aks beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan **muhit ham katta rol o‘ynaydi**. Ba’zi sinflarda o‘zaro **hamkorlik, o‘rtoqchilik munosabatlari** yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, guruhda **ijodiy munozaralar va baxslar** uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o‘z a’zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo‘naltirib turadi .

Bizningcha bunday muhitda har qancha ijobiy fazilatlar deylik hamdardlik, ijtimoiy faollik, alturizm (“Men”dan “Bizlikka” o‘tish), Vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatkashlik, masuliyalilik, burch va ijtimoiy rollarni yuksak darajada ado etish, ijtimoiy rollarga hurmat, ijtimoiy sangsiyalarni qo‘llash, ya’ni loqaydlik, befarqlik, xudbinlik, dangasalik kabi illatlarga o‘zining faol fuqarolik pozisiyasini inkos etish kabi psixologik mexanizmlar barqaror shakllanadi. Yuqoridagilarni aksi bo‘lsa. Ya’ni guruxda salbiy psixologik iqlim hukumronlik qilsa yoki bolani ijtimoiylashuvida psixologik mexanizmlariga (psixologik rivojlanishning irarxiyasiga) rivoya qilinmasa bolada ijobiy fazilatlar emas balki buzg‘unchilikka, xudbinlikka, zo‘ravonlikka, yengil-elpilikka yo‘rilgan illatlar shakllanadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu ***mehnat jamoalaridir***. Bu muhitning ahamiyati va o‘ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma’lum tajribaga ega bo‘lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo‘lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta’sir qiladi. Lekin baribir shaxsning **kimlar bilan**, qanday o‘zaro munosabatlar muhiti ta’sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o‘sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o‘zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo‘lib, va eng asosiysi bu kollektivda qnday g‘oyalar ustuvorlik qilishi (bunyodkor yoki buzg‘unchi), ko‘pincha oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o‘rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog‘lom ma’naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o‘ynaydi.

Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning o‘ziga xosligi shundaki, unda individualizatsiya (**o‘zini anglaganlik darajasi**) jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta’sirlarni o‘zlashtiradi, balki o‘zidagi iqtidor, malakalar bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta’sir, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish imkoniyaga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, qarilikning ijtimoiy mohiyati shundaki, ota - bobolarmiz, onaxonlarimiz asosan o‘zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va x-zo) uzatish bilan shug‘ullanadilar va bu narsa ayniqsa, Sharq xalqlarida juda e’zozlanadi. Shu sababli ham mustaqil yurtimizda qariyalar e’zozlanadi, mahallaning boshqaruv roli kun sayin oshirilmoqda, oila - tarbiyaning bosh o‘chog‘i sifatida davlat himoyasida bo‘lib kelmoqda. Bu mustaqil davlat yoshlarida yangicha tafakkur va ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlikning rivojiga o‘z xissasini qo‘sadi.

Demak yuqoridagi fikrlar ijtimoiylashuv jarayonining mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlaridagi o‘rni va hamiyatini quyidagi jihatlar bilan asoslash mumkin:

- shaxsning normal ijtimoiylashuv psixologik mexanizmlari ularda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishiga zamin hozirlaydi;

- shaxsni ijtimoiylashuvida milliy xarakter, etnopsixologik xususiyatlar, urf-odatlar, milliy an'analar, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy normalar kabi tushunchalarning mazmun mohiyati, amaliy ahamiyati, hayotda keraklilik darajalari atroflicha yoritilishi ularni hayotda o'z o'rnini topishga, ijtimoiy rol ma'suliyatlarini oshirishga xizmat qiladi;

- shaxsni ijtimoiylashuvida milliy tarbiya prinsiplari, milliy pedagogikaning ta'sirchan usullari hamda shaxsning psixologik aparatini psixologik qonuniyat, psixologik fakt va psixologik mexanizmlaridan to'laqonli foydalanish va ularga rivoya qilish, ularda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishining garovidir;

- shaxsni ijtimoiylashuviga ko'maklovchi ijtimoiy institutlar ayniqsa oila, mahalla va mehnat jamoalarida shaxsga individual yondashuv prinsipini namayon qilishga o'rgatish lozim. Bunda asosan shaxsni yosh va aqliy imkoniyatlari, xarakter xususiyatlari, temperamental sifatlari, emotsional holatlari, ijtimoiy rol pozisiyalari kabi psixologik mexanizmlarni inobatga olish;

- shaxs ijtimoiylashuvida ijobiy sog'lom muhit uni bunyodkor g'oyalarga otlanadiradi, salbiy nosog'lom muhit esa uni buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushishiga olib keladi.

Mafkuraviy immunitetni shakllanishida shaxsning yo'nalganligi psixologik jarayonining o'rni va ahamiyati

Mafkuraviy immunitet shakllanishida shaxsning to'g'ri, sog'lom va faol yo'nalganligi yoki normal ijtimoiylashuv masalasi psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning yo'nalganligi masalasiga ham psixologiya fanida katta e'tibor beriladi. *Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi.* Bizningcha shaxsning real vaziyatlarga (*misol: tinchlik va sog'lik bebahoboylik*) nisbatan turg'un, barqaror motivlar asosida biror bir sog'lom faoliyatga yo'nalishi uning mafkuraviy immun tizimini asosy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shaxsning yo'nalganlik psixologik mexanizmi — ehgiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

Yo‘nalganlik psixologik mexanizmining eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi:

Mas’uliyat. Bu mafkuraviy immunitet shakllanishida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko‘rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada *nazorat lokusi nazariyasi* (*teoriya lokusa kontrolya*) keng tarqaldiki, unga ko‘ra, har bir insonda ikki tipli mas’uliyat kuzatiladi. *Birinchi tipli* mas’uliyat shundayki, shaxs o‘zining hayotida ro‘y berayotgan barcha xodisalarning sababchisi, mas’uli sifatida faqat o‘zini tan oladi. (“Men o‘zim barcha narsalarga mas’ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o‘zimga bog‘liq, shuning uchun o‘zim uchun ham, oilam uchun ham o‘zim javob beraman”). Ushbu tip vakllarida mafkuraviy immun tizimi barqaror shakllanadi. Chunki ularning xulq-atvorlarida tahlilchanlik, o‘zini-o‘zi tergash, o‘zini to‘g‘ri qaror toptirishga bo‘lgan intilish va o‘zini imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash kabi xususiyatlar ustuvorlik qiladi. Ular doim ongiga ta’sir qilayotgan g‘oyalarni ham ob’ektiv, ham sub’ektiv darajada analiz qiladilar. Bu tip vakllarida Z.Freyd talqini bilan aytadigan bo‘lsak “Men” likka nisbatan “Ego Men” lik, egoistlikka nisbatan alturistik xususiyatlar ustunlik qiladi. Bu tip vakllari o‘zlarining ijtimoiy rollarini yaxshigina anglagan bo‘ladilar. Shu sababli ularda xato va kamchiliklar kam kuzatiladi. Ushbu tip vakllarining mafkuraviy immuniteti barqarorligiga yana bir xizmat qiladigan omil, uning tartib qoidalarni yaxshi ko‘rishi, faqat real va dalilangan tushunchalarga tayanishi, ijtimoiy faol bo‘lishga intilishi kabi xususiyatlardir. Mas’uliyatlilikning *ikkinci turi undan* farqli, barcha ro‘y bergen va beradigan voqealarni xodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota - ona, o‘qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlilar, zamon, jamiyat, davlat va boshq.).

Xorij mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ikkinchi turli mas’uliyat ko‘proq o‘smirlarga xos bo‘lib, ulardan **84%** mas’uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma’lum ma’noda yoshlar o‘rtasida mas’uliyatsizlikning avj olganligidandir. Shuning uchun ham “**nazorat lokusi**” tushunchasini fanga kiritgan amerikalik olim Dj. Rotter (J. Rotter)ning fikricha, mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olishga o‘rgatilgan bolalarda *havotirlik, neyrotizm, konformizm xolatlari kam uchrarkan*. Ular hayotga tayyor, faol, mustaqil fikr yurituvchilardir. Ularda o‘z -o‘zini hurmat xissi ham yuqori bo‘lib, bu boshqalar bilan ham hisoblashish yashashga sira

halaqit bermaydi. Shuning uchun ijtimoiylashuvning muhim bosqichi kechadigan ta’lim muassasalarida yoshlarga ko‘proq tashabbus *ko ‘rsatish, mustaqil fikrlash va erkinlikni his qilishga sharoit yaratish kerak* va bu hozirgi kunda davlatimiz siyosatining asosini tashkil etadi.

Maqsadlar va ideallar. Shaxsda mafkuraviy immunitet shakllantirishda unda shakllanadigan maqsadlar va ideallarning psixologik mexanizmlarini o‘rni va ahamiyatini ahamiyatlidir. Ular shaxsni keljakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq va yaqinga mo‘ljallangan rejalarни amalga oshirishga tayyorligini ta‘minlaydi. Maqsad va rejasiz inson - ma’naviyatsiz pessimistdir. Bunday insonlarda mafkuraviy immunitet sust shakllanadi. Buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalar bilan kurasha olmaydi aksincha ularning ta’siriga tez beriladi. Barqaror mafkuraviy imun tizimiga ega bo‘ladigan shaxslarda maqsadlar doimo o‘zining anglanganligi va real imkoniyatlariga bog‘liqligi bilan xarakteralanadi. Ularning shakllanishi va ongda o‘rnashishida ma’lum ma’noda ideallar ham rol o‘ynaydi. Ideallar - shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu - umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo‘lishiga sabab bevosita tashqi muhit bulib, o‘sha ideallar ob‘ekti bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘smirning ideali ustoz, u ustoziday fidoiy, mashhur va jamiyat taraqqiyotiga foydasi tegadigan olim bo‘lmoqchi. Bu orzuga yaqin keljakda erishib bo‘lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo‘yib, unga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi.

Qiziqishlar va dunyoqarash. qiziqishlar ham anglangan motivlardan bo‘lib, ular shaxsni atrofida ro‘y berayotgan barcha xodisalar, olamlar, ularning o‘zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to‘plash, ularni o‘rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo‘lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki beqaro vaqtinchalik bo‘lishi mumkin. Qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini shakllantirishga asos bo‘ladi. Chunki *e’tiqod* shaxsning shunday ongli yo‘nalishiki, unga o‘z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Xalq doimo e’tiqodli insonlarni

hurmat qiladi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin - Vatanga e'tiqod, dinga, fanga, kasbga, ahloqiy normalarga, oilaga, go'zallikka va shunga o'hshash.

E'tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. **Dunyoqarash** - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bulib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallahsga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'liga - kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddir. Darhaqiqat milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi yoshlarimizda o'zlogin anglash, buyodkorlik, insonparvarlik, umuminsoniylik, daxldorlik, ijtimoiy faollik kabi g'oyalarni shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon esa o'z-o'zidan yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishiga xizmat qiladi.

Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar. **Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli.** Dunyoqarash - shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri - ma'naviy - ma'rifiy islohotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha xurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirish. Bu o'rinda shaxs psixologiyasi o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar xususida quyidagilar ajaratadi:

Ma'naviyat va ma'rifat. Avvalo ma'rifat xususida. Bu - odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun - mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o'qib, o'rganishi uchun yo'naltirilgan

barcha turdag'i ma'lumotlar (kitoblar, internet, ommaviy - ahborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Mustaqillik yillarida eski, o'zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g'oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma'rifatli qilish borasidagi vazifalar davlatimiz siyosatida birinchi o'rirlarda muxtasar, aniq bayon etilib borilmoqda. Ular asosida mamlakatimizda yangi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" qabul qilindi. Ular yoshlarning eng ilg'or ilm - fan yutuqlaridan boxabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o'rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma'rifatli qilishning barcha shart - sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say'i - xarakatlar ma'naviyat borasidagi islohotlar, o'zbek madaniyati, san'ati, adabiyotini rivojlantirish ishlari, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning va shu asosda yot, buzg'unchi, vayronkor g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishiga asos bo'ladi.

Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda 1998 yilda "Oila" yili deb elon qilinishi, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy Markazi o'z faoliyatini boshlashi jamiyatda, yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlarga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Mafkura. Har bir davrning o'z mafkurasi bo'ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistik mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a'zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g'oyalari, bilimlari majmui bo'lib, har bir ijtimoiy guruh o'z e'tiqodiga mos mafkurani tanlaydi. Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma'naviy ne'matlaridan bahramand bo'layotgan o'zbekistonliklar o'tgan qisqa vaqt mobaynida uning

qadriyatlari, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart - sharoitlarni anglab, o‘zлari ongli ravishda ana shu tuzumga sadoqat va uni sevish, ardoqlash va himoya qilishga tayyorlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Bu yilni muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar” yili deb e’lon qilinishi bu davlat fuqarolari nechog‘lik qadrlanishi birinchi galdeg‘i masala ekanini yana bir bor isbotladi. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g‘oyasi ta’sirida shakllanmoqda va bu tabiiy, birinchi navbatda yoshlar dunyoqarashini o‘zgartiruvchi muhim shartdir.

Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma’noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o‘zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob’ektlarni, ijtimoiy guruahlarni ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruhiy ichki hozirlilik sifatida odamdag‘i dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V.A. Yadov o‘zining dispozision konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to‘rt bosqich va to‘rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustanovkalar (*set*) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko‘pincha ongsiz tarzda hosil bo‘ladigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdag‘i ehtiyojlar tizimini o‘zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustnovkalar (*attitud*) - ijtimoiy vaziyatlar ta’sirida ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o‘zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo‘nalishini belgilaydi va ularni o‘zgartirish e’tiqodlar va dunyoqarashlarni o‘zgartirish demakdir. Masalan Kommunistik g‘oya va mafkura aslida kollektivizm, hamma bir xil yashash tarziga ega bo‘lishi niqobi ostida shaxslarda boqimandalik, loqaydlik kabi illatlarni shakllantirgan. Buzg‘unchi “ommaviy madaniyat” shaxs yashash tarzini yengillashtiriga qaratilgan zamonaviy, yangi madaniyat targ‘iboti niqobi ostida insonlar ongida xudbinlik, zo‘ravonlik, buzg‘unchilik, behayolilik, yengil-elpilik kabi vayronkor g‘oyalarni shakllantiradi.

G) qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o‘z qadrini yo‘qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustnovkalarni o‘zgartirishning eng sodda va qulay yo‘li - bu ayni vaziyatlar va ulardagagi ta’sirlarni **qaytarishdir**. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo‘lganda, *ob’ektivlashadi*, ya’ni o‘z kuchini va mavjudligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, *u yerda biror g‘oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o‘z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so‘zlar va iboralar, xarakatlar bilan qaytaraveradi* va *shu yo‘l bilan ko‘pchilikning ma’qullahiga erishadi*. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo‘llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustnovkalarni o‘zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o‘zgartirishga erishish mumkin.

Demak yuqorida keltirilgan asoslarni quyidagi xulosalar bilan izohlash mumkin. Jumladan,

- shaxsda mafkuraviy immunitet shakllantirishda uni yo‘nalganligi psixologik mexanizmlarini atroflicha o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi;

- shaxslardagi sub’ektiv nazoart lokusini (ma’suliyat, burch, ichki tahlil) muvozanatlashtirish orqali unda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish mumkin;

- shaxsda anglangan maqsadni bo‘lishi uni borgan sari to‘laqonli ijtimoiylashuviga, boy tajriba yig‘ishiga, qa’tiyat, matonat, sabr, jasorat, jur’at, o‘ziga ishonch va o‘z imkoniyatiga to‘g‘ri baho berish kabi xususiyatlarni shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bu kabi psixologik mexanizmlarning normal rivojlanib borishi shaxsda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin;

- shaxsning ideallari bo‘lishi unda anglangan maqsad va manfaatli yo‘nalganlikni yuzaga keltirib, ular shaxsni keljakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq va yaqinga mo‘ljallangan rejalarini amalga oshirishga tayyorligini ta’minlaydi;

- shaxsning dunyoqarashi - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallahsga chorlaydi. Bu psixologik mexanizmni normal shakllanishi shaxslarda insonparvarlik, umuminsoniylik, bag‘rikenglik, sobitqadamlilik, ijtimoiy faollik, daxldorlik, ma’suliyatlilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bu kabi fazilatlarni shaxsda barqaror shakllanishi esa uning mafkuraviy immunitet tizimini mustahkamlanishiga olib keladi;

-shaxsning e’tiqodi uning xulq-atvorining eng muhi motivlaridan biri hisoblanib, bunda shaxsni o‘z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda qarorga kelishga undaydigan muhim motivlar tizimi vazifasini o‘taydi, shu bilan birga u shaxsning shunday ongli yo‘nalishiki, unga o‘z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon berishi ta’kidlanadi. E’tiqod mafkuraviy immun tizimini asosiy tarkibiy qismlarida biri hisoblanadi. Shunday eka ushbu psixologik mexanizmning ham sog‘lom va to‘g‘ri shakllanishi shaxsning mafkuraviy immun tizimini barqarorlashiga olib kelishi mumkin;

-sof psixologik ma’noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi hamda o‘zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustakovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob’ektlarni, ijtimoiy guruahlarni ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir. Demak shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy xodisalarga nisbatan munosabat (*psixologik mexanimlari kesimida tasniflanishi atrof muhitda bo‘layotgan xodisalarni tushunilishiga ko‘ra anglagan yoki angloymagan, inkos etilishiga ko‘ra aktiv yoki passiv, ahamiyatiga ko‘ra daxldor yoki loqayd, baho berilishiga ko‘ra past, real, yuqori, tahlil qilinishiga ko‘ra introrizatsiya yoki ektrorizatsiyalashgan*) bildirishda uning siyosiy, huquqiy, ma’naviy, aqliy, hayotiy bilimlarining namayon qila olishi kabilar ham ahamiyatlidir. Shu bois ham ushbu psixologik mexanizmni to‘g‘ri qaror topishi bizningcha mafkuraviy immun tizimini shakllanishiga zamin hozirlaydi.

“Men” konsepsiysi shaxsda mafkuraviy immunitet ta’minlovchi mexanizm

Bugungi kundagi global muammolar orasida ko‘zga ko‘rinmaydigan, ko‘rinishidan sodda, hech ham ahamiyatga molik emasdek tuyuladigan, aslida esa inson ongini zabit qiladigan, o‘zi bilmagan holda uning mafkurasiga ruhiyatiga ta’sir eta oladigan, munosabatlar tizimini, milliy qadriyatlar, milliy o‘zligiga hamda madaniy tuzilmasiga zarba berib insonda o‘zgacha yot qiyofani namayon qila oladigan ayrim axborot ta’sirlari mavjud ekanligi hech kimga sir emas. Shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv jarayonlarida o‘ziga xos bir qancha ijobiy sifatlar bilan birga insoniyatni buzg‘unchilikka, vayronkorlikka, axloqsizlikka, zo‘ravonlikka, Vatansizlikka, xudbinlikka chorlayotgan yot g‘oya va mafkuralar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga har zamonda xavf solib turmoqda. Shu boisdan biz shaxslarda barqaror mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlik tizimini shakllantirishda ularning “Men” konsepsiyasini, o‘zligini anglashning psixologik xususiyatlari, psixologik himoya mexanizmlarini tanqidiy va chuqurroq ko‘rib chiqishni maqsad qildik.

Aytish joizki, hozirgi kunda davlatimiz tomonidan asosiy e’tibor inson huquq va manfaatlariga qaratilganligi diqqatga sazovordir va yuqorida muammolarni yechishda o‘ziga xos cheksiz imkoniyatdir. Inson mohiyati, ma’naviy qadriyati, ruhiyati, Olloh in’om etgan borliqning oliy ne’mati deb ataladi. Ana shuning uchun O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimizda... inson va uning manfaatlarini qo‘ydik. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, deb insonning barkamolligiga e’tiborni qaratadi. Buning asosida respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faoliyatimizda inson, uning hayoti, ruhiy va ma’naviy barkamolligi, ichki imkoniyatlari va qobiliyatini amalga oshirish hamda to‘laqonli yashashi uchun g‘amxo‘rlik yotadi” [1]

Shaxsning to‘laqonli jamiyat a’zosi bo‘lib shakllanishi, bunyodkor va vayronkor g‘oyalarni ajrata olishi, yot buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar tahdidiga berilmasligida uning o‘zligini bilishi va anglashi o‘ta muhim masaladir. Zero, buning zamirida inson ongi va

ongsizlik holatlari o‘zining sa’y-harakatlari va pirovard maqsadini to‘la anglab yetishi, o‘zini o‘zi anglash kabi muhim psixologik mexanizmlar yotadi. Agarda ong materianing yuksak taraqqiy etgan shakli sifatida faqat insongagina xos ekan, uning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishi haqidagi malakali bilimga ega bo‘lish, kishilarni xohlagan yo‘sinda boshqarish imkonini beradi. Bu esa har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Shu sababli kishilar avval o‘zligini bilishi nafaqat o‘zining ichki ruhiy olami bilan hamsuhbat bo‘lishi, balki atrofidagi voqeа va hodisalarga nisbatan muloqot va munosabatini to‘g‘ri uyushtirishi, uyg‘oq bo‘lishi zarur. Ana shunday muloqot natijasi o‘laroq hayotdagi o‘rnini, yashashning asl mohiyatini, o‘zligini to‘g‘ri tushunib, anglay boshlaydi. Bu qonuniyat esa shaxslarning yot, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarni ilg‘ay olish va ularga qarshi himoyalananish, qarshi kurash, axborotni saralay olish kabi mafkuraviy immun tizimini shakllanishini yuzaga keltiradi.

Yunon faylasufi Platon: “Kishilar o‘zligini bilishi uchun u o‘zining davlatini, mamlakatini bilmog‘i zarurdir, ana shundagina u o‘zini ana shu davlatining, jamiyatining, madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini anglab yetadi”, - deb ta’kidlaydi[6]. Demak, kishi muayyan jamiyat va madaniyatga mansubligini bilishi va anglashi tufayli o‘zini to‘laqonli his qiladi, borligicha nomoyon etadi, jamiyat qonunlari va an’alarini o‘zida o‘zlashtiradi, ularga amal qiladi. Shuning zamirida kishilarning individual va ijtimoiy ongi shakllanib boradi, undagi “Men” tushunchasi asta-sekin “Biz” tushunchasi tomon siljishi kuzatiladi.

Ma’lumki, shaxs taraqqiyoti o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini qamrab oladi. Aynan mazkur jarayonda shaxsning o‘z-o‘zini anglash tizimi va psixologik himoya mexanizmlarini to‘g‘ri shakllanishi shaxslarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishini garovidir. Ayniqsa, himoya mexanizmlari va shaxsdagi “Men” konsepsiyasining tarkib topishi ularni jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlab berish bilan birga har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz.

Shaxsda “Men” konsepsiyasini shakllanishi va uning himoya mexanizmlari bilan bog‘liqligi masalasi qator psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilindi. Xususan, shaxsning himoya mexanizmlari masalasi doirasida F.V. Bassin, 1969; B.V. Zeygarnik, 2003; E.T. Sokolova, 1989; A.A. Nalchadjyan, 1988; E.N. Kirshbaum, 2000;

R.A. Zacheptsikiy, 1984; A. A.Shev, 1983; Z. Freyd, 1980; A. Freyd, 1993; E. Fromm, 1990; R. Plutchik, 1980; H. Kellerman, 1980, “Men” konsepsiysi masalasi A.I.Alekseyev, I.V.Dubrovina, M.I.Lisina, Yu.G.Pilipychenko, L.A.Alekseyeva, B.N.Almazov, T.P.Gavrilova, V.A.Gureva, N.I.Gutkina, V.N.Drujinin, V.G.Kazanskaya, B.S.Kruglov, T.M.Mishina, T.V.Pozdeyeva, A.S.Spivakovskaya, O.N.Usanova, O.N.Shaxovskaya, T.V.Shevchenko va boshqalar tomonidan qator tadqiqot ishlari o’tkazilgan hamda ilmiy-amaliy ma’lumotlar to‘plangan.

O‘zbek psixologlaridan M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.R.Baratov, N.S.Safaev, Z.T.Nishonova, M.M.Mamatov, G.Q.To‘laganova, Z.X.Abdurahmonova, O‘.B.Shamsiev, E.M.Muxtorov, K.Raximova, N.I.Xalilova, N.D.Qosimova, M.T.Isanova, U.A.Qosimov, B.M.Botirov, D.M.Anvarova, pedagoglardan M.Q.Quronov, O.Musurmonova, M.Maxmudov, Z.Qosimova, M.Abdujabborova, M.Yuldasheva, Sh.Akramovalarning muammo doirasida olib borgan tadqiqotlari ham ahamiyatga molikdir.

Shaxsda “Men” siymosini shakllanishi muammosi psixologiyadagi asosiy masalalardan sanaladi. Aynan shaxsda “Men” siymosini shakllanishiga doir ilmiy nazariy bilimlar xorij psixologlari tomonidan atroflicha tahlil qilib kelinmoqda.

Hozirgi zamon psixologiyasi fanida “Men” siymosini shakllanishining tabiatini tushuntirishda, talqin qilishda ikki xil yondashish mavjud bo‘lib, ular bir-biridan keskin darajada tafovutlanib turadi. Birinchi yondashishga qaraganda, o‘zini o‘zi anglash bu o‘z yo‘nalishini o‘zgartirgan ongning aynan o‘zidir. Xuddi shu bois u inson ongingining maxsus ko‘rinishi demakdir. Ushbu talqin rus psixologiyasida keng tarqalgan nazariya bo‘lib, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, E.V.Shohorova, I.I. Chesnakov, V.V.Stolin va ularning shogirdlari tomonidan ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilib kelinmoqda.

Bu sohadagi ikkinchi mulohaza S.L. Rubinshteynning ilmiy ishlarida o‘z asosini topgan bo‘lib, keyingi davrlarda uning shogirdi K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan o’tkazilgan izlanishlarda izchil ravishda rivojlantirilmoqda. Uning fikriga binoan ongni va o‘zini o‘zi anglash jismoniy real hamda yuridik shaxsga taalluqli xususiyatlardan iborat bo‘lib, ular uning hayoti va faoliyatini vosita yoki “qurol” sifatida tayanib turuvchi ruhiy jayayondir.

L.S.Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o‘zini o‘zi anglash turli xil ma’nolar o‘rtasida birlikni vujudga keltirish jarayoni sifatida va o‘zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo‘ladi. A.N. Leontev talqiniga qaraganda, individual (yakka shaxsga oid) ongdagi mohiyati bilan mazmun o‘rtasidagi ziddiyat o‘zini o‘zi anglashning bosh sababchisidir. A.N. Leontevning shogirdi V.V.Stolinnning ta’kidlashicha, o‘zini o‘zi anglashning asosida “Men”likning mazmunlari o‘rtasidagi ziddiyat yotadi.

S.L.Rubinshteyn tadqiqotlariga asoslanib o‘zini o‘zi anglash muammosini tadqiq etishga asosiy diqqat e’tiborini eng avvalo uning subektiga ya’ni inson shaxsiga qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu fikrni boshqacha so‘z bilan ifodalanganda o‘zini o‘zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo‘lmasdan balki insonning tarkib topishi va rivojlanishi yashash sharoiti yotadi. Shu o‘rinda ushbu qarash shaxslarda mafkuraviy immunitetni shakllanishi ham ma’lum darajada shaxsni ijtimoiy shartlanganlik darajalari bilan bog‘liq degan farazni yuzaga keltiradi. S.L. Rubinshteyn aks ettirish faoliyatining maxsus shartini aniqlash uning subekt to‘g‘risidagi muammoni hal qilishni muayyan yo‘l yo‘riqlari va oqilona usullarga asoslanuvchi yechimni talab qiladi[3].

Zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan “Men” konsepsiyasi unitar hodisa emas, balki shaxsni o‘z “Men”ini unikalligini qayd qiluvchi o‘zi haqidagi tasavvurlar tizimidir. Shunga bog‘liq holda “Men” konsepsiyasining tarkibi va o‘zini o‘zi anglash hamda “Men” konsepsiyasi o‘rtasidagi farq nimada degan muhim savol tug‘iladi. O‘zini o‘zi anglash katerogiyasini U.Djems o‘zining “Psixologiya prinsiplari” nomli asarida atroflicha tushuntirishga harakat qilgan. U o‘zini o‘zi anglashni umumiylit miqdori sifatida aniqlagan unga o‘zi haqidagi fikrlar kayfiyati va holat, real va noreal mansubliklar kiradi deb ta’kidlaydi. Djems moddiy, ma’naviy, ijtimoiy o‘zini o‘zi anglash va sof “Men”ni ajratib ko‘rsatadi. U o‘zini o‘zi anglashning ikkita jihatini ajratib ko‘rsatadi: anglanayotgan o‘zlik (Men) va angangan o‘zlik (Men) Men insonni shu yerda va hozirni anglash. Meniki esa avvalgilarni anganganlik jarayoni.

Ch.Kuli aynan o‘zlik degan tushunchasini kiritgan. Uning nuqtai nazaridan o‘zlik “Men” va “Meniki” tushunchalarini ajratib ko‘rsatadi.

Bruno nuqtai nazaridan o‘zini anglash birinchidan, makon va vaqtda taqdim etilgan unikal shaxsni bildiradi. Ikkinchidan, o‘zini o‘zi anglash o‘zgacha “Men” uning shaxsini anglatadi.

Uchinchidan, o‘z identivligini his qilishni namoyon etadi.

M.Rozberg “Men” konsepsiyasini quyidagi holatlarini ajratishni taklif qilgan.

1. “Men” konsepsiyasini tarkibiy qismlari ya’ni tilda ot va sifat bilan ataluvchi qismi elementlarning birlik tasavvurlaridir.

2. Tuzilishi ya’ni elementlar o‘rtasidagi o‘zaro faoliyat va munosabatlaridir. Asosiy e’tibor elementlarni ierarxiyasiga qaratilishi lozim. Bunda barcha tarkibiy qismlar bir xil emas. Ulardan ba’zilari birlamchi, ba’zilari ikkilamchi sanaladi.

3. O‘lchamlari ya’ni “Men” konsepsiyasini tavsiflovchi sifatlar. O‘lchamlar sifatida o‘z-o‘ziga baho “Men” konsepsiyasini barqarorligi o‘ziga ishonch va boshqalarni kiritish mumkin.

4. Markaziylikni aks ettiruvchi diqqat fokuslari individni aniq vaziyatda anglashi sohasi sifatida. U men konsepsiyasini individ ongidagi joylashuvini aniqlashga yordam beradi: uning diqqati o‘ziga qaratilganmi yoki tashqi dunyogami, u o‘zining ichki sifatlari yoki o‘zini nomoyish etish xususiyatlarini o‘ylaydimi va boshqalar.

5. Men-konsepsiyasini sohalari “ong” va “ongsizlikni”, “ichki” va “tashqi”, “autentik” va “noautentlik” tegishli bo‘lgan sohalarni o‘z ichiga oladi[8].

6. “Men” konsepsiyasini anganganlik darajalari. Bu jarayonga “Real Men”, “Ideal-Men”, “Yaqqol Men”, “fantastik Men”, “axloqiy Men” “bajaruvchi-Men” va boshqalar kiradi[5].

7. Motivlari ya’ni “Men” konsepsiyasini qiziqishlarida ma’lum harakatlarga intilishi. “Men” konsepsiyasini yetakchi motivlari o‘ziga hurmat va mas’uliyatlilik hisoblanadi[7].

“Men” konsepsiysi nafaqat biz kimligimizni balki kelajakda kim bo‘lishimiz mumkinligini ham o‘z ichiga oladi. Ular o‘z faoliyatiga biz o‘zimizni xayollarimizda qanday kiritishimizni, ya’ni boy “Men”, sevimli “Men” va boshqalarni qamraydi. Shuningdek, ishsiz “Men”, kasal “Men”, omadsiz “Men” kabi qo‘rqadigan menlarimizni ham kiritadi.

Insonning o‘ziga munosabati hech qachon neytral bo‘lmaydi, chunki emotsiyal tonallik, yo‘nalganlik va tuyg‘ularning senzitivligi bilan belgilanadi. O‘ziga nisbatan ijobjiy munosabat insonning

psixologik sog‘lomlik darajasi bilan shartlanadi. Insonlar o‘zini o‘zi tasdiqlash, o‘zini ijobiy xususiyatlarini nomoyon qilish istagidagi shaxsdir. Psixolog K.Rodjersning ta’kidlashicha, inson qanchalik o‘zini qabul qilsa, boshqa shaxslarni qabul qilish ehtimoli ham shunchalik baland bo‘ladi.

Muammo doirasida ijobiy va salbiy konsepsiyanı shaxslarga xos xususiyatlarni tavsiflab o‘tamiz, ijobiy “Men” konsepsiysi shakllangan shaxslarga quyidagilar o‘zini ahamiyatlilagini ko‘rsatish hissi, faoliyatni bajara olish qobiliyatiga ishonch, fikr-o‘ylarini egiluvchanligi, bunyodkor g‘oyalarga otlanuvchiligi bilan harakterlanadi.

Bunday insonlar o‘zlaridagi qobiliyatlarga ishonadilar hamda turli yet, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga qarshi kurasha oladilar.

O‘ziga nisbatan real baho va o‘ziga ishonch hissi ijobiy Men-konsepsiysi shaxsni o‘z-o‘zini tasdiqlashga yordam beradi.

Salbiy “Men” konsepsiyalı shaxslarni ikki harakterli tipini ajratamiz:

Birinchi tip barqaror “Men”ini his qilmaydigan insonni namoyish etadi. U o‘zining kimligini, kuchli va kuchsiz tomonlarini, hayotdagi maqsadini bilmaydi. Bunday kishilar buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga qarshi tura olmaydilar, oqibatda bu g‘oyalarni qurbaniga aylanadilar.

Ikkinci tip tashqi tomondan birinchi tipga qarama-qarshidir. Bu vaziyatda “Men” konsepsiysi o‘ta barqaror va tashkilotchi hisoblanadi. Salbiy “Men” konsepsiyasida shaxs o‘zi haqidagi ayrim bir real ma’lumotlarni qabul qilishni xoxlamaydi. Shuning uchun u ko‘pinchi depressiv holatni keltirib chiqaradi. Shunday qilib “Men” konsepsiysi shaxsni o‘zi haqidagi bilimlarini va o‘zini qanday baholashi kabi sifatlarni birlashtiradi. U nafaqat ongli balki ongsiz darajada ham mavjud bo‘lib, ongsiz tasavvurlarni insonni o‘ziga nisbatan ustakovkalarni bildiradi.

Men konsepsiysi 3 ta asosiy tarkibiy qismlarga ajratiladi: *kognitiv*, *emotsional-bahoviy* va *xulq-atvor*. Bu tarkibiy qism ham shaxslardagi mafkuraviy immunitet tizimini shakllanish qonuniyatini belgilab beradi[4].

1. *Men kognitiv tarkibi yoki Men obrazi*. Individni o‘zi haqidagi tasavvurlari, odadta ular obektiv bilish yoki subektiv fikrlarga

tayanmasada unga ishonchli tuyuladi. Inson tomonidan qabul qilinayotgan predmetlari uning tanasi, qobiliyatları, ijtimoiy munosabatlari va boshqa shaxsiy xususiyatlari bo‘lishi mumkin. Men obrazini shakllanishiga olib keluvchi o‘zini o‘zi qabul qilishni aniq uslublari turlicha bo‘lishi mumkin. O‘zini o‘zi tasvirlaydigan shaxs odatda mustahkam, muloqotchan, kuchli, chiroyli va boshqa sifatlarini qo‘llaydi.

2. “Men” konsepsiyasini emotsiional - bahoviy tomoni yoki o‘z-o‘ziga baho. Insonni o‘ziga bo‘lgan munosabati yoki alohida jihatlariga bahosini aks ettiradi hamda o‘z-o‘ziga hurmatda o‘ziga nisbatan bahosi va ishonchlilik darajasini nomoyish qiladi. Emotsional bahoviy komponent fundamentini o‘z-o‘ziga hurmat yoki o‘zini o‘zi qadri tashkil qiladi. O‘ziga nisbatan hurmat- bu o‘z kuchi, imkoniyatlariga ishonch, o‘zini o‘zi qabul qilish, o‘zini sevish kabilarning jamlanmasidir. O‘zini o‘zi baholash tushunchasida birinchi o‘ringa aynan bahoviy tarkibiy qism chiqadi. O‘zini o‘zi baholash- bu eng avvalo shaxsni o‘zini umumiyligini qabul qilishi hamda alohida jihatlarini anglashi va boshqa odamlar bilan munosabatidir.

O‘z-o‘ziga baho inson oldiga qo‘yadigan maqsadlarining murakkabligi bilan bog‘liq. U qaysi yutuqlarini omad, qaysilarini omadsizlik deb qabul qiladi. O‘z-o‘ziga bahoning shakllanishi bir qancha manbalarini ajratish mumkin. Ular shaxs shakllanishida turli bosqichlarida o‘z ahamiyatini o‘zgartiradi:

- o‘zga odamlarni baholaydi;
- o‘zga ahamiyatlilar davrasi yoki referent guruh;
- o‘zgalar bilan aktual taqqoslash;
- real va ideal Menni taqqoslash;
- o‘z faoliyatlarini natijalarini o‘lchash;

O‘z-o‘ziga baho o‘z harakatlarini boshqarishning tashkil qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘z-o‘ziga baho berishsiz hayotdagagi o‘rnini aniqlash juda qiyin. O‘z-o‘ziga to‘g‘ri baho insonga axloqiy xotirjamlikni beradi va uning insoniyligini qo‘llab- quvvatlanadi. Shu o‘rinda insonning o‘z-o‘zini to‘g‘ri, real baholay olishi, uning mafkuraviy immun tizimini barqaror shakllanganligini ham asosidir.

3. “Men” konsepsiyasini shaxs xulq-atvorini tashuvchisi. Men obrazi va o‘z-o‘ziga baho berish orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan harakatlar manbai xulq-atvor reaksiyalaridan iborat. U o‘zini o‘zi boshqara olishi, mustaqil qaror qabul qila olishi, o‘z harakatlarini

boshqarishni nazorat qilishga javob bera olishni aniqlaydi. Unda hayotni insonga taqdim qilayotgan qiyinchiliklarni hal qila olishi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha olishida namoyon bo‘ladi.

Men konsepsiyasini asosiy o‘lchami xulq-atvorda, tashqi yoki ichki nazoratga yo‘nalganligini aniqlash hisoblanadi. Tashqi nazoratga yo‘nalgan shaxs odatda atrofdagilarning fikriga asoslansa, ichki nazoratga yo‘nalgan shaxs esa avvalo o‘ziga bo‘lgan munosabatiga tayanadi. Bu o‘rinda salbiy g‘oyalarga beriluvchanlikni psixologik mexanizmlarini ham tahlil qilish mumkin.

“Men” konsepsiyasi insonning hayotiy malakasi, uning faoliyati boshqa shaxslarni unga munosabati ta’sirida ham shakllanadi. Munosabatlar qanchalik yaqin bo‘lsa ular shunchalik emotsiyal jihatdan bog‘lanadi hamda shunchalik shaxsga ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’kidlash joizki, har qaysi “Men” obraqi murakkab tizimga ega va namoyon bo‘lishiga ko‘ra munosabatlarning uch jihatidan iborat. Ya’ni jismoniy, emotsiyal, aqliy va ijtimoiy “Men”.

Shu tariqa “Men” konsepsiyasi insonni o‘zi haqidagi tasavvurlarni ishonchlilagini aks ettirib o‘z ichiga xulq-atvorni baholash an’analarini oladi. Shunga asosan uni o‘ziga yo‘naltirilgan har bir insonga xos bo‘lgan ustakovkalar to‘plami sifatida ko‘rishimiz mumkin.

“Men” konsepsiyasi individning boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatisiz shakllanmaydi. Ba’zida boshqalar insonning o‘zini o‘zi his qilishi va tushunishini hamkorlikdagi ishlab chiqaruvchisi sifatida ham ko‘rinishi mumkin. Boshqa vaziyatlarda ichki dialoglarda shunchaki sherikchilik roli bilan cheklanib qoladilar. “Men” konsepsiyasi borasidagi ko‘plab tadqiqotchilar bir fikrini ilgari suradilar ya’ni amaliy jihatdan “Sof Men”ni shaxslararo ajratib bo‘lmaydi.

“Men-boshqalar” hamkorligining quyidagi jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz:

1. “Men”ni ijtimoiy tuzilishida atrofdagilarning roli. Bu tizimda shaxslararo Men fikrlar, tuyg‘ular, atrofdagilarning xulq-atvori. Men konsepsiyasi bilan shu qadar integratsiyalanadiki, individ ularni o‘ziniki deb qabul qila boshlaydi. Shu o‘rinda mafkuraviy immunitet shakllanishida ijtimoiy voqelikdagi ijtimoiy normalarni shaxs tomonidan qay darajada anglaganlik darajasi ham muhim omil hisoblanadi.

2. Men konsepsiyasining shakllanishi va evolyusiyasida atrofdagilarning roli, boshqalarning tasavvurlari “Men” konsepsiyasiga kiritiladi va “Men”ni motivatsiyasi rivojlanishining nazorati va himoyasida qo’llaniladi. Bu do’sting maslahati, ko’pni ko’rgan tarbiya borasida katta tajribaga ega bo’lgan kishilarning fikri bo’lishi ham mumkin.

3. Atrofdagilar “Men” konsepsiyasini qismi sifatida. Bu sohadagi atrofdagilarning tasavvurlari ayniqsa, avval, hozir yoki kelajakdagi munosabatlarda sheriklarning “Men”ini qismi sifatida qaraladi.

Psixoanalitik shaxs nazariyasida **affekt-jarohat modeli** alohida o’rin tutadi. Bu modelga ko’ra ilk bolalikdagi jarohatli hodisalar yosh bola shaxsi tomonidan hazm qilina olmasligi tufayli bevosita psixik buzilishiga, psixik jarohatlanishga olib keladi. Yetkazilgan jarohat keyingi taraqqiyotda sezilarli buzilishlariga sabab bo’ladigan iz qoldiradi.

Bu zarar g’amxo’rlikning yetishmasligi, bola qarovsizligi, nazoratsizligi jarohatlovchi hodisalarning ko’pligida bo’lib, uning natijasida ularda xavotirli hayajonlanish, reaktiv g’azab kabi xususiyatlarni shakllanishiga olib kelinadi. Bu xodisa Z.Freydni talqinicha ong ostida saqlanib keyinchalik shaxsning faoliyatidan boshqa ob’ekt va sub’ektlarga proeksiyalanishi (ko’chirilishi) mumkin (Misol tariqasida bolalikda olishi kerak bo’lgan pozitivni energiyalar yetishmovchiligi, katalikda o’sha shaxsni insoniyatga, jamiyatga, millatga, davlatga nisbatan negativni pozisisini shakllanishiga olib keladi).

Bu affektlar ba’zan ochiq namoyon bo’lmasligi yoki intreriozatsiyalaniham mumkin. Shunda ular “taraqqiyotning tormozlanishi” ga yoki “bolalar nevrozlari” ga, keyinroq esa ta’limda qiyinchiliklarni vujudga kelishiga, o’zlashtirishdan orqada qolish, tarbiyasi qiyinlik, ijtimoiylashuvda qiyinchilik, jamiyatda o’z o’rnini topishga pstimistik yondashuv, loqayd, beparvo, dangasa, masuliyatsiz. Ijtimoiy rol va normalarni anglamaslik kabi xususiyatlarga sabab bo’lishi mumkin.

Ushbu model bo‘yicha reallikka nisbatan shaxs kichik tizimining uchta qatlami faol harakat qiladi: “U”, “Yuqori-Men” va “Men”. Boshqacha aytganda “U”- bu “Id” ong osti yoki ongsizlik sohasi, instinkтив mayllar to’plami, “Men”- “Ego”, shaxs, ong. “Yuqori-Men”, “Super-Ego”, ijtimoiy axloq, xatti-harakat normalari, ijtimoiy

ong, xulq. “U” ongsizlik sohasidan iborat, uning hukmron tamoyili “Lazzatlanish” tamoyili bo‘lib, siyosatda bu anarxiya ko‘rinishida maydonga chiqadi.

“Yuqori-Men” da norma va qadriyatlar lokalizatsiya qilingan. Bular tarbiya va ota-onal etalon “matrisasi, ota-onal tomonidan bolaga singdiriladigan xulq-atvor shakllarining” natijasidir.

“Men”-“Yuqori-Men” va “U” tomonidan ezib siqib qo‘yilgan. “U” va “Yuqori-Men” o‘rtasida ongsiz aloqalar mavjud.

“Men” “U” va “Yuqori-Men” ga nisbatan anchagina murakkab holatda, u har ikkala tomonidan eziladi. “U” o‘z maqsad, extiyolari va aggressiv impulslarni qondirish uchun “Men” ga tazyiq o‘tkazadi. Lekin ularni qondirish o‘smirga ota-onal tomonidan katta tashvish keltiradi. Ikkinchisi tomonidan “Yuqori-Men” ijtimoiy ahloq me’yorlari va qonunlarini bajarishni talab qiladi. Agar aytilganlarga dolzarb voqelikning “Men” ga ta’sir qiluvchi omillari ham qo‘shilsa, bunday shaxs “Men” ining ahvoli anchagina fojiali bo‘lib qoladi.

Agar “Men” ni bolalik va nevrotik buzilishlardan holi, a’lo darajada taraqqiy etgan, yetuk “Men” sifatida tasavvur qilinsa, holat ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Bunday “Men” ong egasi bo‘lib, “U” dan esadigan instinktlar shamoli va “Yuqori –Men” da joylashgan ta’qiq va qoidalar o‘rtasida vositachi hisoblanadi. Bundan tashqari “Men” nazorat, qayta nazorat va qaror qabul qilish organi hisoblanadi, u “U” bilan “Yuqori -Men” dan chiqadigan talablarni tergov va tahlil qiladi. “Men” u yoki bu qarorni tekshiradi, natijada yo ma’qullaydi yoki rad qiladi. Qaror ongli ravishda qabul qilinsa “Men” ustun, ongsiz qabul qilinsa boshqaruv “U” hukumronligiga o‘tadi. Shu bilan birga instinktiv istak yoki “Yuqori-Men” ning buyrug‘ini bajarish kechroq muddatga surilishi mumkin.

Kompromiss (murosa) qisman voz kechish yoki ijtimoiy jihatdan mumkin shaklda qisman qondirish yoki “sublimatsiya-energiyaning bir turining, masalan, seksual energiyaning boshqa turiga, masalan ijtimoiy faollikka yo‘naltirilishi” ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bunday qulay vaziyatda “U” ning barcha kuchlari “Men” ning ixtiyorida bo‘ladi.

Shuning uchun “Men” o‘zini hukmi o‘tadigan, boyitiladigan deb his qiladi, chunki o‘zini aks ettirayotgan erotik, hissiy va ehtirosli mayllar uning o‘ziga bog‘langan.

“Yuqori-Men” ga nisbatan ham “Men” avtonom holatda, chunki “Yuqori-Men” tomonidan ilgari surilayotgan ta’qiqllovchi vaziyatlarga amal qilish kerak yoki kerak emasligini u o‘zi ongli ravishda hal qiladi. “Men” u yoki bu bid’atning maqsadga muvofiqligini tanqidiy qayta tekshiradi, bid’at ongli fikr-e’tiqodga aylanadi.

“Ideal” ham “Men” bilan muvofiq munosabatlarda bo‘ladi. “Men” “Idealni” amalga oshirishning real imkoniyatlarini baholaydi va unga yetishish yo‘llarini tanlaydi. Boshqacha aytganda, u qat’iy harakat bilan idelga yaqinlashish kerakmi yoki idealni realikka tenglashtirish kerakmi degan masalani mustaqil hal qiladi.

Yetuk shaxsning “Men”, “U”, “Yuqori-Men” va “”Ideali bir-biridan ajratilgan bo‘lib, bolalar yoki nevrotiklarga o‘xshab og‘ir ziddiyatlarga tortilmagan. “Men” shaxs taraqqiyoti sifatida hayot jarayonida “U” va “Yuqori-Men” sohalarini to‘la o‘zlashtirib olguncha ko‘plab o‘zgarishlarga va qiyinchiliklarga uchrashi muqarrar.

Freyd tili bilan aytganda, shundan so‘nggina “U” bo‘lgan joyda “Men” bo‘ladi. “Yuqori-Men” “Men” ga xo‘jayinlik qilmay qo‘yadi, uning qatoridan joy oladi. shuning uchun ham psixoanalizda “Men” shaxs tushunchasiga teng, Freyd “Men” ga shaxs ruhiy jarayonlarining bog‘lovchi tashkiloti deb qaragan.

Shu o‘rinda Platon foydalangan chavandoz va armug‘oq misolini keltirish o‘rinli. Tasavvur qilish mumkinki, otni minishda tajribasi yo‘q bola otga bo‘ysunadi, mohir chavandoz esa otning kuchidan o‘z manfatlari yo‘lida foydalanadi.

Bu misol ikkita muqobil xulosani ilgari suradi: chavandoz otni boshqara olsa, uning kuchi “Men”, ot kuchining bir qismi hisobiga ko‘payadi, aks holda chavandoz “Men” mag‘lubiyatga uchraydi, o‘zini ojiz, kuchsiz, ot (“U”) ning ixtiyoriga butunlay bo‘ysungan deb his qiladi.

Demak yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib mulohaza qiladigan bo‘lsak, biz shaxsda mafkuraviy immunitet shakllantirishda “U”, “Yuqori-Men” va “Men” modellaridagi psixologik mexanizmlarni ham to‘g‘ri qaror toptirishimiz maqsadga muvofiqli.

Bizning tahlilimizcha buzg‘unchi “ommaviy madaniyat” ishlab chiqaruvchilar shaxsning “U” modeliga yoqadigan xo‘raklardan foydalanib ularni boshqarish xususiyatlariga ega bo‘lmoqdalar. “U” ga imkoniyat berilgan sari u kuchayib boradi. Oqibatda “Men” va “Ego

Men” ni o‘z vakolatlaridan mahrum qilib boshqaruvni o‘z qo‘liga oladi. “U” hukmronligi vaqtida shaxsda xudbinlik, zo‘ravonlik, behayolik, o‘zi istagan narsaga onsonlik va yaqin yo‘l bilan erishish, burchsizlik, ma’suliyatsizlik, loqaydlik kabi illatlar hukumronlik qiladi.

Bu kabi illatlarni avj olishi shaxsni ma’naviy tanazzulga uchratishi muqarrar va bu ayrim bir buzg‘unchi maqsadlarga ega oqimlar uchun ayni muddao bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan biz shaxsda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda albatta shaxsning psixologik mexanizmlarini normal shakllanishini nazorat qilib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlar tahlilidan kelib chiqib tadqiqotimizga **xulosa** qiladigan bo‘lsak, shaxsdagi “Men” konsepsiyasi shakllanish psixologik mexanizmlarini to‘g‘ri qaror toptirish shaxslarda yot, g‘ayriinsoniy, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga nisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishining asosiy garovidir. Shuningdek, mazkur jarayonni qanday kechishi shaxsning yashayotgan muhiti, o‘zligini qay darajada anglashi, atrofidagi insonlari hamda o‘z o‘ziga bo‘lgan munosabatlar tizimi ham muhim rol o‘ynaydi.

2. O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini tadqiq qilish usullari

Ma’lumki, o‘smir hayotida va uning barkamol bo‘lib tarbiyalanishida, hamda har qanday yot, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralardan saqlanish, himoyalanishda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tadqiq qilish jarayoni o‘smir va uning xulq-atvori, ma’naviy taraqqiyotidagi ijtimoiy-psixologik uyg‘unliknita’minalash uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy tadbirlar ko‘lamini ishlab chiqish imkonini beradi. Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili (bu haqda I bobda batafsил bayon etilgan) va o‘z kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy-tadqiqiy mulohazalar bugungi kunda uzluksiz talimning barcha bosqichlarida tahsil olayotgan o‘quvchilarda mafkuraviy immunitet shakllanish jarayonini o‘rganishni va tadqiq qilishni taqozo qilmoqda. Buning uchun esa, dastavval, mafkuraviy immunitet shakllanishdagi psixologik omillar va mezonlar ko‘lamini belgilash va ularning har birini chuqr

o‘rganish uchun tegishli usullarini yoki uslublarini tanlash va ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi.

Mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari har bir shaxsdagi faoliyat jarayonida sodir bo‘luvchi ijtimoiylashuv jarayoni, shaxs komponentlari kognitiv, xulq-atvor belgilari, irodaviy emotsiyal holatlari, psixologik himoya mexanizmlari, tayanch e’tiqodlar tuzilmasi, qadriyatları tizimi, motivasiyon yo‘nalishlari, ehtiyojlar ierarxiyasi bilan muvofiqlashtiriladigan va bir-biriga yaqinlashtirib “tenglashtiriladigan” jarayonlarning kechishi bilan bevosita bog‘liq.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan psixologik tuzilmalarga asoslanib, o‘z tadqiqotimizda o‘smirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik mezonlari tizimini ishlab chiqdik va shu tizim asosida o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini o‘rgandik, tahlil qildik va tegishli xulosalar chiqarishga harakat qildik.

Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili va o‘z kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy tadqiqiy mulohazalar bugungi kunda yoshlarimizda ayniqsa o‘smirlik yoshida barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini atroficha tadqiq qilishni taqazo qilmoqda. Buning uchun esa, dastavval mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalari va omillari, mezonlari ko‘lamini belgilash va ularning har birini chuqr o‘rganish uchun tegishli usullarni yoki uslublarni tanlash va ishlab chiqishga to‘g‘ri keldi. Shunga ko‘ra, ko‘p yillik tajribalarimiz va tegishli ilmiy adabiyotlar ustida olib borilgan tahlillarimizga asoslanib, mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini aniqlashga yo‘naltirilgan maxsus ierarxik tizim – sxema ishlab chiqildi hamda ushbu tizim asosida mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari va uni tadqiq qilish uslubi belgilandi.

Endi, har bir usulning tadqiqot maqsadiga mos mazmuni va tadqiq qilish uslubi haqida qisqacha izoh berib o‘tamiz.

I. Kellerman-Plutchikning “Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so‘rovnomasi” va uning tadqiqot maqsadiga mosligi

Mafkuraviy immunitet shakllanishining asosiy omillaridan biri shaxsning ongiva ong osti tuzilmalari ekanligini nazardan qochirmagan holda, biz tadqiqotimizda aynan shaxsning psixologik

himoya tiplarini o‘rganishga qaror qildik. Ilmiy adabiyotlarda shaxsning psixologik himoya tiplarini aniqlashga qaratilgan juda ko‘p usullar, testlar qayd etilgan. Biz shular ichidan barchaga ma’lum va mashhur psixologlar Kellerman-Plutchikning “Psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so‘rovnoması” imkoniyatlaridan foydalanishni lozim topdik.

Mazkur metod shaxsda ustunlik qiladigan psixologik himoya mexanizmlarini o‘rganadi. Bizningcha, psixologik himoya mexanizmlaridan ayrimlarining shaxsda barqaror shakllanganligi ulardagi mafkuraviy immunitet shakllanishiga zamin hozirlashi mumkin.

Bizning tadqiqotimizgacha quyidagi tadqiqotchilarining psixologik himoya mexanizmlarini o‘zlarining tadqiqot maqsadiga ko‘ra guruhlashtirganligi psixologik himoya mexanizmlarini mafkuraviy immunitet shakllanishiga ta’siriga ko‘ra ijobiy va salbiy guruhlarga ajratishimizga asos bo‘ldi.

Jumladan, Z.Freyd [168;169], A.Freyd [170], K.Yung [185], A.Adler [35], K.Xornilar [167] o‘z tadqiqotlarida psixologik himoya mexanizmlarini birinchilardan bo‘lib guruhlarga bo‘lib o‘rganishgan. Ya’ni R.Plutchik, X.Kellerman, X.Kontelar kabilar himoya mexanizmlarini **birlamchi va ikilamchi** guruhlarga bo‘lib o‘rgangan. M.Volovik va V.Vid kabilar esa psixologik himoya mexanizmlarini **passiv va faol turlarga ajratib tadqiq etishgan** [58, 26-28 s.]. Yu.Klubova psixologik himoya mexanizmlarini **ko‘p va oz darajadagi yetuklik turlariga** bo‘lib o‘rgangan [59]. Biz o‘z tadqiqotimizda psixologik himoya mexanizmlarining tarkibiy sifatlari, mafkuraviy immunitet shakllanishi va rivojlanishiga ta’siriga ko‘ra **ijobiy va salbiy** guruhlarga bo‘lib o‘rgandik.

Usulni qo‘llash tartibi

So‘rovnoma 97 savoldan iborat.Natijalarni qayta ishlash. 8 ta ego himoya mexanizmlari 8 ta shkalani hosil qilib, ularning har biriga alohida ta’kidlar to‘g‘ri keladi. Har bir psixologik himoya mexanizmlari bo‘yicha natijalar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi: $n/N \times 100\%$, bu yerda n – ushbu himoya mexanizmlari bo‘yicha berilgan ijobiy javoblar soni, N – ushbu shkalaga mansub barcha ta’kidlar soni. Shunda psixologik himoya mexanizmlarining umumiyl yuklamasi quyidagicha hisoblanadi $n/97 \times 100\%$, bu yerda n

–himoya mexanizmlari bo‘yicha berilgan ijobiy javoblar umumiy sonidir.

Ishni bajarish tartibi: eksperiment individual yoki guruhiy shaklda o‘tkazilishi mumkin. Eksperimentator tekshiriluvchilarga quyidagi yo‘riqnomaga bilan murojaat etadi:

Yo‘riqnomaga: Test savollariga javob berishda birinchi paydo bo‘lgan fikrni qayd eting, ortiqcha fikr mulohaza yuritmang. Testda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob mavjud emas. Test savolnomasidagi vaziyatlari hayotingizda qanchalik darajada uchrashiga e’tibor bering. Imkon qadar savollarga ochiq javob berishga harakat qiling. Savollarga javoblar variantining mos kelishi yoki kelmasligiga qarab, “Ha” va “Yo‘q” tarzda javob berish mumkin.

Ma’lumotlarning birlamchi qayta ishlanishi

1. Test talablari asosida har bir respondent uchun xarakterli bo‘lgan (yoki empirik jihatdan to‘plangan) ballar miqdori ta’kidlar raqamlariga mos yoki mos emasligiga qarab aniqlanadi.

2. Aniqlangan shartli ballar miqdori test shkalasidagi kalitlar bo‘yicha joylashtiriladi.

3. Har bir ob’ekt respondentlaridan olingan ballar miqdori yuqori, o‘rtacha, past ko‘rsatkichlar majmuasiga birlashtirilib, o‘rtacha-umumiy foizlar miqdorining tipik ko‘rinishlari belgilanadi.

4. Har bir empirik jihatdan o‘rganilgan ob’ektlar uchun xarakterli bo‘lgan oraliq diapazonlari hamda umumiy ko‘rsatkichlar ko‘lami qiyosiy tarzda tahlil qilinadi.

Ma’lumotlarning ikkilamchi qayta ishlanishi

Uzluksiz ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘smir yoshlar misolida olingan psixologik himoya mexanizmlarining ustunligiga qarab mafkuraviy immunitet shakllanishiga zamin hozirlaydigan yoki unga to‘sinqinlik qiladigan himoya mexanizmlari ko‘rsatkichlari maxsus korrelyatsion tahlil talablari asosida qaytadan ko‘rib chiqiladi va maxsus belgilangan jadvallarga kiritiladi.

1. Mavjud empirik ma’lumotlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari va ma’lumotlarning validligi, ishonchlilik qiymati maxsus qabul qilingan statistik mezonlar yordamida qaytadan ko‘rib chiqiladi. Natijalar SPSS dasturi talablariga mos ravishda taqdim etiladi.

2. Yig‘ilgan keng ko‘lamli ma’lumotlarning matematik-statistik natijalariga tayanib tadqiqot maqsadiga mos umumiyl qonuniyatlar aniqlanadi va shu asosda tegishli empirik xulosalar chiqariladi.

Testning kaliti

Himoya mexanizmlarining nomi va ta’kidlar raqami.

1. Inkor etish: 1, 16, 22, 28, 34, 42, 51, 61, 68, 77, 82, 90, 94 – **13 ta.**
2. Siqib chiqarish: 6, 11, 19, 25, 35, 43, 49, 59, 66, 75, 85, 89 – **12 ta.**
3. Regressiya: 2, 14, 18, 26, 33, 48, 50, 58, 69, 78, 86, 88, 93, 95 – **14 ta.**
4. Kompensatsiya: 3, 10, 24, 29, 37, 45, 52, 64, 65, 74 – **10 ta.**
5. Proeksiya: 7, 9, 23, 27, 38, 41, 55, 63, 71, 73, 84, 92, 96 – **13 ta.**
6. O‘rin almashtirish: 8, 15, 20, 31, 40, 47, 54, 60, 67, 76, 83, 91, 97 – **13 ta.**
7. Rasionalizatsiya: 4, 13, 17, 30, 36, 44, 56, 62, 70, 80, 81, 87 – **12 ta.**
8. Reaktiv tuzilma: 5, 12, 21, 32, 39, 46, 53, 57, 72, 79 – **10 ta.**

Proeksiya psixologik himoya mexanizmi – bu individ o‘zining ongli darajada rad etuvchi fikr, tuyg‘u, motiv va istaklarni boshqa shaxs yoki ob’ektga o‘tkazish, o‘zini qismaslik qo‘rquvi bilan kurashishni uddalay olish hamda boshqalarni rad etuvchi harakatiga javoban chaqiriladigan psixologik mexanizm.

Kompensatsiya psixologik himoya mexanizmida real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish harakati ustun. Bu mexanizm yana shu jihat bilan ahamiyat kasb etadiki, shaxsning ongsiz ravishda o‘z kamchiliklarini yengib o‘tishi, bunyodkor maqsadlarga erishishda, yutish va yutqazish, omad va omadsizliklar o‘rtasidagi aloqadorlikni asoslashga xizmat qiladi.

Faol rasionalizatsiyaga ega bo‘lgan o‘smir shaxsi shunchalik tartibli (o‘ta rasmiyatchi), asosiy e’tiborlarini tartibga qaratuvchi, juda sinchkov, vijdonli, harakatlarni amalga oshirishda rejaga qat’iy rioya qiluvchi, ishning yuqori sifatli va alohida tartibli bo‘lishiga yo‘nalgan, o‘zlarini tez-tez tekshirib turishga, bajarilgan ishlari to‘g‘riligiga shubhalanishga moyil xususiyatlarni o‘zlarida shakllantirgan bo‘ladi. Juda yuqori darajada, umumiyl *internallik*, ahamiyatli vaziyatlar ustidan yuqori darajada sub’ektiv nazorat

xususiyatiga ega bo‘ladilar. Bunday o‘smirlar ko‘plab muhim hodisalar ularning shaxsiy harakatlari natijasi deb hisoblaydilar, ular mazkur hodisalarda o‘z mas’uliyatini his etib, ularni o‘zlari boshqara oladilar, deb biladilar. Rasionalizatsiya do‘stlar bilan, oilaviy muammolar va ona bilan munosabatlardagi muammolar mavjudligi sababli faollashadi. Ko‘rish mumkinki, himoya mexanizmlari xulq-atvor strategiyasini belgilab beradi. Yetakchi psixologik himoya mexanizmiga bog‘liq holda hayotning murakkab vaziyatlarida yuzaga keladigan ma’lum bir muammolar haqida gapira olamiz. Insonga xos xarakter xususiyatlari shakllanib borishida himoya mexanizmi qanday rol o‘ynashi uning o‘zi uchun muhim vaziyatlarni qanday qabul qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Reaktiv tuzilma – bu himoya mexanizmni anglash uchun to‘g‘ri kelmaydigan mayl, istak va tuyg‘ularni (ayniqsa, jinsiy va agressiv) ma’no jihatdan unga qarama-qarshi munosabat yoki harakatlarni rivojlantirish yoki urg‘u berish yo‘li bilan almashtiradi. Bu himoya mexanizmini rivojlantirishni odam “oliy ijtimoiy (axloqiy) qadriyatlarni” o‘zlashtirishi bilan bog‘laydilar. Reaktiv psixologik himoya mexanizmi xursandchilik emotsiyalarini ushlab turish uchun qo‘llaniladi. Bu mexanizm harakatdagi to‘g‘ri, qarama-qarshi ustakovkalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Inkor etish psixologik himoya mexanizmida – xulq-atvorlarida faol inkor etish xususiyatini namoyon etayotgan yigit va qizlarga chaqqonlik, harakatchanlik, muloqot o‘rnatishda yengillik xususiyati xos bo‘ladi. Ularga xayolparastlik, o‘z shaxsiyatini ko‘pirtirib, bo‘rttirib ko‘rsatishga yo‘naltirilgan mug‘ombirlik va yolg‘onchilik, ayyorlik, artistizm, quruq savlatlilik xos bo‘ladi. Ular affektiv hissiyotlarga beriluvchan, labil bo‘lib, emotsiyalarini boy ehtirosli holatlarni yorqin namoyon etish bilan ajralib turadilar, bo‘layotgan vogelikka sezgir va keng ifodalangan ekspressiyaga ega bo‘ladilar.

Siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi – bu o‘smirlardagi yoqimsiz fikr, istak yoki tuyg‘ularni ongsiz, beixtiyor ravishda chiqarib tashlash jarayoni, motivasion unutish hamdir (Z.Freyd talqinida). Bu mexanizmning faoliyati xavotirlikni pasaytirish jarayoni yetarli bo‘lmaganda hamda siqib chiqarilgan ma’lumotni buzilgan holda anglashga yordam beruvchi boshqa himoya mexanizmlari ishga tushadi:

a) siqib chiqarishdan siljish. Bu kombinatsiya faollik reaksiyalarining yuzaga kelishiga yordam beradi. Jumladan, ona kichkina qizining og‘ir kasallik bilan og‘rib qolishidan qo‘rqishi va siqib chiqarishi hamda siljish mexanizmi tarkibida bo‘lgan bolaga nisbatan dushmanlikka qarshi himoyani ifodalaydi;

b) siqib chiqarishda konversiya(somatik simvolli) – bu kombinatsiya isterik reaksiyalar asosini paydo qiladi.

Regressiya – muammoli vaziyatlarda avvalgi yoki yetishmagan (bolalikdagi) istak va harakatlarning qoniqish shakliga qaytishidir. Regressiya qisman to‘liq yoki simvolik bo‘lishi mumkin. Muammoni yordam so‘rash oqibatida hal qilish “regressiya” sinfiga xos. Ushbu mexanizm xavotirlikning kamayishini talab qiluvchi, mumkin bo‘lmagan istak orqali kelib chiqadi. Regressiv xulq ko‘p hollarda kattalar tomonidan taqdirlanadi hamda simbiotik emotsiyal munosabatlarni talab qiladi. M.V.Volovik va V.D.Vid [58] himoyani passiv va faolga ajratishni taklif qilib, faolga – rad etish, passivga – regressiyani kiritishni taklif qiladilar. Bu mexanizm ko‘proq muammoli jarayonga nisatan munosabatni ifodalaydi.

O‘rin almashinish psixologik himoya mexanizmi – agar o‘rin almashinish himoyaning yetakchi turi bo‘lsa, unda shunday xarakterli o‘smirda ezilish, ruhan tushkunlik kayfiyati, lanjlik, iroda kuchining zaifligi xos bo‘ladi.

Psixologik himoyaning mazkur turi amalga oshirilmagan imkoniyatlar mavjudligida faollahadi, o‘zidan yuqori turuvchi shaxslar bilan munosabatlarda o‘z kelajagi va o‘tmishiga salbiy baho bilan baholanadi.

1. Test natijalariga asoslanib, har bir respondentda qaysi psixologik himoya mexanizmlari ustuvorlik qilishi to‘g‘risida ma’lumot olindi.

2. Olingan ma’lumotlar qo‘shimcha usullar va maxsus tuzilgan “so‘rovnama” (dissertant tomonidan) natijalar bilan taqqoslanib tegishli xulosalar chiqarilgandan so‘ng psixologik himoya mexanizmlari va mafkuraviy immunitet uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi adekvat va noadekvat ko‘rsatkichlar ko‘lami belgilandi.

3. Belgilangan ko‘rsatkichlarning haqqoniyligi yana bir karra qo‘shimcha tadbirlar orqali tasdiqlangandan so‘ng respondentlar

uchun xarakterli bo‘lgan yuqori, o‘rtacha, past darajadagi ko‘rsatkichlar jadvaliga kiritildi.

II. S.R.Panteleyev va V.V.Stolin tomonidan Dj.Rotter shkalasini modifikatsiya qilish asosida ishlab chiqilgan “Sub’ektiv nazorat lokusi xususiyatlarini o‘rganish” so‘rovnomasasi va uning tadqiqot maqsadiga mosligi:

Mazkur metod Dj.Rotter tomonidan quyidagicha izohlanadi. Agar odam ichki lokus nazoratiga ega bo‘lsa, bunday odamlarni internallar deb atashadi. U o‘zini hayotining yaratuvchisidek his qiladi. ***Internallar boshqalarni ta’siriga unchalik tushmaydilar***, agar ularni boshqarishga bo‘lgan urinishni sezishsa, bunga nisabatan o‘z qarshiliklarini ko‘rsatadilar. Nazorat ostida ishlagandan ko‘ra, yolg‘izlikda yaxshiroq ishlaydilar va shaxsiy erkinlik yo‘qligini qiyin kechirishadi.

O‘zi bilan sodir bo‘layotgan holat va jarayonlarni tashqi, o‘z ixtiyorida bo‘lmagan kuchlar, odamlar ta’siri natijasi, deb biladigan insonlarni eksternal deb atashadi. Ular sodir bo‘layotgan hodisalarining hammasini qabul qilishga yo‘nalgan bo‘ladi.

Bunday kayfiyatdagi insonlar ijodiy hayotda internallar kabi yuqori cho‘qqilarni egallamasa-da, yechimi murakkab bo‘lgan muammolarni o‘ziga olmaydi. Eksternallar komformli qonunga rioya etadilar, ***atrofdagilar ta’siri va bosimiga tushadilar***, yolg‘izlikdan ko‘ra odamlar bilan birgalikda yaxshiroq ishlaydilar. Ular o‘z faoliyatini tashkil etishda qiynalishadi, rejalashtirishda, asosan, tashqi talabni inobatga oladilar.

Lokus nazorat insonning atrofdagilar bilan munosabatini qanday qurishi bilan uzviy bog‘liq. Qoida bo‘yicha internallar o‘ziga ishongan, guruhda mashhur va eksternallarga qaraganda sabrliroq. Internallarda o‘z sog‘ligiga nisbatan faol munosabat aniqlangan: ular sog‘ligining xususiyatlarini yaxshiroq bilishadi, o‘ziga qarashadi va profilaktik yordamga ko‘proq murojaat qiladilar. Eksternallik esa aksincha, tushkun kayfiyat sog‘ligi uchun xavotir bilan tavsiflanadi.

Ko‘p yillar davomida lokus nazorat shaxsning barqaror tavsifnomasi uzoq vaqt saqlab qolnidanigan va uning hayot sohalaridagi hamma yutuq va muvaffaqiyatsizliklari sog‘liq, o‘qish, ish, oila, do‘srtlari bilan munosabatlariga aloqador deb qaralgan. Ammo keyinchalik, lokus nazorat odam hayotiga ta’sir etishning real imkoniyatlariga qarab o‘zgarishi mumkinligi aniqlanadi [127].

Odamga xos lokus nazoratning mantiqiy oqibati frustratsiya vaziyatidagi xulq-atvori hisoblanadi. S.Rozensveyg bo‘lishi mumkin bo‘lgan reaksiyalarning 3 ta yo‘nalishini ajratadi: interapunitiv reaksiya – o‘zini ayplash, ekstrapunitiv reaksiya – atrofdagi odamlar va tashqi vaziyatlarga yo‘nalgan hamda impunitiv nizodan chetlashuv va uning mazmunini hisobga olmaydigan reaksiyalar [135,150-172-b.].

Shaxs sub’ektiv nazorati darajasini aniqlash metodikasi inson qalbida yoki tashqarida bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda (lokus nazoratning internal ko‘rinishi) odam jamiki bo‘lib o‘tgan narsalar, boshdan kechirganlarining sababchisi sifatida o‘zini tasavvur qiladi, ko‘rgan-kechirganlari o‘zining harakatlari, intilishlari, istaklari, kuchi va irodasiga bog‘liq ekanligini biladi. Ikkinci holatda esa (eksternal nazorat lokusi) odam taqdiri va hayoti tashqi holatlarga – taqdirga, omadga, boshqa odamlarga bog‘liqday. SNDning ko‘rsatkichi inson o‘z kuchiga ishonchi (yoki ishonmasligi), afzalliliklari, bo‘lib o‘tgan hodisa yoki natijalarga nisbatan mas’uliyati, o‘zini hurmat qilishi, ijtimoiy yetukligi va **mustaqilligini** bildiradi [127].

Xorijda bu metodika Dj.Rotterning nazorat lokusini aniqlash shkalasi sifatida taniqlidir. Nazorat lokusi deganda, asosan, insonning o‘z hayotida kechayotgan o‘zgarishlarga nisbatan javobgarligi, ya’ni inson hayotidagi o‘zgarishlarga o‘zini sababchi deb bilishi yoki bu o‘zgarishlarni tashqi faktorlar (boshqa insonlar, tasodif, taqdir) bilan bog‘lashi tushuniladi. Shunga ko‘ra, lokus nazorat 2 tipga: internallik va eksternallikka ajratiladi. Inson hayoti davomidagi ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlarni o‘z kuchi, harakati bilan bog‘lasa, bu o‘zgarishlarga javobgarlikni his etsa, bunday inson qisqa tarzda “internal” deb baholanadi. O‘z hayotidagi o‘zgarishlariga omad, atrofidagi insonlar, tashqi ta’sir sabab deb o‘ylaydigan, bu o‘zgarishlarda faqat atrofdagilarni sababchi qiladigan insonlar “eksternallar” toifasiga kiritiladi.

Sub’ektiv nazorat darajasini aniqlash so‘rovnomasiga turli vaziyatlarda qo‘llanilgan. Ye.F.Bajin [51, 152-153-b.] boshchiligidagi bir necha mualliflar bu metodikani tibbiyot psixologiyasida qo‘llash uchun moslashtirganlar. Ularni, asosan, individning nazorat lokusi, uning o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi qiziqtirgan. Sub’ektiv nazorat darajasini aniqlash metodikasining mualliflari uning ishonch darajasi

juda yuqori ekanligini ta'kidlaydilar. Nazorat lokusi inson xulq-atvorining ko'pgina jihatlarini "tartibga solib" turadi, u shaxslararo munosabatning shakllanishida, shaxsiy inqiroz vaziyatlarda to'g'ri yechimga kelishda yetakchi rol o'ynaydi, degan fikrda asos mavjud [127].

Metodikani qo'llash uslubi

Mazkur so'rovnoma S.R.Panteleyev va V.V.Stolin tomonidan Dj.Rotter shkalasini modifikatsiya qilish asosida ishlab chiqilgan bo'lib, sub'ektiv lokal nazoratning ustun turini aniqlash uchun xizmat qiladi [127]. So'rovnoma 32 ta band (26 ta haqiqiy va 6 ta chalg'ituvchi band)dan iborat.

Sub'ektiv nazorat lokal ko'rsatkichi sinaluvchi internal lokus nazorat darajasini o'lchashga xizmat qiluvchi bandlar bo'yicha to'plagan ball asosida hisoblab topiladi. Bunda 26 ball maksimal darajadagi eksternal nazoratga muvofiq keladi.

III. Yanov-Bulmanning tayanch e'tiqodlar shkalasi va uning tadqiqot maqsadiga mosligi

Ushbu so'rovnoma kognitiv konsepsiylar doirasida shaxsning tayanch e'tiqodlarini aniqlashga qaratilgan. Unga ko'ra, normal insonga xos hislardan biri xotirjamlik, har qanday xavfdan xolilikdir. Amerikalik psixolog **Yanov-Bulmanning** fikriga ko'ra, bazaviy e'tiqodlar 3ta kategoriyadan iborat bo'lib, bizning sub'ektiv olamimiz yadrosi hisoblanadi [187]. **Yanov-Bulman** bazaviy e'tiqodlar shkalasini diagnostika qilish maqsadida ishlab chiqqan bu shkala 8ta kategoriyadan iborat:

- 1) Dunyoni anglashga bo'lgan munosabat.
- 2) Insonlarning yaxshiligiga ishonch.
- 3) Hayotning odilligiga ishonch.
- 4) Hayotning boshqaruvchanligi ishonch.
- 5) Tasodif bo'layotgan voqealarni taqsimlanish tamoyili sifatida bilish.
- 6) O'z "Men"ining qadr-qimmatini yuqori qo'yish.
- 7) O'zini o'zi boshqarish darjasasi.
- 8) Omad darjasasi.

8 ta shkalaga yuqoridagi 4 mulohaza to'g'ri keladi. Har bir shkalaning mazmuni o'rtacha arifmetik qiymatga qarab aniqlanadi. Tasdiq ballar sinaluvchi belgilagan "+" larga qarab o'lchanadi.

Birlamchi tasdiqlangan kategoriyalar yuqoridagi 3ta umumlashma yo‘nalishga qarab baholanadi:

1. Atrof-muhitga va dunyoga (BW va BP) bo‘lgan ijobiy munosabatlar o‘rtasidagi arifmetik qiymat yordamida topiladi (hayotning go‘zalligi va insonlarning yaxshiligi);

2. Hayotni anglashga, voqealarning adolatliligiga bo‘lgan munosabat J (hayot adolati), C (hayotni boshqarish) va reversiv R (tasodif) o‘rtasidagi o‘rtacha arifmetik qiymat yordamida aniqlanadi.

3. Shaxs qadriyatlari, omadga bo‘lgan munosabat SW (“Men”ning qadri), SC (o‘zini o‘zi nazorat qilish) va L (omad)

Kalit:

BW - 5, 9, 25, 30

BP - 2, 4, 12, 26

J - 1, 7, 14, 19

C - 11, 20, 22, 29

R - 3, 6, 15, 24

SW - 8, 18, 28, 31

SC - 13, 17, 23, 27

L - 10, 16, 21, 32

Ushbu so‘rvnoma turli darajadagi jarohatlar olgan o‘smirlar guruhlarining qadriyatlар tizimini hamda ularning mafkuraviy qarashlarini ham baholashga yordam beradi. U individual faoliyatda ham qo‘llanilishi mumkin. Agar qaysidir shkala bo‘yicha natijalar juda past ko‘rsatkichni qayd qilsa, respondentga yordam berishda bu, albatta, hisobga olinishi zarur. Barcha shkalalar bo‘yicha normal ko‘rsatkich o‘rtachadan sal yuqori, ya’ni 3,5 balldan kam emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hayotga, atrofdagi odamlarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan ijobiy munosabat psixik muvozanatni bir me'yorda saqlashga va hayot tarzining yaxshilanishiga katta yordam berishi yoki aksincha, mazkur jarayonlarga munosabatning yomonligi va pastligi, shaxs psixikasida muvozanatning buzilishi oqibatida xulq-atvoridagi og‘ishlar, ishonchsizlik, e’tiqodsizlik asosida shaxsda salbiy illatlarning kuchayishi mumkinligi kuzatildi.

Ma’lumotlarning ikkilamchi qayta ishlanishi

Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim olayotgan o‘smirlar misolida olingan tayanch e’tiqodlar so‘rvnomasining ko‘rsatkichlari maxsus korrelyatsion tahlil talablari asosida qaytadan ko‘rib chiqiladi va maxsus belgilangan jadvallarga kiritiladi.

1. Mavjud empirik ma'lumotlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari va ma'lumotlarning validligi, ishonchlilik qiymati maxsus qabul qilingan statistik mezonlar yordamida qaytadan ko'rib chiqiladi. Natijalar SPSS dasturi talablariga mos ravishda taqdim etiladi.

2. Yig'ilgan keng ko'lamli ma'lumotlarning matematik-statistik natijalariga tayanib tadqiqot maqsadiga mos umumiyligi qonuniyatlar aniqlanadi va shu asosda tegishli empirik xulosalar chiqariladi.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda psixologik himoya tiplari, tayanch e'tiqodlar, psixologik xususiyatlar va mafkuraviy immunitet shakllanish uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni o'rganishga qaratilgan usullar bugungi kunda o'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish jarayonlarini o'rganish, tadqiq qilish va tadqiqot maqsadiga mos ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

IV. Sh.Baratov, X.Jabborov “O'quvchilarining tahidlardan xabardorlik darajalarini baholash” so'rovnomasini va uning tadqiqot maqsadiga mosligi

Mafkuraviy, g'oyaviy va informasiyon kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi 2017 yil 28 iyuldagagi 3160-sonli qarorida [7] keltirilganidek, dunyoda yuz berayotgan murakkab giosiyosiy va g'oyavfiy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib berish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa **tashqi tahidlarga** qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish; jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan **ichki tahdidlar** – el-yurt taqdiriga loqaydlik,

mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy qilish, ayniqsa, muhim.

Shunday ekan, bunday vaziyatda milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan ma’naviy tahdidlar mohiyatini ochib berish, murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy tahlil qilish hamda baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma’naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo‘yicha ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta’minlashga qaratilgan sotsiologik, psixologik tadqiqotlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish, yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishni ko‘zda tutmog‘imiz lozim.

Ana shu vazifalar ijrosidan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan hamkorlikda bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni, yoshlarni tahidlardan xabardorlik va mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish va zarur tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan “Aholining tahidlardan xabardorlik darajasini baholash”, “Tahdidlar narvoni” kabi so‘rovnomalari ishlab chiqildi. Mazkur so‘rovnomalari nafaqat ushbu tadqiqot muammolarini hal qilish, balki Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazida “Hududlardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit xaritasi” metodikasini ishlab chiqish uchun ham xizmat qildi. Hududlarda mazkur ijtimoiy psixologik so‘rovnomalarni o‘tkazish ishlari 2 yo‘nalishda olib borildi:

1. **Birinchi yo‘nalish** – 2017 yil 18-23 sentabr kunlari Buxoro, Surxondaryo, Farg‘ona hamda Toshkent viloyatlarida o‘tkazildi.

Mazkur yo‘nalishda aholining ichki va tashqi tahdidlardan xabardorlik darajasi, mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalari va o‘smirlar orasidagi huquqbuzarlikka qarshi profilaktik ishlar samaradorligi aniqlandi;

2. Ikkinchি yo‘nalish – 2017 yil 10-16 noyabr kunlari Respublikaning 14 ta hududa olib borildi. Mazkur yo‘nalishdi 14 ta hudduddan – tumanlardagi bittadan mahallalar va ta’lim muassasalari kesimida har bir xonodon hamda har bir mакtabning 5-9-sinf o‘quvchilari orasida ijtimoy-ma’naviy muhit holatining sog‘lomligini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy psixologik so‘rovnama o‘tkazilib, belgilangan ko‘rsatkichlar qayd etib borildi.

So‘rovnomanning maqsadi: Hududlar kesimida (mahallalar, tuman, shahar) ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini aniqlash hamda aholining turli qatlam vakillari ongi va qalbiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, milliy va umuminsoniy ma’naviy mezonlarga zid bo‘lgan ichki va tashqi tahdidlarning turi, maqsadi, mazmuni va ta’sir kuchini aniqlash assosida tahdidlarning oldini olish, zararsizlantirish va mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish bo‘yicha maqsadli va manzilli “Yo‘l xaritalari”ni yaratish.

So‘rovnomanning asosiy vazifalari:

- hududlar (tuman, shahar) kesimida aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi tahdidlarni o‘rganish va darajalarini aniqlab, “Hududlardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit xaritasi”da aks ettirish;
- mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarining tizimli monitoringini amalga oshirish;
- o‘smirlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan innovation, ta’sirchan psixologik metodlarni ishlab chiqish;
- aniqlangan tahdidlar darajasidan kelib chiqib, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatiga maqsad-manzilli tavsiyalar berish;
- o‘smirlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan kompleks ilmiy-amaliy, ijtimoiy psixologik dasturlar ishlab chiqish.


3. O'smirlarda mafkuraviy immunitet namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari

Tadqiqotimiz davomida mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan metodlarni tadqiqot maqsadidan kelib chiqib uch holat, ya'ni, yosh, jins, hudud kesimida tahlil qilishga ham urinib ko'rdik (1-jadval).

1-jadval

Kellerman-Plutchik metodi orqali o'smirlarning regressiya psixologik himoya mexanizmini jinsiy farqi quyidagicha natijani qayd qildi

Psixologik himoya mexanizm tipi	Jinsi	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darajas i
Regressiya	qiz bolalar	490	6,5633	2,29454	3,61 9	,000
	o'g'il bolalar	510	6,0235	2,42114		



1-rasm. Kellerman-Plutchik metodi orqali o'smirlarning regressiya psixologik himoya mexanizmini jinsiy farqi bo'yicha ko'rsatkichlari

Biz tadqiqot davomida o'g'il bolalar va qizlarning psixologik himoya mexanizmlarida tafovutlar mavjudmi yoki yo'q degan holatlarga quyidagicha javob oldik. Regressiya psixologik himoya mexanizmi bo'yicha ishonch darajasidagi farqlarni kuzatdik ($t=3,619; p>0,001$). Regressiya psixologik himoya mexanizmiga moyillik o'g'il bolalarga nisbatan qizlarda yuqori ekan. Psixologik himoya mexanizmida regressiya holatlari moslashish holatlarini ongsiz holatda idrok qilinishi bilan bog'liqdir. Qizlarda emotsiyonal holatlar regressiv xarakterga egaligini ko'rsatdi. Qizlarda emotsiyonal

holatlarni o‘zlariga olish va emotsiyal holatlardan foydalanish yuqoriligi qayd qilindi, ular ma’lum bir muammoga duch kelib qolsalar regressiya darajasini oshishi bilan chiqib ketar ekanlar, masalan yosh bolalarga xos bo‘lgan xususiyatlarni namoyon qilishi bilan. O‘g‘il bolalarda esa bu holatlar qizlarga nisbatan past, ya’ni ular regressiyaga murojaat qilmasligi ma’lum bo‘ldi.


O‘smirlarning Reaktiv tuzilmapsixologik himoya mexanizmida ham ishonch darajasidagi jins tafovutlari kuzatildi ($t=1,963$; $p<0,05$) (2 – jadval)

2-jadval

Kellerman-Plutchik metodi orqali o‘smirlarning reaktiv tuzilma psixologik himoya mexanizmini jinsiy farqi quyidagicha natijani qayd qildi

Psixologik himoya mexanizm tipi	Jinsi	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	Ishonch darajasi
Reaktiv tuzilma	qiz bolalar	490	6,6245	1,66947	1,96 3	,050
	o‘g‘il bolalar	510	6,4137	1,72563		

2-rasm



2-rasm. Kellerman-Plutchik metodi orqali o‘smirlarning reaktiv tuzilma psixologik himoya mexanizmini jinsiy farqi bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Mazkur himoya mexanizmida ham o‘g‘il bolalarga nisbatan qizlarda yuqori ko‘rsatkichlar qayd qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Bu mexanizm o‘zi ikki bosqichada amalga oshiriladi. Birinchi istalmagan holatlari siqib chiqariladi so‘ngra inkor qilinadi,

masalan himoyani kuchaytirish inkor etish holatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qiz bolalarda bu holatlar o'g'il bolalarga nisbatan yaqqolroq ko'rinar ekan. Ma'lumotlar tahlil qilinganida qiz bolalarda psixologik himoya o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriqoq bo'lishi ma'lum bo'ldi, bu asaosan qizlarga nisbatan yuqori nazorat bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'g'il bolalar va qizlarning natijalarini tahlil qilganda boshqa shkalar bo'yicha ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi, ya'ni psixologik himoya, tayanch e'tiqodlari, tahdidlardan xabardorlik holatlari jins bilan farqlanmas ekanligini ko'rsatdi, ya'ni o'g'il bolalar ham qizlar ham bu fikrlarga birdek munosabatda bo'lar ekanlar.

O'smirlarning psixologik himoya mexanizmlarini hududlar bo'yicha farqlari o'rganilganda ishonchli farqlar kuzatildi, biz hududlar bo'yicha ikkita shaharni qamrab oldik Buxoro va Toshkent shahri o'smirlari (3-jadval).



3-rasm. Psixologik himoya mexanizmlarining hududiy farqlari

3-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining hududiy farqlari

Psixologik himoya mexanizmi tiplari	Hudud	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darajasi
inkor etish	Toshkent	465	8,1333	2,14844	-,577	,564
	Buxoro	535	8,2037	1,70853		
siqib chiqarish	Toshkent	465	5,6688	2,19570	6,513	,000
	Buxoro	535	4,7981	2,02983		

regressiya	Toshkent	465	6,3462	2,28246	,727	,468
	Buxoro	535	6,2374	2,45211		
kompensatsiya	Toshkent	465	6,6473	1,89723	-,129	,897
	Buxoro	535	6,6617	1,56493		
proeksiya	Toshkent	465	8,9312	2,11001	7,689	,000
	Buxoro	535	9,8991	1,87060		
o‘rin almashadirish	Toshkent	465	5,6409	2,34935	,909	,364
	Buxoro	535	5,5103	2,19281		
rasionalizatsiya	Toshkent	465	7,2731	1,58951	1,599	,110
	Buxoro	535	7,4449	1,78010		
reaktiv tuzilma	Toshkent	465	6,2280	1,61475	- 5,072	,000
	Buxoro	535	6,7682	1,73489		

Hududlar bo‘yicha ikkita shahar qamrab olindi: Buxoro va Toshkent. Huddudlar bo‘yicha psixologik himoya mexanizmini kuzatganimizda Toshkentlik o‘smirlarda Buxorolik o‘smirlarga nisbatan siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi yuqoriligi namoyon bo‘ldi ($t=6,513$; $p<0,001$). Bu jarayonni ongsiz ravishda qabul qilinmaydigan g‘oyalarni inkor qilinish hodisasi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotlar o‘smirlarda proeksiya psixologik himoya mexanizmi bo‘yicha ham ishonch darajadagi farqlarni kuzatish imkonini berdi ($t=7,689$; $p<0,001$). Proeksiya psixologik himoya mexanizmi - bu boshqa insonga yoki ob‘ektga nisbatan fikrlarning ko‘chishidir, masalan, hissiyot, motivlar, istaklar buni individ ongli holatda inkor qilishi mumkin. Proeksiya psixologik mexanizmining noaniq shakllari odatiy hayotda namoyon bo‘lishi mumkin, ko‘pgina o‘smir o‘g‘il bolalar va qizlar o‘zlarining kamchilik va nuqsonlariga nisbatan tanqidiy nazar tashlay olmaydilar, biroq boshqalarning kamchiliklarini osonlik bilan aniqlaydilar. Shu tufayli proeksiya psixologik himoya mexanizmi zarar keltiruvchi bo‘lishi mumkin.

O'tkazilgan hududiy tadqiqotlar proeksiya psixologik himoya mexanizmining Buxorolik o'smirlarda Toshkentlik o'smirlarga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi. Mazkur holat proeksiya himoya mexanizmi yuqori bo'lgan Buxorolik o'smirlarda nizoli vaziyatlardan ko'r - ko'rona xulosa chiqarish va bunga o'z izohini berishning yuqori ekanligini, Toshkentlik o'smirlarda esa bunday vaziyatlarda asosan, dalillarga tayanish holatlari ustun ekanligini namoyon qildi.

Tadqiqotlar reaktiv tuzilma psixologik himoya mexanizmini ham Buxorolik o'smirlarda yuqoriligini ko'rsatdi ($t=5,072$; $p<0,001$). Buxorolik o'smirlarda istalmagan holatlari siqib chiqarilar ekan, so'ngra inkor qilinadi, masalan, himoyani kuchaytirish inkor etish holatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Demak, tayanch e'tiqodlarning shakllanishiga o'smirlarning qaysi hududda yashayotganligi ta'sir ko'rsatar ekan. **Insonlarning yaxshiligiga** ($t=4,251$; $p<0,001$) ishonish tayanch e'tiqod shkalasi Buxorolik o'smirlarda yuqoriligini ko'rsatdi, ya'ni Buxorolik o'smirlar insonlar har doim yaxshilik qiladi deb ko'proq ishonishar ekan, Toshkentlik o'smirlar esa bunga shubha bilan qarashlari ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi rasmdan ko'rinish turibdiki, **hayotning odilli** tayanch e'tiqod shkalasiga ham Buxorolik o'smirlar Toshkentlik o'smirlarga nisbatan ko'proq ishonishar ekan ($t=2,998$; $p<0,01$). Toshkentlik o'smirlarda bu holatga nisbatan o'z shubha gumonlari mavjudligi qayd qilindi. **Hayotning boshqariluvchanligi** tayanch e'tiqod shkalasi bo'yicha ham Buxorolik o'smirlarning natijalari yuqori chiqdi ($t=7,882$; $p<0,001$). **Tasodiflar** tayanch e'tiqod shkalasiga ham Buxorolik o'smirlar ko'p ishonishlari ma'lum bo'ldi ($t=4,888$; $p<0,001$).

Demak yuqoridagi dalillar o'smirlarni qanchalik kichik hududda yashasa, ularning tayanch e'tiqodlari shunchalik sobit bo'lishini, aksincha o'smirlar qanchalik katta hududda yashasa ularning e'tiqodida sust munosabatlar shakllanishi mumkinligini namoyon qildi. Mazkur holatni katta hududlarda tashqi tasirlarning (internet, ijtimoiy tarmoqlar va ota-onalar nazoratining sustligi) ko'pligi omili bilan izohlash mumkin.

Bu holatlarni keyingi jadvalda yaqqolroq kuzatishimiz mumkin (4-jadval).

4-jadval


**Yanov-Bulmanning “Tayanch e’tiqodlar” metodikasining
shkalalar kesimida hududiy farqlarini namoyon bo‘lishi**

Tayanch e’tiqodlar shkalasi	Hudud	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	Ishonch darajasi
dunyoni bilish	Toshkent	465	3,0925	,61417	-,738	,461
	Buxoro	535	3,1252	,76757		
insonlarni yaxshiligi	Toshkent	465	2,8989	,83078	- 4,251	,000
	Buxoro	535	3,1308	,88563		
hayotning odilligi	Toshkent	465	2,8473	,83325	- 2,998	,003
	Buxoro	535	3,0000	,77653		
hayotning boshqaruvchani-ligi	Toshkent	465	2,8452	,89641	- 7,882	,000
	Buxoro	535	3,2561	,75192		
tasodif bo‘layotgan voqealar	Toshkent	465	2,8753	,76390	- 4,888	,000
	Buxoro	535	3,1252	,84203		
o‘z menining qadr-qimmati	Toshkent	465	2,9591	,96067	- 3,408	,001
	Buxoro	535	3,1570	,87497		
o‘zini-o‘zi boshqarish	Toshkent	465	3,1290	,74605	- 2,583	,010
	Buxoro	535	3,2486	,71623		
omad darajasi	Toshkent	465	2,8645	,93364	- 5,660	,000
	Buxoro	535	3,1813	,83623		

Mazkur dissertatsiyada professor Sh.Baratov rahbarligida “Ahollining tahdidlardan xabardorlik darajasini aniqlash” savolnomasi ishlab chiqildi, bu savolnomaning ishlash holatlari barcha hududlarda tekshirildi, savolnomaga 36 ta savoldan iborat, bo‘lib ular 14

ta shkalaga ajratilgan. Natijalar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (5-rasm).

5-rasm



5-rasm. O‘smirlarni tahdidlardan xabardorlik darajalari hududiy farqlarining namoyon bo‘lishi

5-jadval

O‘quvchilarda tahdidlardan xabardorlik darajalari hududiy farqlarining namoyon bo‘lishi

Ichki va tashqi tahdidlar	Hudud	N	O‘rta chaqi ymat	Standart og‘ish	t	Ishonch darajasi
el yurt takdiriga loqaydlik	Toshkent	465	3,8516	1,24461	-2,824	,005
	Buxoro	535	4,0916	1,41852		
oilaviy qadriyatlar va yoshlар tarbiyasiga e’tiborsizlik	Toshkent	465	4,1398	1,43232	-,291	,771
	Buxoro	535	4,1664	1,44836		
maxalliychilik, urug‘aymoqchilik	Toshkent	465	4,1355	1,42065	-,339	,735
	Buxoro	535	4,1664	1,44836		
erta turmush qurish	Toshkent	465	3,8473	1,30496	-3,645	,000
	Buxoro	535	4,1664	1,44318		
oilaviy	Toshkent	465	4,2043	1,40626	-,118	,906

ajralishlar	Buxoro	535	4,2150	1,44194		
milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik	Toshkent	465	4,1957	1,49077	,154	,878
	Buxoro	535	4,1813	1,46713		
“ommaviy madaniyat”	Toshkent	465	3,8946	1,31621	-2,264	,024
	Buxoro	535	4,0916	1,41852		
xalkaro terrorizm, diniy ekstremizm	Toshkent	465	4,2602	1,43952	,332	,740
	Buxoro	535	4,2299	1,43962		
odam savdosi	Toshkent	465	4,1742	1,43456	,127	,899
	Buxoro	535	4,1626	1,44360		
narkobiznes	Toshkent	465	4,1183	1,43426	-,322	,747
	Buxoro	535	4,1477	1,44002		
mafcura tushunchasi qanday ma'noni anglatishini bilishi	Toshkent	465	4,1785	1,28166	,151	,880
	Buxoro	535	4,1664	1,24837		
mafkuraviy immunitet tushunchasini bilishi	Toshkent	465	4,0710	1,39477	-,231	,817
	Buxoro	535	4,0916	1,41852		
mafkuraviy immunitet shakllanganligi	Toshkent	465	4,0366	1,12990	-1,470	,142
	Buxoro	535	4,1439	1,17074		
mafkuraviy immunitet shakllantirishga munosabatingiz	Toshkent	465	4,2559	1,25477	-8,188	,000
	Buxoro	535	4,9327	1,34469		
mafkuraviy immunitet shakllantirishda psixologiyanin g o‘rni	Toshkent	465	4,5957	1,28317	-4,572	,000
	Buxoro	535	4,9776	1,34619		

Tadqiqotlar natijalari Buxoro va Toshkentlik o'smirlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish" to'g'risidagi PQ-3160-son Qarori keltirilgan el-yurt taqdiriga loqaydlik, milliy qadriyatlarga nisbatan e'tiborsizlik, oilada farzand tarbiyasiga va oilaviy qadriyatlarga nisbatan e'tiborsizlik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, erta turmush qurish va oilaviy ajrimlar, yoshlar orasida jinoyatchilik kabi **ichki** tahdidlar hamda diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, aqidaparastlik, "Ommaviy madaniyat", narkobiznes, odam savdosi, korrupsiya va jinoyatchilik kabi **tashqi** tahdilarini aksariyat qismining mazmun - mohiyati va oqibatidan ogohlik darajalari bir-biriga yaqinligi va ayrim birlarida sezilarli darajadagi ishonchli farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

El yurt taqdiriga loqaydlik tahdidini mazmun-mohiyatini tushunmaslik darajasi Buxoro hududidagi o'smirlarda yuqori ekanligi aniqlandi ($t=2,824$; $p<0,01$), erta turmush qurish tushunchasiga yetarlicha ta'rif bera olmaslik holati ham Buxorolik o'smirlarda yuqori ekan ($t=3,645$; $p<0,001$). "Ommaviy madaniyat" tahdidining mazmun-mohiyatini yetarlicha farqlay olmaslik ham bilish ham Buxoro hududidagi o'smirlarda yuqoriligi aniqlandi ($t=2,26$; $p<0,05$). Natijalar tahlili Buxorolik o'smirlarning Toshkentlik o'smirlarga nisbatan ma'naviy tahdidlardan yetarlicha ogoh emasligini ko'rsatdi. O'smirlarni ma'naviy tahdidlarni umumiyligi mazmun-mohiyati va uning salbiy ta'sir hamda oqibatlaridan yetarlicha ogoh emasligi ularda mazkur tahdidlarga nisbatan sust mafkuraviy immunitet shakllangalidan darakdir. Ushbu holatni chekka hududlarda ma'naviy-ma'rifiy profilaktika ishlarini manzilli olib borilmaganligi, bilan izohlash mumkin.

Biz mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omili bo'lgan psixologik himoya mexanizmlari orasida yosh, jins va hudud kesimida o'zaro bog'liqlik mavjudmi yoki yo'qligini tekshirdik va ular quyidagicha korrelasion ko'rsatkichlarni qayd qildi (6-jadval)

6-jadval

O'smirlarda psixologik himoya ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari

	Inkor etish	Siqib chiqarish	Regressiya	Kompensatsiya	Proeksiya	O'rin almashtirish	Rasionalizatsiya	Reaktiv tuzilma
Yoshi	,084(**)	-0,052	-0,027	,080(*)	0,029	-,117(**)	-,096(**)	-,083(**)
Jinsi	-0,018	0,032	-,114(**)	0,032	-,119(**)	-,076(*)	-0,057	-0,062
Hududi	0,018	-,202(**)	-0,023	0,004	,236(**)	-0,029	0,051	,159(**)
inkor etish	1	-0,016	-0,001	,146(**)	,149(**)	-,114(**)	-0,009	,082(**)
siqib chiqarish		1	,292(**)	,171(**)	-,063(*)	,223(**)	-,103(**)	-0,033
regress-siya			1	,292(**)	,122(**)	,483(**)	0	,218(**)
kompe nsatsiya				1	,085(**)	,300(**)	-0,018	0,046
proeksi ya					1	-,150(**)	,192(**)	,338(**)
o'rin almasht irish						1	,114(**)	0,039
rasional izatsiya							1	,181(**)
reakтив тузилма								1

Yosh ko'rsatkichlari va inkor qilish psixologik himoya mexanizmi o'rtasida ishonch darajasidagi bog'liqlik qonuniyati kuzatildi ($r=0,084$; $p<0.05$). O'smirlar qancha yosh bo'lsa, inkor qilmasligi, ko'nikishi oson ekan, yoshi ulg'aygani sayin ularda inkor qilish holatlari oshib borar ekan, ya'ni ularda yangi holatlarga nisbatan tabiy himoyalanish hosil bo'lishi ma'lum bo'ldi. O'smirlarning yoshlari ulg'ayishi, ulardag'i kompensatsiya psixologik himoya mexanizmini ortib borishiga sabab bo'lar ekan ($r=0,080$; $p<0.05$). Bu

mexanizm ongli ravishda ishlataladi, shuning uchun ham yosh oshishi aqlning o'sishi natijasida yetmayotgan narsalarni boshqa holatlardan undirishga intilish kuzatilishi mumkin. Biroq natijalarning ko'rsatishicha, yosh ko'rsatkichlari rasionalizatsiya psixologik himoya mexanizmi bilan teskari munosabatga kirishishini ko'rsatdi ($r=-0,096$; $p<0.05$). Ya'ni o'smirlarimiz katta bo'lganlari sayin emotsiyalarini boshqarishni, omadsizliklarni tahlil qilishga o'rganishar ekan. O'rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi va yosh ko'rsatkichlari o'rtasida ham teskari aloqani kuzatishimiz mumkin ($r=-0,117$; $p<0.05$). O'rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi ma'lum bir holat orqali ifodalanadi, aynan yosh bo'lgan o'smirlarda o'rin almashtirish yaqqolroq ko'rinishi ma'lum bo'ldi, yoshi katta bo'lishi bilan o'rin almashtirish psixologik himoya holatlari kamroq namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Reaktiv tuzilma psixologik himoya mexanizmi ham yosh ko'rsatkichlari bilan teskari aloqaga kirishishi aniqlandi ($r=-0,083$; $p<0.05$). O'smirlarning yoshi qanchalik kichik bo'lsa, ta'sirga tushishlar oson bo'lar ekan.

Psixologik himoya mexanizmlarining ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuzatganimizda quyidagi holatlar aniqlandi. O'smirlarda inkor qilish psixologik himoya mexanizmi oshsa, konpensatsiya psixologik himoya mexanizmi ham oshib boradi. Ya'ni o'smirlarda nizoli va vaziyatlarda inkor qilish psixologik himoya mexanizmi real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish pozisiyasiga va yetishmayotgan jihatlarni boshqa narsa bilan o'rnini to'ldirish holatiga o'tadi. O'rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi va inkor etish psixologik himoya mexanizmi orasida teskari munosabatga kirishishi qayd qilindi ($r=-0,114$; $p<0.01$). Inkor qilish psixologik himoya mexanizmi kuchaygani sayin ma'lum bir holatlarda o'rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi pasayib borishini namoyon qildi. O'smirlarda siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi oshgani sayin regressiya psixologik himoya mexanizmi ham oshib borishini ko'rsatdi ($r=0,292$; $p<0.05$). Siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi asosan, o'zini idrok qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, o'smirlarni qandaydir ta'sir ostida qolish holatini bildiradi va shunday vaziyatlarda o'smirlar avvalgi va yetishmagan (bolalikdagi) istak va xarakatlarni qoniqish formasiga qaytishni istashadi.

O'smirlardagi internallik holati inkor etish psixologik himoya mexanizmtga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan ($r=0,070$; $p<0,05$), (7-jadval).

7-jadval

Sub'ektiv nazorat lokusi bilan psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro korrelyatsiyasi

	inkor etish	siqib chiqarish	regressiya	kompensatsiy a	proeksiya	o'rin almashdirish	rasionalizatsi ya	reaktiv tuzilma
internal	,070(*)	0,024	0,029	-0,006	0,021	-0,04	0,018	-0,046
eksternal	-0,033	-0,039	-0,004	0,028	-0,004	0,014	-0,024	0,042

Ya'ni, o'smirlar qanchalik internal bo'lsalar, inkor qilish yuqori bo'lar ekan, internallik har bir vaziyatlarda mas'uliyatni o'ziga olish holatlari bilan bog'liqdir. Mas'uliyatni o'ziga olgan o'smirlarning inkor qilishga moyilligi aniqlandi.

Yanov-Bulmanning tayanch e'tiqodlari va psixologik himoya mexanizmlari o'rtasida quyidagi aloqalar kuzatildi (8- jadval)

8-jadval

Yanov-Bulmanning "Tayanch e'tiqodlar" metodikasi bilan psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro korrelyatsiyasi

	inkor etish	siqib -ish	regressi ya	kompen satsiya	proeksiy a	o'rin almash -tirish	rasionali zatsiya	reaktiv tuzilma
dunyonib ilish	0,028	-0,004	0,013	0,042	0,022	0,029	0,026	-0,003
insonlarni ng yaxshiligi	-0,005	-0,058	-,077(*))	-0,031	,070(*)	-0,047	0,054	0,012
hayotning odilligi	-0,036	0,01	-0,001	0,025	0,039	0,028	0,056	-0,004
hayotning boshqaru v -chanligi	-0,009	-0,061	-0,048	-0,032	,096(**)	-0,06	-0,003	-0,008
tasodif bo'layotga n voqealar	-0,011	-0,039	-,072(*))	0,003	0,055	-,075(*))	0,058	-0,024

o‘z menining qadr-qimmati	0,004	-0,009	-0,006	-0,026	,068(*)	-0,018	0,046	0,021
o‘zini o‘zi boshqarish	0,007	-0,018	-0,048	-0,023	0,044	0,032	0,043	-0,003
omad darajasi	0,018	-0,036	-0,031	0,008	0,022	-0,013	-0,011	0,02

Dunyoni bilish tayanch e’tiqod shkalasi psixologik himoya mexanizmiga bog‘liq emaslini ko‘rsatdi. Dunyoni bilish tayanch e’tiqodida psixologik himoya mexanizmlari qo‘llanilmas ekan. Insonlarning yaxshiligi ishonch tayanch e’tiqod shkalasi va regressiya psixologik himoya mexanizmi o‘rtasida teskari munosabatlar kuzatildi ($r=-0,077$; $p<0.05$). Ular qanchalik insonlarni yaxshi deb tasavvur qilsalar, regressiya psixologik himoya mexanizmi psayib borishini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich proeksiya psixologik himoya mexanizmi bilan to‘g‘ri munosabatga kirishishini ko‘rsatdi ($r=0,070$; $p<0.05$). Insonlarning yaxshiligiga ishonsa, proeksiya qilish ham ortib borar ekan. Tasodifiy bo‘layotgan voqealar tayanch e’tiqodi o‘rin almashtirish psixologik himoya mexanizmiga teskari ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekanligi anqilandi ($r=-0,075$; $p<0.05$). O‘z qadr qimmatini yuqori qo‘ygan insonlarda proeksiya psixologik himoya mexanizmi ortib borishi ham aniqlandi ($r=0,068$; $p<0.05$).

Keyingi holatda biz ishlab chiqqan savolnoma va psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjudmi yoki yo‘qligi tahlil qilindi (9-jadval).

Bizda quyidagi qiziq holatlar kuzatildi: savolnomamizning faqat mafkuraviy immunitega bag‘ishlangan savollarida va psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasida musbat va manfiy bog‘liqliklar aniqlandi. Mafkuraviy immunitetning shakllanganligi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi shunchalik past bo‘lishini ko‘rsatdi ($r=-0,068$; $p<0.05$). Ko‘pgina holatlarda bizning mafkuraviy immunitetni tushuntirishimiz, shakllantirishimiz an’anaviy usulda olib borilar ekan, buning o‘rniga mafkuraviy immunitetni shakllantirishda an’anaviy usullardan voz kechib, interaktiv o‘yinlar, ijtimoiy-psixologik treninglar orqali ta’sir

qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin, shuning uchun ham o‘smirlarda o‘rin almashtirish psixologik himoya mexanizmi aynan mafkuraviy immunitet shakllangan o‘smirlarda past bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

9-jadval

**“Aholining tahdidlardan habardorlik darajasini baholash”
so‘rovnomasi bilan psixologik himoya mexanizmlarining o‘zaro
korrelyatsiyasi**

	inkor etish	siqib chiqarish	regressiya	kompensatsi va	Proeksiya	o‘rin almashtirish	rasionalizatsi ya	reaktiv tuzilma
Mafkuraviy immunitet shakllanganligi	0,0 62	- 0,053	- 0,041	- 0,02 9	0,05	-,081(*)	-,071(*)	- 0,01 2
Mafkuraviy immunitet shakllantirishga munosabati	0,0 34	-,121(**) - 0,081(*)	- 0,081 4	0,01 4	,071 (*)	- 0,049	0,024	0,01 4
Mafkuraviy immunitet shakllantirishda psixologiyaning o‘rni	0,0 09	-,084(**) - 0,081(*)	- 0,081 1	- 0,01 5	0,01 5	- 0,021	0,055	0,02 2

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishga munosabat va siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi o‘rtasida teskari munosabat kuzatildi ($r=-0,121$; $p<0.01$), o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga munosabat yuqori bo‘lsa siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmi pasayib borar, ya’ni ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyati pasayib borarishini ko‘rsatdi, buning sababi munosabat bizda yaxshi shakllantirilmaganligi bo‘lishi mumkin. Regressiya psixologik himoya mexanizmi va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga munosabat o‘rtasida ham teskari munosabatlar kuzatildi ($r=-0,081$; $p<0.05$). ya’ni mafkuraviy immunitetga munosabat yaxshi bo‘lsa rivojlanish holatida teskari jihatlar kuzatilar

ekan, bunday holatlar bizda mafkuraviy immunitetni shakkllantirishda boshqacha yo‘nalishga ehtiyoj mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishga munosabat va proeksiya psixologik himoya mexanizmi ko‘rsatkichi o‘rtasida musbat munosabat kuzatildi ($r=0,071$; $p<0.05$). O‘smlilar o‘zlarini to‘g‘ri idrok qila olsalar mafkuraviy immunitetni shakllantirishga bo‘lgan munosabatni ham o‘zgartirishlari mumkin ekanligini qayd qilib o‘tish joizdir.

Yuqorida biz sub’ektiv nazorat darajasi va psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilganmiz, hozirda Yanov Bulmanning tayanch e’tiqodlari va sub’ektiv nazorat darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishga intilamiz (10-jadval)

10- jadval

Sub’ektiv nazorat lokusining “Tayanch e’tiqodlar” metodikasi hamda “Aholining tahdidlardan xabardorlik darajasini baholash” so‘rovnomasi bilan o‘zaro korrelyatsiyasi

	internal	eksternal
dunyoni bilish	-0,062	0,061
insonlarning yaxshiligi	-,078(*)	0,057
hayotning odilligi	-,087(**)	,074(*)
hayotning boshqaruvchanligi	0,026	-0,014
tasodif bo‘layotgan voqealar	-,063(*)	0,046
o‘z menining qadr-qimmati	-0,007	0,015
o‘zini o‘zi boshqarish	-0,05	0,036
omad darajasi	-,114(**)	,085(**)
el yurt taqdiriga loqaydlik	0,018	-0,024
oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik	-0,004	0,001
mahalliychilik	-0,031	0,019
erta turmush kqurish	0,033	-0,023
oilaviy ajralishlar	-0,008	0,016
milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik	0,004	-0,009
“ommaviy madaniyat”	0,006	-0,004
xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm	-0,006	0,007
odam savdosi	-0,034	0,028
narkobiznes	0,05	-0,032
mafkuraviy bilimlari	0,04	-0,008

mafkuraviy immunitet tushunchasini bilishi	0,028	-0,033
mafkuraviy immunitet shakllanganligi	0,061	-0,032
mafkuraviy immunitet shakllantirishga munosabati	0,019	-0,016
mafkuraviy immunitet shakllantirishda psixologiyaning o‘rni	-0,022	-0,001

Natijalar tahlili dunyoni bilish, anglash shkalasi va sub’ektiv nazorat darajasi o’rtasida bog‘liqlik mavjud emasligini ko‘rsatdi, dunyoni bilish eksternallik yoki internallikka aloqador emas ekan. Insonlarning yaxshiligi shkalasi va internallik shkalasi bo‘yicha teskari munosabat kuzatildi ($r=-0,078$; $p<0.05$). Internal insonlar insonlarning yaxshiligiga ishonishlari mushkulroq, ular har bir holatlarga shubha bilan qarashni xush ko‘radilar, har bir yaxshilik orqasidan nimadir chiqishini kutadilar. Internallarda hayotning odilligiga ham shubha bilan qarash jihatlari mavjudligi aniqlandi ($r=-0,087$; $p<0.01$). Eksternal insonlarda esa, aksincha, ($r=0,074$; $p<0.05$), ular hayotning odilligiga ishonishar ekan. Hayotning boshqaruvchanligiga eksternallar ham internallar ham ishonishmasligi ko‘rindi. Tasodifiy bo‘layotgan voqealarga internallarda salbiy munosabat shakllanganligi aniqlandi ($r=-0,063$; $p<0.05$). Ya’ni ular tasodiflarga ishonmas ekanlar har bir voqelik zamirida mehnat, harakat borligini aytib o’tishlari ma’lum bo‘ldi, bu internallarning harakteriga xos bo‘lgan xislatlardan biri hisoblanadi. Internallar omadga umuman ishonmasa ($r=-0,114$; $p<0.01$), eksternallar hamma yutuqlarni omadga yo‘yar ekan ($r=0,085$; $p<0.01$). O‘smirlarning internal yoki eksternallar bo‘lishi ularning mafkuraviy immunitetiga ta’sir ko‘rsatmasligini ko‘rsatdi.

Yanov-Bulmanning tayanch e’tiqodlar metodikasi shkalalarining barchasida ijobiy munosabatlar mavjudligi kuzatildi (11-jadval).

11-jadval

**Yanov-Bulmanning “Tayanch e’tiqodlar” metodikasi
shkalalarining o‘zaro korrelyatsiyasi**

	Dunyo ni bilish	Inson-lar-ning yaxshi -ligi	Hayot -ning odil- ligi	Hayotnin g boshqaru v- chanligi	Tasodif bo‘layo t-gan voqeala r	O‘z menin- ning qadr- qimmat i	O‘zini o‘zi bosh- karish	Omad dara- jasi
Dunyoni bilish	1	,291(* *)	,101(* *)	,283(**)	,352(**)	,380(**)	,267(* *)	,256(* *)
Insonlar-ning yaxshiligi		1	,304(* *)	,231(**)	,372(**)	,256(**)	,215(* *)	,241(* *)
Hayotning odilligi			1	,115(**)	,202(**)	,311(**)	,279(* *)	,154(* *)
Hayotning boshqaruv -chanligi				1	,295(**)	,235(**)	,302(* *)	,342(* *)
Tasodif bo‘layotga n voqealar					1	,303(**)	,274(* *)	,217(* *)
O‘z menining qadr- qimmati						1	,470(* *)	,160(* *)
O‘zini o‘zi boshqaris h							1	,261(* *)
Omad darajasi								1

Keyingi bosqichda Yanov-Bulmanning “Tayanch e’tiqodlar” metodikasi va biz tomonidan ishlab chiqilgan savolnomaning bog‘liqlik holati tahlil qilindi (12-jadval).

12-jadval

Yanov-Bulmanning “Tayanch e’tiqodlar” metodikasi bilan mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini baholashga qaratilgan savollarning o‘zaro korrelyatsiyasi

	Dunyo ni bilish	Inson-larning yaxshi-ligi	Hayotning odil-ligi	Hayotni ng boshqaruv-chanligi	Tasodi f bo‘lay ot-gan voqealar	O‘z meni-ning qadr-qimmati	O‘zini o‘zi bosh-qarish	Oma d dara-jasi
Mafkuraviy bilimlari	-0,001	-0,039	-0,038	,103(**)	-0,028	0,019	0,024	0
Mafkura-viy immunitet tushunchasi-ni bilishi	-0,042	-0,038	0,018	0,005	0,004	-0,045	-0,038	-0,037
Mafkura-viy immunitet shakllanganligi	-0,015	0,007	0,015	0,042	0,007	0,014	0,027	-0,032
Mafkura-viy immunitet shakllan-tirishga munosabati	-0,008	-0,003	0,017	,073(*)	0,056	,062(*)	0,014	,071(*)
Mafkura-viy immunitet shakllan-tirishda psixologiyaning o‘rni	-0,03	-0,025	0,022	0,015	0,029	0,012	-0,001	0,041

Tahlillar mafkuraviy bilimlari yuqori bo‘lgan o‘smirlarda hayotning boshqaruvchanligi ham yuqori bo‘lishini ko‘rsatdi

($r=0,103$; $p<0.01$). Ya’ni faol insonlarda mafkuraviy bilimlar yuqori bo‘lar ekan, o‘smlarning faolligi ularni boshqaruvchanligiga bog‘liq bo‘lishini qayd qildi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishga munosabatning oshishi hayotning boshqaruvchanligi oshishiga sabab bo‘ishi holatini ko‘rsatdi ($r=0,073$; $p<0.05$), ya’ni mafkuraviy immunitetga munosabat oshishi ular faolligi oshishining zamini hisoblanar ekan. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishga munosabat o‘z qadr qimmatining oshishiga sabab bo‘ladi ($r=0,062$; $p<0.05$). O‘smlarda mafkuraviy immunitet qanchalik oshsa, o‘zini e’zozlash, qadrini bilish yuqori bo‘lishi mumki ekanligi kuzatildi. Demak, immunitet o‘zini namoyon qilishni, o‘zini anglashni oshirishga sabab bo‘lar ekan. Mafkuraviy immunitet shakllantirishga munosabati yuqori bo‘lgan o‘smlar o‘zlarining omad darajasini yuqori deb bilishlarini ko‘rsatdi ($r=0,071$; $p<0.05$).

Ikkinci bob bo‘yicha xulosalar

Ikkinci bob tahlilari yuzasidan quyidagicha xulosalar yuzaga keldi.

- mafkuraviy tahdidlar, xurujlar, yot buzg‘unchi g‘oyalarning insonlar, ayniqsa, o‘smlar ongiga salbiy ta’sirini zararsizlantirish va ularda mafkuraviy immunitet hosil qilish hamda uning barqarorligiga erishishda psixologik usullardan foydalanish nazariy-amaliy ahamiyat kasb etishi aniqlandi;

- o‘smlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarini tadqiq qilish muammosini maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan metodikalar, kontent – tahlillar, anketa savollari, testlar va qo‘srimcha usullar majmuasining qo’llanilishi tadqiqotning amaliy-tatbiqiy vazifalarini kengroq ko‘lamda ochib berish imkonini yaratdi;

- ilmiy adabiyotlar va empirik izlanishlar asosida tadqiqotning keyingi bosqichlariga olib chiqilgan mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillarning har biri o‘ziga xos dinamika va natijasga ega ekanligi hamda bu barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishiga xizmat qilishi bilan alohida uslubni tashkil etishi qayd etildi. Bu uslub, o‘z navbatida, ijtimoiy psixologiya fanidagi o‘smlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishdagi o‘ta muammoli masalada muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy;

- o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi va rivojlanishida psixologik omil hisoblangan psixologik himoya mexanizmlari jins farqlarida ishonchli farqlar kuzatildi, ya'ni himoya mexanizmlari qiz bollalarda o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi, bu asosan, qizlarga nisbatan yuqori nazorat bilan bog'liqligini ko'rsatdi;

- o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi va rivojlanishida psixologik omil hisoblangan psixologik himoya mexanizmlarida hududlar bo'yicha ham bir qator ishonchli farqlar kuzatildi, ya'ni psixologik himoya mexanizmlari Toshkentda emas, balki Buxorodagi o'smirlarda yuqoriroq ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi;

- yosh ko'rsatkichlari va psixologik himoya mexanizmlari orasida ham ishonchli bog'liqlik qonuniyati kuzatildi. Jumladan, inkor qilish shkalasi o'rtasida ishonch darajasidagi bog'liqlik qonuniyati kuzatildi. O'smirlar qancha yosh bo'lsa, inkor qilmasligi, ko'nikishi oson bo'lishi, yoshi ulg'aygani sayin ularda inkor qilish holatlari oshib borishi, ya'ni ularda yangi holatlarga nisbatan imunitet hosil bo'lishi aniqlandi.

- o'smirlarning yoshi ulg'ayishi bilan ulardagi kompensatsiya ham ortib borar ekan. Bu mexanizm ongli ravishda ishlataladi, shuning uchun ham yosh oshishida aqlning o'sishi natijasida yetmayotgan narsalarni boshqa holatlardan undirishga intilish kuzatilishi mumkin;

- tayanch e'tiqodlarning deyarli barcha shkalalari bo'yicha ishonch darajadagi farqlar mavjudligi kuzatildi;

- tayanch e'tiqodlarning shakllanishiga o'smirlarning qaysi hududda yashayotganligi ta'sir ko'rsatar ekan;

- o'smirlar qanchalik kichik hududda yashasa, ularning tayanch e'tiqodi shunchalik sobit bo'lishi aniqlandi, ular qanchalik katta hududda yashasa, e'tiqodida sust munosabatlar shakllanishi mumkinligi ko'rindi;

- tayanch e'tiqodlar va sub'ektiv nazorat darajasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlili quydagicha natijalarni qayd qildi: dunyon bilish, anglash shkalasi va sub'ektiv nazorat darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud emas ekan, dunyon bilish eksternallik yoki internallikka aloqador bo'lmaydi;

- o'smirlarning internal yoki eksternallar bo'lishi ularning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatmaydi;

- tadqiqot uchun ishlab chiqilgan so‘rovnoma bilan bog‘liq quyidagi qiziq holatlar kuzatildi. Savolnomaning faqat mafkuraviy immunitetga bag‘ishlangan savollari va psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasida musbat va manfiy bog‘liqliklar aniqlandi;
- mafkuraviy immunitet muammosiga oid ilmiy manbalar tahlil qilinishi va tizimlashtirilishi mazkur ishlarni bir butun tasavvur qilinishini osonlashtiradi;
- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini baholashda shaxsning psixologik mexanizmlari, tayanch e’tiqodlari, lokus nazorat kabi psixologik xususiyatlarini o‘rganuvchi metodlarning qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

III BOB. O‘SMIRLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI O‘RGANISHNING EMPIRIK ASOSLARI

O‘smirlarda mafkuraviy immunitetni o‘rganishning empirik asoslari deb nomlangan mazkur bobda o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni rivojlantiruvchi psixotrening dasturlari, ijtimoiy-psixologik treninglar metodologiyasi bo‘yicha xorij tajribasi, respondentlarning mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarini baholashda tajriba va nazorat ob’ektlaridan olingan empirik ma’lumotlar tahlilini ko‘rish mumkin.

1. O‘smirlarda mafkuraviy immunitetni rivojlantiruvchi psixotrening dasturlar

Tadqiqot davomida o‘smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda ularda yot buzg‘unchi va vayronkor g‘oya hamda mafkuralarga qarshi psixologik ta’sirchan ijtimoiy-psixologik trening dasturi ishlab chiqildi[194] (*1-ilova*).

Psixologik targ‘ibotning tizimi, mazmuni va yo‘nalishi bo‘yicha o‘smirlarda yuksak g‘oyaviy sobitlikni, bunyondkor va insonparvarlikka asoslangan mafkuraviy immunitet mustaqilligimiz dushmanlarining dezinformasion xurujlariga qarshi murosasiz pozisiyani shakllantirishga, ya’ni yot g‘oyalar va qarashlarga dalillar asosida qarshilik ko‘rsatishni o‘rgatishga qaratilgan bo‘ladi. O‘smirlar voqealarni mustaqil tahlil qila olishsa hamda ularga qarshi o‘zining ruhiy og‘ishlarsiz munosabat bildira olsa, ularda barqaror va mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish muvaffaqiyatli kechadi. Bunda bo‘layotgan voqeа va hodisalarga mos mavzuda qo‘llaniladigan psixologik ta’sirchan treninglar dasturi samarador bo‘ladi. Quyida biz uzlusiz ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, targ‘ibotchilarga hamda yoshlar bilan ishlaydigan profilaktika inspektorlariga yordam tariqasida quyidagi psixologik ta’sirchan trening dasturlarini tavsiya etamiz.

O'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda uni bir qator psixologik (shaxs komponentlari, ijtimoiylashuv jarayoni, shaxsning ong usti va ong osti, shaxs qadriyatlar tizimi, shaxsning ba'zaviy e'tiqodlar tizimi, psixologik himoya mexanizmlari, shaxsning internal va esternal nazorat lokuslari tizimi, shaxs ustanovkalari, yo'nalganlik jihatlari hamda motivatsiya xususiyatlari kabilar) mexanizmlar bilan bog'lagan holda o'rganishga erishildi. Mafkuraviy immunitet shakllanishning psixologik omillari bilan o'smir shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlar bu borada olib borilayotgan ishlarda o'ziga xos tafovutlar kuzatilganligi, o'smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ularda muqarrar yuzaga keladigan psixologik, fiziologik, ijtimoiy qiyinchiliklarni hisobga olgan holda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishining ta'sirchan psixologik chora-tadbirlarini amaliyotda qo'llash muhim ekanligini ko'rsatdi. O'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda ularning shaxs komponentlaridagi, ya'ni kognitiv, xulq-atvor va emotsiyal holatlarini hamda muqarrar yuz beruvchi psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillarni inobatga olish orqali shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning tajriba-sinov natijalari xulosalariga asoslanib, o'smirlar ruhiyatida muqarrar yuzaga keladigan o'zgarishlar mafkuraviy immunitet shakllantirishda o'ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi, bu borada olib boriladigan psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixotrening, psixokorreksiya hamda psixologik maslahat ishlarida ta'sirchan psixologik yo'llarni shakllantirishga zarurat tug'dirdi. O'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishiga mos keladigan, tejamkor va samarali usulni tanlashni taqozo etdi. Shuningdek, o'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishiga xizmat qiluvchi ta'sirchan psixologik usullarni psixologlar, pedagoglar, targ'ibotchilar, profilaktika inspektorlari kasbiy faoliyati mobaynida, muassasalarda biriktirilgan psixolog yordamida uzlusiz amalga oshirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

O'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining ta'sirchan ijtimoiy-psixologik trening dasturini tashkil etish psixolog faoliyatining murakkab va ko'p qirrali imkoniyatlaridan sanaladi. Ushbu faoliyatning tashkiliy jihatlarini yengillashtirishda o'smirlar

mafkuraviy immuniteti shakllanishining ta'sirchan psixologik dasturining nazariy jihatdan asoslanishi muhimdir.

O'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirishning optimallashtirishga yo'naltirilgan dasturini qo'llash uchun bir qator jihatlarni inobatga olishga e'tibor qaratildi [194]:

- dastur o'smirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishiga mo'ljallanganligi;
- ishtirokchilarning bir jamoa bo'lib, daxldorlik, mas'uliyat va burchlarni to'laqonli his qilinishiga olib kelish;
- qo'llanilishi va vaqt tejamkorligining inobatga olinishi;
- jamoada sog'lom psixologik va ma'naviy muhitni yaxshilashga qaratilgan mashqlardan foydalanish;
- mashg'ulotlarda qaytar aloqaning kommunikatorlik va resepent mas'uliyatining yo'lga qo'yilganligi;
- ishtirokchilardan ortiqcha vaqt talab qilmaslik;
- natijalarni qayd etishning shakllantirilganligi;
- mashg'ulotlarda persepsiya (bir-birini idrok qilishi, tushunishi), interaksiya (birkalikdagi harakat va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish) va didaktik (murakkab qiyin muammolarning oson va sodda yo'l bilan tushunilishiga olib kelinishi) taktni qo'llanishi;
- muammoning yechimini topish imkoniyatini namoyon eta olganligi.

O'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishiga mo'ljallangan trening dasturimiz uch bosqichli dasturdan iborat bo'lib, 18 ta seminar-trening har haftada 3 tadan trening mashg'ulotlari, jami 6 hafta davomida 36 soatni tashkil etdi.

O'smirlar orasida ijtimoiy-trening dasturimizni o'tkazishda O.V.Nemirinskiy, L.M.Mitina, L.A.Petrovskaya, K.Rudestam va M.Vachkovlarning yondashuvlaridan foydalandik.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treningni metodologiyasini quyidagilar tashkil qildi.

№	Trening nomi	Trening metodologiyasi
1	"O'zini o'zi anglash" treningi	O'zini o'zi anglashning yetakchilik rolini "Men-Sen", "Biz-Siz", "Biz-Ular", "Men-Ular", "Men-U", Men-Men" tizimida

		ko‘rish o‘z xulq-atvorini anglashning asosi hisoblanadi. Guruhiy dinamiklik o‘sishining turli bosqichlarida individual o‘zgarishlarning yetakchi ko‘rsatkichlarini ajratish mumkin. O.V.Nemirinskiy
2	“Xulqni o‘zgartirishning konstruktiv modeli” treningi	Xulqni o‘zgartirishning konstruktiv modeliga asoslangan holda, trening ishtirokchilaridagi intellektual faoliyatda anganganlikni rivojlantirish to‘rt bosqichdan: tayyorgarlik, anglash, qayta baholash, xatti-harakatdan iboratligini isbotlangan. L.M.Mitina
3	“Guruhiy birdamlik” treningi	Ushbu treningda “Birdamlik”, “Shu yerda va hozir”, voqealarning “Men” tomonidan aytilishi, “Bizning fikrimizcha”, “Men shunday deb o‘ylayman” kabi jumlalarni qo‘llash asosida samimiy muloqot jarayonidagi emotsiya va holatlarni sir saqlash va tashqariga olib chiqmaslik kabi omillar ilgari suriladi L.A.Petrovskaya
4	“O‘zini o‘zi nazorat qilish” treningi	Ushbu treningda guruh jamiyatni miniatyura tarzida aks ettiradi va shuning uchun undagi munosabatlar tizimi ijtimoiy malakalarning shakllanishiga turtki bo‘ladi. Guruh ishtirokchilari yangi malakalarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda o‘z tengdoshlarining turli muloqot uslublarini o‘rganib oladi. K.Rudestam va M.Vachkov
5	“Guruhiy qarorlarni qabul qilish” treningi	Guruhiy qarorlar qabul qilish treningga umumiy va maxsus bilimlarni hamda kasbiy qobiliyatlarni shakllantiruvchi vosita, psixoterapevtik usullar yordamida shaxsning shakllanishi va yuksalishi uchun sharoit yaratib beruvchi omil sifatida qaralgan. A.G.Gresov

Trening dasturida O.V.Nemirinskiy [119] tadqiqotlarida o'smirlarda aniqlangan o'zini o'zi anglashning dinamikliligi yetarli darajada ifodalangan. Uning fikricha, o'zini o'zi anglashning yetakchilik rolini "Men-Sen", "Biz-Siz", "Biz-Ular", "Men-Ular", "Men-U", Men-Men tizimida ko'rish o'z xulq-atvorini anglashning asosi hisoblanadi. Guruhiy dinamiklik o'sishining turli bosqichlarida individual o'zgarishlarning yetakchi ko'rsatkichlarini ajratish mumkin.

Birinchi bosqich: individual o'zgarishlarni anglashning "Biz-Ular" qarshi harakat tizimida tashkil etildi. Bu bosqich guruhiy identifikatsiyalashning ijtimoiy yaxlit "BIZ" bilan ishlashga qaratiladi. "Ular" esa guruhiy makondan tashqarida tamoyiliga bo'yusunadi.

Ikkinchi bosqich: mas'uliyatni o'z zimmasiga olish bosqichi bo'lib, unda "Men-Ular" bilan aralashib, o'zini guruhning boshqa a'zolariga qarshi qo'yish bilan boshlanadi.

Uchinchi bosqich: "Men-U" munosabatlari bosqichi hisoblanib, bunda yaqinlik va o'zaro hurmatni his qilish kuzatiladi.

To'rtinchi bosqich: o'zining yagona, noyobligiga e'tibor qaratilishidir. Uning asosiy mohiyati "Men-Men" tizimida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, guruhiy trening jarayoni "Men"ga yo'l bo'lib, ishtirokchilar boshqalarning "Men"i orqali o'z "Men"lariga kirishlaridir.

L.M.Mitina [115] tomonidan ishlab chiqilgan xulqni o'zgartirishning konstruktiv modeliga asoslangan holda, biz trening ishtirokchilaridagi intellektual faoliyatda anganganlikni rivojlantirish to'rt bosqichdan: tayyorgarlik, anglash, qayta baholash, xattiharakatdan iboratligini isbotlashga urindik.

Ushbu model anglashning asosiy jarayonlarini umumlashtiradi. Masalan: motivasion (1-bosqich), kognitiv (2-bosqich), affektiv (3-bosqich) va xulq-atvor (4-bosqich)dan iboratdir (6-rasm).

Nº	Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich	To'rtinichi bosqich
1	Motivasion	Kognitiv	Affektiv	Xulq-atvor

O'smirlarda buzg'unchi g'oya va mafkurlar ta'siri ro'y beriganida o'zini o'zi nazorat qilishga qaratilgan psixologik treninglarni L.A.Petrovskayaning quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilinishi maqsadga muvofiq [125];

a) "shu yerda va hozir" – guruhda har bir aniq vaqtida, ayni damda bo'lgan holatlarni muhokama qilish, umumiy va mavhum holatlardan qochish;

b) voqealarning "Men" tomonidan aytilishi – umumiy mushohadalar, ya'ni, "bizning fikrimizcha", "men shunday deb o'ylayman" kabi jumlalarni qo'llash;

v) hissiyotlarga urg'u berish – o'zgalarning harakatlarini baholamasdan, shaxsan nima his qilinganini aytib o'tish;

g) guruhdagi har bir a'zoning o'zaro hamkorlikda faol ishtirok etishi va tashabbus ko'rsata bilishi;

d) samimiy muloqot jarayonidagi emotsiya va holatlarni sir saqlash va tashqariga olib chiqmaslik.

K.Rudestam va M.Vachkovlar tomonidan o'smirlarda yot begona g'oyalari ta'siriga berilmaslik uchun o'zini o'zi nazorat qilishda psixologik treningning guruhiy shaklini qo'llash lozimligi ta'kidlanadi. Guruhiy faoliyat shaklining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud [134]:

1. Guruh jamiyatni miniatyura tarzida aks ettiradi va shuning uchun undagi munosabatlar tizimi ijtimoiy malakalarning shakllanishiga turki bo'ladi.

2. Guruh ishtirokchilari yangi malakalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda o'z tengdoshlarining turli muloqot uslublarini o'rjanib oladi.

3. Ishtirokchilar o'zlarini boshqalar bilan identifikatsiyalashlari mumkin, ular guruhda o'zaro qo'llab-quvvatlashni his qiladilar.

4. Guruhiy tajriba shaxslararo muammolarni hal qilishga va o'zgalar bilan do'stona munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

5. Guruhiy faoliyat uning ishtirokchilariga o'zini o'zi anglash, o'zining qadriyatlar tizimini, o'zini o'zi tatbiq qilish, boshqarish va o'zining yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

6. Guruhiy o'zaro hamkorlik uning ishtirokchilariga psixologik muammolarni aniqlashtirish va konstruktiv hal qilishga yordam beradi.

7. Guruhiy faoliyat shaklida bir vaqtida bir necha ishtirokchilar bilan ishslash imkoniyatining mavjudligi uning individual ish uslubidan afzalligini belgilab beradi.

Psixologik treninglar turli-tuman bo‘lib, ularni tasniflash turlicha mezonlarga asoslanadi. Agar psixologik trening maqsadidan kelib chiqqan holda tasniflaydigan bo‘lsak, ularni shartli ravishda aniq malakalarni shakllantirish treninglaridan tortib, to shaxsiy rivojlanish treninglarigacha ajratish mumkin. Birinchi holatda trening shaxs o‘zgarishiga olib keluvchi aniq xulq-atvor namunalarini shakllantirish omili bo‘lib gavdalansa, ikkinchi holatda asosiy samara ichki sohada kuzatiladi, ya’ni dastlab shaxsning ichki dunyosi (o‘zini o‘zi baholash, motivatsiya, qadriyatlar tizimi va boshqalar), keyin esa xulq-atvor o‘zgaradi. Shu bilan bir qatorda treningning samaradorlik mezonlari ham bir-biridan farqlanadi: ayrim mezonlar ob’ektivdir (masalan, ishtirokchilarda qandaydir malakaning shakllanganlik darjasи), boshqa ba’zi mezonlar sub’ektivdir (masalan, ishtirokchilarning o‘z shaxsiy holatidagi o‘zgarishlar haqidagi hiskechinmalar).

Butun trening jarayonidan avval ham, alohida trening mashg‘ulotlarini tashkil qilishdan oldin ham, maqsadni aniqlab olish va talabga javob beradigan vazifalarni shakllantirish zarur. O‘smirlarda yot, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllanishida ularning o‘z xulq-atvorlarini, o‘zini o‘zi nazorat qilishini, o‘zining o‘zligi, ya’ni milliy xarakteri, qadriyatlar tizimi, urf-odatlari, ijtimoiy normalari, daxldorlik, bunyodkorlik, insonparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan treninglarda, odatda, quyidagi maqsadlar guruhi ko‘zlanadi:

1. Odamlar bilan samarali va samimiy munosabat o‘rnatish uchun shaxslararo o‘zaro hamkorlik uslublari, mexanizmlari hamda psixologik qonuniyatlarini o‘rganish;

2. O‘zining milliy qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, ijtimoiy normalar, milliy xarakter xususiyatlarini anglash asosida yot, begona, vayronkor hamda buzg‘unchi g‘oya va mafkuraviy informatsiyalarni saralay olishi;

3. Shaxs taraqqiyoti jarayoniga ta’sir o‘tkazish, ijodiy imkoniyatni yuzaga chiqarish, turmush darajasini, omad va baxt hissini optimal darajaga yetkazish;

4. Ichki dunyo va xulq-atvordagi o‘zgarishlar asosida kelib chiqadigan emotsiyal buzilishlarda o‘zini o‘zi anglab yetish va o‘zining ustida ishlashni rivojlantirish;

5. Guruh ishtirokchilarining psixologik muammolarini izlash va ularni hal qilishga yordam berish;

6. Bunyodkor – ijobiy motivatsiyalarni shakllantirish, buzg‘unchi –salbiy motivatsiyalarni korreksiyalash xususiyatlarga olib kelish;

7. Psixologik salomatlikni mustahkamlash.

O‘smirlar bilan trening mashg‘ulotlarini tashkil qilish bir qator qoidalarga binoan amalga oshiriladi. Xususan, bugungi kunda o‘smirlar bilan tashkil qilinadigan trening mashg‘ulotlarini A.G.Gresovning quyidagi tamoyillarga asoslanib tashkil qilish ham maqsadga muvofiq [61].

1. Guruhiy treningga umumiy va maxsus bilimlarni hamda kasbiy qobiliyatlarni shakllantiruvchi vosita, psixoterapevtik usullar yordamida shaxsning shakllanishi va yuksalishi uchun sharoit yaratib beruvchi omil sifatida qaraladi. O‘smir shaxsining yuksalishi, buzg‘unchi ta’sirlarga qarshi g‘oyaviy kurashchanlik uchun o‘tkaziladigan treninglar ta’limiy va terapevtik maqsadlarda qo‘llaniladigan trening mashg‘ulotlarining ko‘pgina elementlarini o‘zida mujassamlashtirgani bilan ular toifasiga kirmaydi. O‘smir shaxsining yuksalishi uchun qo‘llaniladigan treninglarda “nima bo‘lishidan qat’i nazar shakllantirish” maqsadiga erishish uchun qat’iy talabdan voz kechilishi mumkin. Treningni o‘smirlar bilan olib boriluvchi umumiy shakllantiruvchi va profilaktik faoliyatning bir shakli sifatida ham tushunish mumkin.

2. O‘smirlar bilan olib boriladigan treninglar turli muammo va davrlarga yo‘nalganligi bilan ajralib turadi.

3. O‘smir shaxsi yuksalishi uchun olib boriladigan guruhiy treninglarning maxsus yosh davrlariga yo‘nalganligi ularning tub mohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

4. Shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarda turli yoshdagi o‘smirlarning bir guruhda bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Sun’iy ravishda tashkil qilingan yoki trenerning nazorati ostida tabiiy yuzaga keltirilgan vaziyatlar o‘smir shaxsini barkamollashtiruvchi treninglarning negizi va ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi.

6. O'smirning shaxs sifatidagi yuksalishi guruh bilan trening boshqaruvchisining munosabatlardagi demokratizm darajasiga bog'liq bo'ladi. Munosabatlardagi demokratizmni ifodalovchi belgilar quyidagilardir:

a) trening jarayonida ishtirokchilarning bir-biriga nisbatan hurmat namoyon etib murojaat qilishi;

b) trening jarayonida o'smirlarning to'liq erkinligi, o'smirning o'zi guruhda qolish yoki qolmasligi, mashg'ulotlarda ishtirok etishi yoki etmasligi haqida qaror qabul qilishi;

v) guruhiy qarorlarni qabul qilishda o'smirning huquqlarini poymol qilmaslik;

g) mashg'ulotning kechishiga qarab trening boshqaruvchisi o'smirlar erkinligini biroz cheklashi.

7. O'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishiga qaratilgan treninglar ta'sir etiladigan doirasiga ko'ra 6-10ta mashg'ulotdan iborat bo'lib, ularning har biri 2 soat davom etadi. Aksariyat hollarda mashg'ulotlar haftasiga bir marotaba tashkil qilinadi, ammo haftasiga 2-3ta mashg'ulot uyuştirilgan holatlar ham bo'ladi. Agar mashg'ulotlar har kuni yoki 2-3 haftada bir marta bo'lsa, trening samarasiz natijaga olib kelishi mumkin. Bir kunda 2ta yoki 3ta guruhda trening mashg'ulotini olib borish ham maqsadga muvofiq emas, chunki bu trenerda emotsional zo'riqishni keltirib chiqaradi.

Biz tadqiqotimiz ob'ekti, maqsad va vazifalariga muvofiq ijtimoiy-psixologik trening dasturini shakllantirishga erishdik [194].

Ushbu rivojlantiruvchi dasturni amaliyotda tatbiq etishda alohida va o'zaro izchillikda foydalanish ham nazarda tutilgan. Dasturdagi har xil guruh a'zolarining ishtiroki ko'zda tutilganligi ishtirokchilarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Ular kutilmagan vaziyatlarga, notanish kishilar va muhitga duch kelishlari, professional moslashuv uchun sharoitlar tanlashga, yangi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

O'tgan bobda o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalari empirik o'rganilganda, mafkuraviy immunitet turli xil darajada kamol topganligiga guvoh bo'lindi. Bu esa bugungi globallashuv sharoitida ruhan va ma'nani sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni turli xil balo-yu qazolar ya'ni yot, buzg'unchi hamda vayronkor oqimlar ta'siridan asrash

maqsadimizning ahamiyatini yanada oshirish va ta'minlash uchun maxsus yondashuvni taqozo etadi. Buning uchun biz tomondan ishlab chiqilgan o'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllanishining ta'sirchan ijtimoiy-psixologik trening dasturlariga tayanish muhimdir [194]. Dasturni amalga oshirish tizimi uch bosqichdan iborat. Uning bat afsil holati quyida taqdim etiladi.

Quyida ijtimoiy-psixologik trening dasturi davomida har bir bosqich bo'yicha qilinadigan ishlar, mashg'ulotlarning mazmunini aniqlashtirishga harakat qildik [194].

I. Shaxs xususiyatlarida bunyodkor va insonparvar g'oyalarga yo'nalganlik, vayronkor g'oya va buzg'unchi mafkuralarga qarshi g'oyaviy kurashchanlik, axborotlarni saralay olish kabi sifatlarni rivojlantrishga qaratilgan trening mashg'ulotlari.

Maqsad: shaxsning o'zini o'zi anglash, milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini tushunish malakalarini hosil qilish.

Vazifalar:

1. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini anglash va tushunish;
2. O'zini o'zi anglashning hamda o'zining ichki olamiga yo'nalganlikning rivojlanishini jadallashtirish;
3. Bunyodkor, insonparvar hamda buzg'unchi va vayronkor g'oyalarni ajrata olish, ularning oqibatlarini anglash;
4. Milliy xarakter, milliy qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, milliy madaniyatlar tizimini anglash, buzg'unchi ommaviy madaniyat illatlarini anglash;
5. Shaxsiy sifat va imkoniyatlarni hamda o'zgalarning shaxsiy sifat va imkoniyatlarini tushunib yetish qobiliyatining rivojlanishini stimullashtirish.

Shaxs xususiyatlaridagi bunyodkor va insonparvar g'oyalarga yo'nalganlik, vayronkor g'oya va buzg'unchi mafkuralarga qarshi g'oyaviy kurashchanlik, axborotni saralay olish kabi sifatlarni rivojlantrishga qaratilgan trening mashg'ulotlari quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Diagnostikaga yo'naltirilgan bosqich. Ushbu bosqich treningning dastlabki mashg'uloti bo'lganligi uchun mashg'ulot avvalida guruhni shakllantirish, guruhiy me'yorlarni ishlab chiqish va o'smirlarning shaxsiy xususiyatlaridagi bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarga yo'nalganligini diagnostika qilish muhimdir. Bu o'z

navbatida o'smirlar va ularning shaxsiy qobiliyatlari bilan tabiiy jarayonda amalga oshadi.

2. Asosiy bosqich. Shaxsda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajalarining birlamchi va ikkilamchi sifatlarini aniqlashga qaratilgan bosqich. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi milliy g'oyalarni anglash bilan yot, buzg'unchi, vayronkor g'oya va mafkuralarni ajrata olish, o'zini o'zi anglashni rivojlantirishdan iborat.

3. Yakunlovchi bosqich. Ushbu bosqichda o'smirlar shaxsida barqaror mafkuraviy immunitet yaxlit portreti hosil qilinadi.

II. Mafkuraviy xurujlar vaqtida emotsiyal holatlarni boshqarishni o'rgatishga qaratilgan trening mashg'ulotlari

Maqsad: o'smirlarda sun'iy ravishda vayronkor va buzg'unchi mafkuralar xuruji uyuştiriladi. Bu vaziyatlarda ularning emotsiya va hissiyotlarini aqlan boshqarish va qarshi g'oyaviy kurashchanlikka safarbar qilish ko'nikmalari haqidagi bilimlar kengaytiriladi.

Vazifalar:

1. Emotsiyalar bilan tanishish.
2. Emotsiyalarning namoyon bo'lish xususiyatlarini anglash.

3. Emotsiyalarni ijtimoiy ma'qullangan shaklda buzg'unchi, vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi namoyon qilish yo'llarini izlash.

Mafkuraviy xurujlar vaqtida emotsiyal holatlarni boshqarishga qaratilgan trening mashg'ulotlarining quyidagi o'ziga xosliklari mavjud:

a) faoliyat jarayonida ishtirokchilardan samimiylilik va oshkoraliq talab etiladi, buning uchun guruhi jipslashgan bo'lishi lozim;

b) mashg'ulotlar davomida trenerdan katta mas'uliyat talab qilinib, u guruhdagi o'zaro ishonchni saqlab turishi kerak;

v) emotsiyal muammolar mashg'ulotlar davomida niqoblangan o'yinlar, mashqlar orqali ko'rsatib berilishi darkor.

Ushbu bo'lim quyidagi bosqichlardan iborat:

1. O'smirlar ongini zaharlash xususiyatiga ega bo'lgan yot, vayronkor hamda buzg'unchi g'oya va mafkuraviy ta'sirlar yuzaga keltiradigan emotsiyalar bilan yaqindan tanishib, uning yashirin maqsadlarini anglab yetish. Bu bosqichda o'smirlarning emotsiya va hissiyotlarini aqlan boshqarish va qarshi g'oyaviy kurashchanlikka safarbar qilish ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Shunga

muvofig, ular haqidagi, ya’ni buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralar to‘g‘risida tasavvurlar kengayadi hamda ularga nisbatan aniq strategik xususiyatga ega bo‘lgan g‘oyaviy kurashchanlik munosabatlar tizimi bo‘lmish mafkuraviy immunitet shakllanadi.

2. Emotsiyalarning namoyon bo‘lish xususiyatlarini anglash. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi ishtirokchilarda o‘zining va o‘zgalarning emotsiyal holatini bilib olish malakalarini shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga turli emotsiyal holatlarni tasvirlash orqali erishish ko‘zda tutiladi.

3. Emotsiyalarni namoyon qilish usullari qismidagi mashg‘ulotlarda asosiy e’tibor ayrim emotsiyalar va ularning ijobiy tarzda namoyon bo‘lish usullariga qaratiladi (ayniqsa, emotsiyalar differensiatsiyasiga alohida e’tibor beriladi).

III-Axborot xurujlari vaziyatida o‘zini o‘zi nazorat qilishga yo‘naltirilgan trening mashg‘ulotlari

Maqsad: eksternal vaziyatlarda, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar ta’siri vaqtida o‘smir emotsiyal holatlarida o‘zini o‘zi nazorat qilish, ya’ni shaxsiy hissiyot va psixologik holatni yaxshi boshqara olish, impulsivlik, shoshqaloqlik, nizolanuvchanlik holatlarini nazorat qilish va barcha bilimlarini yot g‘oyalarga qarshi g‘oyaviy kurashchanlikka yo‘naltirish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Vazifalar:

1. O‘smirlarda buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar ta’siri vaqtida o‘zini o‘zi nazorat qilishning psixologik mexanizmlariga mos mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish.

2. G‘oyaviy kurashchanlikka yo‘naltirilgan shaxsiy emotsiyalarini boshqara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. O‘smirlarda o‘z emotsiyalarini nazorat qilish orqali o‘zgalarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalarga ta’sir o‘tkaza olish qobiliyatini shakllantirish.

Buzg‘unchi mafkuralar ta’siri vaqtida o‘smirlarda emotsiyal jihatdan o‘zini o‘zi nazorat qilishga qaratilgan mashg‘ulotlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Diagnostikaga yo‘naltirilgan bosqich. Bunda trening mashg‘ulotlarining maqsad va vazifalarini aniqlash, guruhiy

me'yorlar va mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish maqsadi ko'zlanadi.

2. Asosiy bosqich. Bunda buzg'unchi mafkuralar ta'siri vaqtida o'smir emotsional holatlarda o'zini o'zi nazorat qilishning psixologik mexanizmlari haqida yaxlit tasavvur hosil qilinadi.

3. Yakunlovchi bosqich. Bunda o'smirlarda buzg'unchi g'oyalar ta'siri vaqtida o'zini o'zi nazorat qilish hamda g'oyaviy kurashchanlik malakalari rivojlantiriladi.

Biz tomondan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik trening mashg'ulotlari ilova qilinadi.

2. Tajriba va nazorat ob'ektlaridan olingan empirik ma'lumotlar tahlili

Ma'lumki, o'smirlik davrida jamiyatdagi turfa xil yot g'oyalar, fikrlarga nisbatan ta'sirchan mexanizmni hosil qilish muhim sanaladi. Ayniqsa, ular bilan tashkil qilinadigan psixokorreksion dasturning samaradorligini aniqlashdan iborat. Ishlab chiqilgan va qo'lanilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturining (*I-ilova*) samaradorligini o'rganish maqsadida o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanganligini o'rganishga qaratilgan so'rovnomalar o'tkazilib, natijalar tahlili amalga oshirildi.

Biz tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik trening Toshkent shahar Uchtepa tumanida joylashgan 283-maktabning jami 62 nafar o'smir o'quvchilar ishtirokida o'tkazildi. Ijtimoiy-psixologik trening dasturi asosida quyidagi o'smirlar orasida hammasi bo'lib 18 ta seminar-trening o'tkazildi, har haftada 3 tadan trening mashg'ulotlari, jami 6 hafta davomida 36 soatni tashkil etdi.

Ijtimoiy-trening dasturining bosqichlari	Mashg'ulotlar nomi	Maqsad	Soat
I-Bosqich O'smirlarda bunyodkor va insonparvar g'oyalarga yo'nalganlik,	"Xatar chizig'i"	bunyodkor g'oyalar shaxsda ijobiy motivatsiyalarni, buzg'unchi g'oya va mafkuralar esa salbiy motivatsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin ekanligini	2 soat

vayronkor g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarga qarshi g‘oyaviy kurashuvchanlik, axborotlarni saralay olish va rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlari majmuasi	anglashdan iborat	
	“20 marta men”	o‘zning xulq-atvorida ustuvorlik qilayotgan buniyodkor yoki buzg‘unchi g‘oyalarni anglash
	“Savatcha”	milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini yanada ochiqroq va tushunarli darajada anglash
	“O‘smir sifatidagi mening g‘oyalarim	o‘zi haqidagi tasavvurlari, g‘oyalarining ijobiy yoki salbiyligini aniqlashtirish
	“Giyohvand taqdiri”	narkotik moddalar iste’mol qiluvchi odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish
	“Ezgulik elchisi”	“yovuzlik” elchilariga nisbatan g‘oyaviy kurashuvchanlik va barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish
II-Bosqich Mafkuraviy xurujlar ta’siri vaqtida emotsional holatlarni boshqarishga	“O‘zimni qanday tasavvur qilaman?”	o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglab yetish ko‘nikmalarini shakllantirish
	“Niqobni angla”	tetiklashtirish va guruh bo‘lib ishlash uchun tayyorlash, ishtirokchilarning o‘zlariga ma’qul bo‘lmagan kayfiyatdan, ya’ni buzg‘unchi g‘oyaviy ta’sirlar yuzaga keltiruvchi emotsional

o‘rgatish uchun xizmat qiluvchi trening mashg‘ulotlari		holatlarni bartaraf etish	
	“G‘oyaviy hissiyotlarni sanaymiz”	trening ishtirokchilarining ijobiyligi va salbiy g‘oyalalar ta’siri vaqtida yuzaga keluvchi emotsiya borasidagi so‘z boyligini oshirish	2 soat
	“Qaytarish mashqi”	o‘smir shaxsida ijobiyligi yoki salbiy g‘oyalarni eshtish orqali yuzaga keladigan hissiy holatlarning namoyon bo‘lishi va o‘zga insonlarda mazkur g‘oyalalar bilan ro‘y beradigan emotsiyalardan holatlarni anglash qobiliyatini rivojlantirish.	2 soat
	“Hissiyotni top”	insonlarda bunyodkor yoki buzg‘unchi g‘oyalari bilan kechadigan emotsiyalardan holatlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish	2 soat
III-Bosqich Axborot xurujlari vaziyatida o‘zini o‘zi nazorat qilishga yo‘naltirilgan trening	“G‘oyaga qarshi – g‘oya”	o‘smir shaxsida xulq-atvor va xatti-harakatlarni nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.	2 soat
	“Ta’qiqlangan g‘oya”	taqiqlangan g‘oya nimaga taqiqlanganligini, uning buzg‘unchilik va vayronkorlik xususiyatlarini anglash va shu asosda ularda mafkuraviy immunitet	2 soat

mashg‘ulotlari		kuchayishi ko‘zda tutiladi.	
	“Mening samimiy bo‘la olish qobiliyatim”	shaxsning o‘zini o‘zi, ijobiy va salbiy g‘oyalarni anglashi hamda o‘zga insonlarda kechayotgan psixologik kechinmalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish	2 soat
	“Mening 10 ta kamchiligidim”	o‘smirlarda shaxs sifatlarini shakllantirish hamda o‘zini o‘zi anglash mexanizmlarini rivojlantirshdan iborat	2 soat
	“Avlodlar o‘rtasidagi nizo”	ishtirokchilarda o‘z milliy qadriyatlarining qadrini anglanilishiga erishish.	2 soat
	“Men hech qachon....maganma n	ishtirokchilarda buzg‘unchi g‘oya va mafkuralarga nisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish	2 soat
	“Qadriyatlar”	shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasi tuzilishi muhimligining ahamiyatlilik darajasini his qilish va anglash	2 soat
Jami:			36

Biz ijtimoiy-psixologik trening dastur o‘tkazganimizdan so‘ng o‘smirlarning xulq-atvorida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan yoki bo‘lmanligini tahlil qilamiz. Birinchin navbatda, psixologik himoya

mexanizmlari bo‘yicha natijalar tahlilini kuzatamiz, olingan ma’lumotlarning tahlilida kuzatishimiz mumkinki, korreksion dasturdan so‘ng bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘lgan (13-jadval).

**Psixologik himoya mexanizmlarining korreksion dasturidan
oldingi va keyingi holatidagi farqlar (n=62)**

Shkalalar	Korreksiyadan oldin	Korreksiyadan keyin	t	Ishonch darjası
siqib chiqarish	7,5484	5,2581	9,656	0,000
regressiya	6,0161	4,6452	6,174	0,000
kompensatsiya	6,7903	6,0484	4,133	0,000
proeksiya	5,6290	5,1935	2,971	0,004
o‘rin almashtirish	8,7742	6,0323	8,816	0,000
rasionalizatsiya	6,3548	5,3548	5,198	0,000
reakтив tuzilma	7,1935	6,6613	3,673	0,001


Siqib chiqarish shkalasi bo‘yicha o‘smirlarning ko‘rsatkichlari pasaygan, ya’ni siqib chiqarish qo‘rquv holatida vujudga keladi va aggressorning ta’siriga tushib qolish mumkinligini ko‘rsatadi. Aynan trening mashg‘ulotlardan so‘ng tazyiqlarga javob berish holatlari tiklangan ya’ni o‘smirlar kerakli javoblarni berishni o‘rgangan ($t=-9,561$; $p<0.001$). Regressiya shkalasida ham ijobiy tomonga o‘zgarishlar kuzatilganligini aniqlandi ($t=6,174$; $p<0.001$). Regressiya o‘ziga ishonchsizlik natijasida vujudga keladi, o‘smirlar yoshlikda g‘oyalar bergenida ularning g‘oyalari qabul qilinmasligi regressiyaning oshishiga olib kelgan, biz o‘tkazgan mashg‘ulotlardan so‘ng ularda regressiyaning kamayishini kuzatdik. Kompensatsiya shkalasi bo‘yicha ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi ($t=-9,561$; $p<0.001$). Bu shkala yo‘qotishlar, yetishmovchiliklar kamchiliklarning o‘rnini to‘ldirishda foydalaniladi, bunda o‘smirlarda yo‘qotishdan qo‘rqib, o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holatlari kuzatilishi mumkin, aynan trening mashg‘ulotlarimizdan so‘ng kompensatsiya holatlari ham kamayganligini, ya’ni psixologik himoya kamayganligini kuzatishimiz mumkin ($t=4,133$; $p<0.001$).

Proeksiya shkalasida ham ijobiy tomonga o‘zgarish kuzatildi ($t=2,971$; $p<0.01$). Bu shkala boshqalar tomonidan tan olinmagan holatlarda vujudga keladi, boshqalarning tan olmasligi o‘smirlarda o‘ziga ishonch kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan, aynan shu himoya mexanizmining ham pasayganligini kuzatdik.

O‘rin almashtirish shkalasi bo‘yicha ham ijobiy holatlar kuzatildi ($t=8,81$; $p<0.001$). Bu shkalada agressiya ko‘rsatishga kimnidir topib, shunga agressiyani ko‘rsatishga intiladi, aynan shu holatlar uni boshqalar tomonidan salbiy tahlil etishga undaydi, bizning korreksion dasturimizdan so‘ng o‘smlarda o‘rin almashtirish pasayganligini kuzatishimiz mumkin.

Rasionalizatsiya shkalasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi ($t=5,198$; $p<0.001$). Emotsiyalarning bostirilishi natijasida yuzaga keladi, emotsiyalarni namoyish qilish holatlari oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Reaktiv tuzilma shkalasi bo‘yicha ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi ($t=3,67$; $p<0.001$). Ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishini nazorat qiladigan shkalalardan biri hisoblanadi, Reaktiv tuzilmama’lum bir ob’ektlar ta’sirida shaklanib quvonchni bostirish natijasida paydo bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan holatlarda psixologik himoya mexanizmlari kamayganagini kuzatishimiz mumkin. Bu holatlarni quyida keltirilgan diagrammada yaqqolroq kuzatishimiz mumkin (7-rasm).



7-rasm. Psixologik himoya mexanizmlarining korreksion dasturdan oldingi va keyingi holatidagi farqlar diagramma ko‘rinishida

Yanov-Bulmanning “Tayanch e’tiqodlar” metodikasi bo‘yicha ham bir qator o‘zgarishlar kuzatildi (14-jadval).

14-jadval

Tayanch e'tiqodlarning korreksion dasturdan oldingi va keyingi holatidagi farqlar(n=62)

Shkalalar	Korreksiyadan oldingi	Korreksiyadan keyingi	t	Ishonch darajasi
hayotning odilligi	2,8548	3,2742	-5,148	0,000
hayotning boshqaruvchanligi	2,7903	3,0968	-4,547	0,000

Hayotning odilligi ($t=-5,148$; $p<0.001$) shkalasida ijobiy tomonga o'zgarishlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin, bunda hayotning odilligiga ishonish ortgani aniqlandi.

Hayotning boshqaruvchanligi shkalasi bo'yicha ijobiy holatlar kuzatilganligini ko'rdik ($t=-4,547$; $p<0.001$). O'smirlarimizda boshqaruvchanlikka ishonish ortganini kuzatishimiz mumkin, buni biz keyingi jadvalda yaqqol ko'ramiz.

Mafkuraviy immunitetning oshishida korreksion dasturnining o'rni mavjudmi yoki yo'qligini kuzatishimiz mumkin.

O'smirlar mafkuraviy immunitet tushunchasini bilishi ($t=-4,547$; $p<0.001$) korreksion dasturdan so'ng oshganini kuzatishimiz mumkin (15-jadval).


15-jadval

Aholining tahdidlardan habardorlik darajalarini baholash so'rovnomasining korreksion dasturdan oldingi va keyingi holatidagi farqlar (n=62)

Shkalalar	Korreksiyadan oldingi	Korreksiyadan keyingi	t	Ishonch darajasi
Mafkuraviy immunitet tushunchasini bilishi	3,1290	3,8387	3,301	0,001
Mafkuraviy immunitet shakllanganligi	3,4194	3,9677	3,140	0,003
Mafkuraviy immunitet	3,4194	3,9355	-2,026	0,047

shakllantirishga munosabati				
Mafkuraviy immunitet shakllantirishda psixologik bilimlarning o‘rnini	3,7742	3,3871	2,754	0,008

Mafkuraviy immunitetning shakllanganligi ham korreksion dasturidan so‘ng oshganligini kuzatishimiz mumkin ($t=-3,140$; $p<0.01$). Mafkuraviy immunitet shakllanishiga munosabat ham ijobiy tomonga o‘zgarganligini kuzatishimiz mumkin ($t=-2,026$; $p<0.05$). Mafkuraviy immunitet shakllantirishda psixologik bilimlarning o‘rnida ($t=-2,754$; $p<0.01$) ham ijobiy tomonga o‘zgarishlar bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. Bu holatlarni biz keyingi rasmda kuzatishimiz mumkin (8-rasm).



8-rasm. Mafkuraviy immunitet tushunchasini korreksiyadan oldin va korreksiyadan keyingi holati.

Mazkur ijtimoiy-psixologik dastur o‘smirlarda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirishning optimallashtirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur dastur quyidagi vazifalarni ko‘zlagan:

- dastur o'smirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishiga mo'ljallanganligi;
- ishtirokchilarning bir jamoa bo'lib, daxldorlik, mas'uliyat va burchlarni to'laqonli his qilinishiga olib kelish;
- qo'llanilishi va vaqt tejamkorligining inobatga olinishi;
- jamoada sog'lom psixologik va ma'naviy muhitni yaxshilashga qaratilgan mashqlardan foydalanish;
- mashg'ulotlarda qaytar aloqaning kommunikatorlik va resept mas'uliyatining yo'lga qo'yilganligi;
- ishtirokchilardan ortiqcha vaqt talab qilmaslik;
- natijalarni qayd etishning shakllantirilganligi;
- mashg'ulotlarda persepsiya (bir-birini idrok qilishi, tushunishi), interaksiya (birkalidagi harakat va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish) va didaktik (murakkab qiyin muammolarning oson va sodda yo'l bilan tushunilishiga olib kelinishi) taktni qo'llanishi;
- o'smirlarda qadriyatlar tizimini, tayanch etiqodlar shkallalarni mustahkamlash, yot, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarga nisbatan ongli kurashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirish;
- muammoning yechimini topish imkoniyatini namoyon eta olganligi.

Olib borilgan nazariy hamda empirik tahlillar o'smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari ko'rsatkichlariga muallif tomonidan taqdim etilgan diagnostik va psixokorreksion apparat orqali adekvat baho berish mumkinligini ko'rsatdi.

Bob bo'yicha xulosa

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar qayd qilindi.

- tadqiqotimiz davomida o'smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishda ularda yot, buzg'unchi va vayronkor g'oya hamda mafkuralarga qarshi psixologik ta'sirchan dasturning ishlab chiqilganligi va unda ishtirok qilgan o'smirlarda mafkuraviy immunitetning mustahkamlanishi hamda mafkuraviy pozisiyalarni ilgari sura olish ko'rikmalarini rivojlantirishi bilan o'z ahamiyatini namoyon qildi;

- psixologik targ‘ibot tizimi, mazmuni va yo‘nalishi bo‘yicha o‘smirlarda yuksak g‘oyaviy sobitlik, bunyondkor va insonparvarlikka asoslangan mafkuraviy immunitet mustaqilligimiz dushmanlarining dezinformasion xurujlariga qarshi murosasiz mafkuraviy pozisiyani shakllantirishga, ya’ni yot g‘oyalar va qarashlarga dalillar asosida qarshilik ko‘rsatishni o‘rgatishga qaratilganligini rivojlantirishni ko‘zda tutilganligi;

- o‘smirlar uchun ishlab chiqilgan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish va rivojlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy-psixotrening dasturining o‘smirlarda muntazzam o‘tkazilib borilishi, ularda mafkuraviy jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish hamda ularga qarshi o‘zining ruhiy og‘ishlarsiz munosabat bildira olish ko‘nikmasining muvaffaqiyatli kechish qonuniyatini yuzaga keltirishi bilan xarakterlandi;

- mafkuraviy immunitet shakllanishning psixologik omillari bilan o‘smir shaxsining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatlar bu borada olib borilayotgan ishlarda o‘ziga xos tafovutlar kuzatilganligi, o‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ularda muqarrar yuzaga keladigan psixologik, fiziologik, ijtimoiy qiyinchiliklarni hisobga olgan holda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishining ta’sirchan psixologik chora-tadbirlarini amaliyotda qo‘llash muhim ekanligini ko‘rsatdi;

- o‘smirlar ijtimoiy-psixologik korreksion dasturdan o‘tkazilganidan so‘ng mafkuraviy immunitet shakllanishining sezilarli darajada o‘zgarganligini kuzatishimiz mumkin;

- olib borilgan nazariy hamda empirik tahlillar o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari ko‘rsatkichlariga muallif tomonidan taqdim etilgan diagnostik va psixokorreksion apparat orqali adekvat baho berish mumkinligini ko‘rsatdi.

- o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishiga qaratilgan psixotrening texnologiyalari mafkuraviy immunitet shakllantirishga qaratilgan ma’ruza texnologiyalariga nisbatan ko‘proq samaraliroq ekanligi isbotlandi.

ILOVALAR

1-ilova

Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet

shakllantirishning ijtimoiy-psixologik treninglar dasturi

I. O’smirlarda bunyodkor va insonparvar g’oyalarga yo‘nalganlik, vayronkor g’oya va buzg‘unchi mafkuralarga qarshi g‘oyaviy kurashuvchanlik, axborotlarni saralay olish va rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlari majmuasi

“Xatar chizig‘i” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: guruh a’zolari o‘rtasida bunyodkor g‘oyalar shaxsda ijobiy motivatsiyalarni, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar esa salbiy motivatsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin ekanligini anglashdan iborat. Shu bilan birga, mazkur treningda o’smirlarda bunyodkor, insonparvar g‘oyalarga nisbatan intilish, yot, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga nisbatan esa mafkuraviy immunitet, g‘oyaviy kurashuvchanlik psixologik qonuniyati yuz beradi.

Ushbu mashg‘ulot dastlabki kunlarda o‘tkaziladi va guruhdagi ijobiy muhitni hamda ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro ishonch hissini yaratishga xizmat qiladi. Trener uchun ushbu mashg‘ulot diagnostik maqsadga ham ega bo‘lishi lozim.

Ko‘rsatma: ishtirokchilar soni 8-15 tani tashkil qilishi mumkin. Treningga jalb qilingan ishtirokchilar soniga qarab insonlar hayotiga xavf soluvchi va farovonlik keltiruvchi, bunyodkorlikka va vayronkorlikka undovchi omillar nomi yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

Polga “xatar chizig‘i” chiziladi.

Chiziqning bir tomoniga “Farovonlik”, “Bunyodkorlik” boshqa tomoniga “Xatar”, “Vayronkorlik” o‘rtaga esa “Neytral holat” deb yozilgan kartochkalar qo‘yib chiqiladi.

Фаровонлик

Нейтрал ҳолат

Хатар

Бунёдкорлик

Нейтрал ҳолат

Вайронкорлик

Har bir ishtirokchiga bittadan kartochka tarqatiladi. Kartochkalarda Tinchlik. Shodlik. Missionerlik. Egotsentrizm. Hasad. Sotqinlik. Urush kabi yozuvlar bo‘lishi mumkin.

Har bir ishtirokchi navbatma-navbat kartochkalardagi yozuvni o‘qib, uni chiziqning yozuvi atrofiga ma’nosiga mos tarzda, ya’ni “farovonlik”dan “xatar” gacha qo‘yib chiqadi. Bu quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

1-Ko‘rinish



2-ko‘rinish



2-varianti.

Ishtirokchilar 2 guruhgaga bo‘linadilar. Ikkala guruh bir xil kartochkalarni oladi. Har bir guruh o‘zining "xatar chizig‘i"ni quradi. Trener 2 guruh natijalarini solishtiradi. Munozara qilinadi va natijada to‘g‘ri "xatar chizig‘i" quriladi.

“20 marta men” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: guruh a’zolari o‘rtasida birlilikdagi faoliyat va samimiy munosabat hamda o‘zini o‘zi anglashni, o‘zning xulq-atvorida, xarakterida ustuvorlik qilayotgan bunyodkor yoki buzg‘unchi g‘oyalarni tushunish va uni korreksiya qilishni tarkib toptirish.

Ko‘rsatma: “Men kimman?”, “Men qanday insonman?” degan savollarga 20 marta javob bering. Har bir savolga javobni “Men” olmoshi bilan boshlang (Masalan “Men mehnatsevarman”, “Men dangasaman”, “Men daxldorman”, “Men loqaydman” kabilar). Javobingizda o‘z qiziqishlaringiz, xarakteringiz, xislatlaringizga tayaning.

Agar ko‘rsatma bo‘yicha ishni yakunlagan bo‘lsangiz, qog‘ozlarni o‘z ko‘kragingizga yopishtirib oling. So‘ng guruh bo‘ylab harakatlanib, o‘zgalarning ko‘kraklariga yopishtirilgan qog‘ozlarni o‘qib chiqing. Qachonki, men “to‘xtang” desam shunda kimningdir yonida to‘xtab, o‘z javoblariningizni muhokama qiling.

“Savatcha” mashqi

Trening 30 minutga mo‘jalangan.

Maqsad: trening qatnashchilari mashg‘ulot vaqtida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini yanada ochiqroq va tushunarli darajada anglashi, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya hamda mafkuralarga nisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish. Mazkur trening psixodiognostik xususiyatga ham ega bo‘lib, u asosida o‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajasini bilish ham mumkin.

Ko‘rsatma: savatcha milliy, bunyodkor, insonparvar hamda yet, vayronkor, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar yozilgan kartochkalar bilan to‘ldiriladi. So‘ngra trening qatnashchilari 3 guruhga bo‘linadilar. Guruhlar o‘zlariga nom tanlashadi. Masalan:

1-guruh: Milliy g‘oya fidoyilari

2-guruh: Diniy ekstremistlar

3-guruh: “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari

Uch guruh ishtirokchilarning vazifasi oldilariga qo‘yilgan savatchadan o‘zlarining nomlariga, faoliyatlariga mos yozilgan kartochkalarni tanlab olishlari kerak bo‘ladi.

Masalan: “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari guruhi uchun – “o‘z madaniyatlarini eskilik sarqitiga yoyib, o‘zga madaniyatlarni yangilik deb qabul qilish”, “tatirovkalar chizdirish”, “erkin sevgini targ‘ib qilish” va x.k. javob variantlari.

Diniy ekstremistlar guruhi uchun – “axloqsizlik”, “jihod”, “qurbon qilish”, “terrorizm”, “xalifalik davlati”, “aqidaparastlik” va h.k. javob variantlari.

Milliy g‘oya fidoyilari guruhi uchun – Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, erkin fikr, mustahkam iroda va hokazo javob variantlari yozilgan kartochkalarni savatchadan 5 daqiqada saralab olishlari kerak.

Qaysi guruh to‘g‘ri javob kartochkalarini ko‘p yig‘sa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi. Trening davomida ishtirokchilar o‘z guruhlarini nomiga muvofiq bo‘lgan kartochkadagi g‘oyalarning foydali va

zararli oqibatlari haqida ma'lumot berishlari talab qilinadi. Trening oxirida trener ishtirokchilar yiqqan kartochkalarda ifodalangan mazmunga tushuntirish berib o'tadi.

Eslatma: savatchada uchta guruhga doir bo'lmagan boshqa javob variantlari ham bo'lishi va ular aralashtirib tashlangan bo'lishi kerak.

"O'smir sifatidagi mening g'oyalarim" mashqi

Trening 30 minutga mo'ljalangan.

Maqsad: o'smir shaxsining o'zi haqidagi tasavvurlari, g'oyalarining ijobiy yoki salbiyligini aniqlashtirish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va g'oviy kurashuvchanlik bilimlarini kengaytirishdan iborat.

Ko'rsatma: Barcha trening ishtirokchilari davra qurib o'tirishadi. Trener ishtirokchilarning shaxs xususiyatidagi kuchli tomonlarini hamda mafkuraviy immun tizimining shakllanganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan mashg'ulotni boshlaydi. Har bir trening ishtirokchisi 3-4 daqiqaga mo'ljallangan o'zining kuchli jihatlari va g'oyalari xususidagi hikoyasini aytib beradi. Nimani yoqtiradi, nimani qadrlaydi, o'zining qaysi sifatlarini ijobiy, qaysisini salbiy deb sanaydi, turli vaziyatlarda ichki ishonch hissini paydo qiladigan xususiyatlari to'g'risida fikr yuritadi. Faqat ijobiy xususiyatlar to'g'risida gapirish shart emas, turli hayotiy vaziyatlarda nima tayanchga aylanishi mumkinligini ta'kidlab o'tishi muhim. Keyin trener boshqalarga ham davra markazida o'zi haqida so'zlab bergen ishtirokchining qanday kuchli hamda ijobiy va salbiy g'oyalari borligi xususidagi fikrlarini aytib o'tishni taklif etadi.

Tahlilda shunga urg'u berish kerakki, o'z ustida ishlash – bu, nafaqat, zaif tomonlarni qidirish, balki inson o'zining kuchli ijobiy jihatlarini topishi hamdir. O'zining kuchli jihatlariga tayangan holda inson o'z ustida omilkor ishlashi yoki buzg'unchi, vayronkor g'oya va mafkuralarga nisbatan qat'iyatli, g'oyaviy kurashchanligi oshishi mumkinligi qayd etib o'tiladi. Bu yerda ishtirokchilarning o'zi haqidagi, guruhning ishtirokchisi haqidagi fikrlarini taqqoslash o'rinnlidir.

“Giyohvand taqdiri” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: Diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm o‘z maqsadlariga erishishda giyohvand moddalardan foydalanishini ishtirokchilar tushunib olishlariga erishish. Narkotik moddalar iste’mol qiluvchi odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish. Narkotik moddalar iste’moliga qarshi o‘smirlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish.

Ko‘rsatma: Guruh (8 tadan 16 tagacha) ishtirokchisining har biri uchun 12 qog‘oz kartochkalari (5ga 5 sm o‘lchamda)

Trener yozilmagan toza kartochkalarni tarqatib, ularga quyidagilarni yozishni aytadi:

1-bosqich. 4 ta kartochkaga – sevgan ovqatlarining nomini (osh, manti, sho‘rva, kabob)

2-bosqich. 4 ta kartochkaga – o‘zлari yoqtirgan mashg‘ulotlari, qiziqishlarini nomini (suzish, musiqa tinglash, kitob o‘qish, kompyuter o‘yinlarini o‘ynash.)

3-bosqich. 4 ta kartochkagaga – yaqin va sevimli bo‘lgan insonlar nomini yozish. (onam, otam, akam, o‘rtog‘im)

Ishtirokchilar tayyor bo‘lgunlariga qadar, ular bilan trener giyohvand moddalar iste’mol qilgan odamning insoniy fazilatlaridan voz kechib, 1 gr kukun uchun oilasi, qarindoshlarini, hatto Vatanini sotishga tayyor bo‘lishi haqida; giyohvand moddalar iste’mol qilgan odamning fiziologik jihatlari (titrashi, bezgak tutishi, asabiylashishi va h.k.), psixologik jihatlari (yolg‘on gapirishga odatlanish, agressiv jahldor, qo‘pol, injiq va xavfli bo‘lib qolishi, diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq kabi bilish jarayonlaridagi buzulishlar va hk.) haqida savol-javob orqali qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

O‘yin boshlanadi. Trener: “Tasavvur qiling, siz giyohvandlik kasaliga duchor bo‘ldingiz. Bunda siz giyohvand moddalarni sotib olish uchun nimanidir sotishingiz, qurban qilishingiz kerak. Shuning uchun uch xil kartochkalariningizdan xoxlagan bittasini menga bering”.

Trener ishtirokchilardan 1 tadan sevgan taomlari, mashg‘ulotlari, sevgan yaqin kishilari nomlari yozilgan kartochkalarni – “qurbanlarni” berishlarini so‘raydi. Ishtirokchilar kartochkalarning har biridan ixtiyoriy tarzda tanlagan hoda trenerga beradilar.

Trener: “Keyinchalik bu “kasallik” yana qurbonlarni talab etadi, shuning uchun yana bittadan kartochkalarni bering”, deb ishtirokchilardan kartochkalar yig‘ib olinadi.

Trener: “Faraz qiling, endi siz giyohvandlik botqog‘iga botib bo‘ldingiz. Endi sizga giyohvand moddasi bo‘lsa bo‘ldi, hech narsani “qurbon” qilishdan tap tortmaysiz. Shuning uchun men sizning kartochkangizdan xoxlaganimni tortib olaman”, deb ishtirokchilardan trener istagan kartochkasini tortib oladi.

Trener: “Endi sizning hammangizda bittadan kartochka qoldi, bu sizning hayotingizni hal qilishning oxirigi imkoniyati. Bunda siz yo kartochkalarni o‘zingizda olib qolish (sevgan narsalar bilan qolish) yoki kartochkalarni menga berib yuborish (giyohvandlikni davom ettirib, hamma narsadan mahrum bo‘lib, natijada halok bo‘lish)ni tanlashingiz kerak.

Shundan so‘ng trener ishtirokchilarga inson nima uchun giyohvand bo‘lib qolishi, insonning o‘ylamay qo‘ygan bir qadami nimalarga olib kelishini, bunday yo‘lga kirmaslik uchun insonda qanday mafkuraviy immunitet xislatlari (iroda, qat’iyatlilik, erkin fikr, sog‘lom turmush tarzi va h.k.) shakllanishi kerakligi haqida gapiradi. Ishtirokchilar o‘zlarini ularning o‘rniga qo‘ygan holda, baxs-munozara o‘tkazib, xulosa chiqaradilar.

Psixokorreksion bosqich:

Ishtirokchilar o‘yin paytida o‘zlarini qanday his qildilar?

Hozir esa o‘zlarini qanday his qilayaptilar?

Nimadan (yoki kimdan) ajralish qiyin bo‘ldi?

O‘yindan so‘ngra ishtirokchilarni (ayrim ishtirokchilar juda ta’sirchan bo‘lishadi) o‘yin vaziyatidan olib chiqish uchun tushuntirish ishlari olib borilishi kerak.

Uning matni quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Hozir sodir bo‘lgan voqeа – bir o‘yin. Men umid qilamanki, bunday vaziyat sizning hech biringiz hayotingizda sodir bo‘lmaydi. Buning hammasi o‘yin edi, o‘yin bilan tugadi.

O‘yindan so‘ng, ishtirokchilar bir-birlari bilan boshlaridan kechirgan hissiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar.

Agarda guruhda emotsional ta’sirlanish yuqori darajada saqlanib qolgan bo‘lsa, kichik tanaffus qilinadi.

Bu o‘yinlarning mavzulari tez-tez yangilanib, jalb etish xususiyatlari orta borsa, bu albatta, yoshlarning mafkuraviy

immunitet shakllanishiga xos bilimlarni ongli ravishda tushunishiga olib keladi. Bu o‘yinlar ularning qiziqib o‘ynaydigan, kundalik o‘yinlariga aylanib qoladi.

“Ezgulik elchisi” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: guruhdagi psixologik muhitni yaxshilash va guruhiy hamjihatlik asosida milliy istiqlol g‘oyalarini “ezgulik”, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarni esa “yovuzlik” elchisi sifatida tushunish orqali o‘smirlarda “yovuzlik” elchilariga nisbatan g‘oyaviy kurashuvchanlik va barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish.

Ko‘rsatma: Trening 2 bosqichda olib boriladi. 1-bosqich “Ezgulik” elchisi sifatlari haqida va 2- bosqichda esa “Yovuzlik” elchisi sifatlari haqida trening ishtirokchilari o‘zлari bilganlaricha fikr bildirishadi.

1-Bosqich. “Bizning har birimizda qandaydir ma’noda ezgulik va insonlarga nisbatan yaxshilik istash hislari rivojlangan. Hozir biz insonlar haqida ezgu so‘zlarni eshitamiz. Siz o‘z yaqinlarining haqida qanday yaxshi fikrlarni ayta olasiz? Tayyorlanib olishingiz uchun sizga 5 daqiqa vaqt beriladi. Siz o‘zingiz mustaqil ravishda guruhning bir a’zosi haqida gapirib berishingiz lozim. Bunda qisqa va aniq gapirishingiz, shu bilan birga, ushbu shaxsdagi eng qadrlagan sifatlaringizni aytib o‘tishingiz kerak”.

2-Bosqich. Trener mashg‘ulot qatnashchilariga qarata: “Ba’zi bir insonlarda qandaydir ma’noda yovuzlik va insonlarga nisbatan yomonlik istash hislari rivojlanganligi haqida nima deya olasiz? Hozir biz aynan o‘sha insonlarda bu kabi yovuz xislatlar qanday shakllanganligini eshitamiz. Siz bu haqida qanday fikrlarni ayta olasiz? Tayyorlanib olishingiz uchun sizga 5 daqiqa vaqt beriladi. Siz o‘zingiz mustaqil ravishda yovuzlik xislatlariga to‘lib toshgan insonlar haqida gapirib berishingiz lozim. Bunda qisqa va aniq gapirishingiz, shu bilan birga, ushbu shaxsdagi umuminsoniyatga to‘g‘ri kelmaydigan buzg‘unchi va vayronkor g‘oya va fazilatlarini aytib o‘tishingiz kerak”.

“O‘zimni qanday tasavvur qilaman?” mashqi

Trening 10 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: shaxsning o‘zini o‘zi anglash darajasi, o‘zi haqidagi o‘z bilimlarini oshirish, unda o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglab yetish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ko‘rsatma: Trener ishtirokchilarga qarata “Bilasizlarmi, xalqimizda do‘sit achitib gapirar, dushman kuldirib degan ajoyib maqol bor. Biz ham bugun bir-birimiz haqida do‘sit bo‘lib fikrlaymiz, shunga hamma rozimi”, - deydi va ishtirokchilarni qo‘l ko‘tarib tasdiqlab berishlarini talab qiladi. Trener ishtirokchilarga trening yo‘riqnomasini quyidagicha tushuntira boshlaydi: Barcha trening ishtirokchilari toza varaqqa o‘zingizni qanday tasavvur qilishingizni sxematik tarzda chizing. Rasmning pastki qismiga o‘zingizning tashqi ko‘rinish sifatlaringizni yozib qo‘ying (baland, pakana, ozg‘in, o‘rtacha). Ko‘pi bilan 8-10ta sifatni yozish kerak bo‘ladi. Rasmning tepe qismiga ustuncha qilib, o‘zingizning asosiy ichki xususiyatlaringizni sanab o‘ting (sizning hayot yo‘lingizni belgilaydigan eng ahamiyatli 8-10 ta xususiyat. Masalan vatanparvarman, dangasaman, mehribonman, bee’tiborman kabilalar). Keyin o‘z fikringizni guruhning sizga nisbatan shakllangan fikri bilan qiyoslang.

II. Mafkuraviy xurujlar ta’siri vaqtida emotsiyal holatlarni boshqarishga o‘rgatish uchun xizmat qiluvchi trening mashg‘ulotlari

“Niqobni angla” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljallangan.

Maqsad: o‘smirlarni tetiklashtirish va ularni guruh bo‘lib ishslash uchun tayyorlash, ishtirokchilarning o‘zlariga ma’qul bo‘lmagan kayfiyatdan, ya’ni buzg‘unchi g‘oyaviy ta’sirlar yuzaga keltiruvchi emotsiyal holatlardan qutulishlari va to‘liq bunyodkor, insonparvar milliy g‘oyalarimizga va uning amaliga otlanirish hamda mashqning guruhda milliy g‘oyalarimizga nisbatan ko‘tarinki kayfiyatni, salbiy vayronkor va buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan esa g‘oyaviy kurashchanlik kayfiyatini uyg‘otishiga erishish.

Ko‘rsatma: nima qilayotganimni ko‘rish uchun menga qaranglar. Men yuzimda biror bir ijobjiy yoki salbiy g‘oyalarni yuzaga keltiruvchi emotsiyani aks ettirishga harakat qilyapman. Mana, masalan, (bunda trener biror bir milliy g‘oyamizdan “Shukuronalik” yoki salbiy buzg‘unchi “Norozilik”, “Egotsentirzm”

g‘oyalari ta’siri vaqtida namoyon bo‘luvchi emotsiyani aks ettirib, zudlik bilan guruhning barcha a’zolari ko‘rishi uchun aylanadi). Keyin esa men o‘zimning chap tomondagi qo‘sнимга o‘гиріламан va u mening yuz ifodamni yaxshilab ko‘rib olishi kerak. So‘ngra u mening yuz ifodamdagи holatni hech qanday o‘згарышсiz o‘zi aks ettirishi lozim. U buning uddasidan chiqishi bilan bir marta aylanib so‘ng yangi yuz ifodasi bilan chap tomoniga qarashi zarur. Shunday qilib, barcha ishtirokchilar navbatи bilan shu kabi ijobjiy yoki salbiy g‘oya va mafkuralar obrazini mimika asosida aks etirishga harakat qilishadi. Trening davomida ishtirokchilarda buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarning tashqi ko‘rinish obrazlari ham jirkanch ekanligini anglash asosida ularga nisbatan mafkuraviy himoyalanish, kurashish mexanizmlari shakllantiriladi.

“G‘oyaviy hissiyotlarni sanaymiz” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: trening ishtirokchilarining ijobjiy va salbiy g‘oyalari ta’siri vaqtida yuzaga keluvchi emotsiya borasidagi so‘z boyligini oshirish.

Ko‘rsatma: keling, kim turli hislarni anglatuvchi so‘zlarni ko‘proq bilishini aniqlab olamiz. Navbat bilan so‘zlarni ayting va ularni vatmanga yozib boring.

Trener uchun ma’lumot. Ushbu mashqni guruhning tayyorgarlik darajasiga qarab musobaqa yoki “aqliy hujum” shaklida tashkil etish mumkin.

Ishtirokchilarning vatmanini butun mashg‘ulot davomida yordamchi vosita sifatida qo‘llash mumkin. Qolaversa, mashg‘ulotlar davomida ushbu “lug‘at” milliy g‘oyalaramiz hamda buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuraviy yangi so‘zlar bilan boyitib borilishi mumkin. Shunga alohida e’tibor qaratinglarki, treningda ro‘yxatda o‘smirlar bilishi kerak bo‘lgan asosiy emotsiyalar (**ijobjiy** – do‘stlik, bag‘rikenglik, quvonch, mammunlik, shodonlik, daxldorlik, g‘ururlanish, faxrlanish, shukronalik, iftixor, tinchlik, **salbiy** – g‘azab, g‘am, qo‘rquv, xafagarchilik, tushkunlik, xudbinlik, xoinlik, loqaydlik, dushmanlik) kabi g‘oyaviy sifatlar qolib ketmasligi kerak. Agar ishtirokchilardan biri yozilganlarning emotsiyalarga tegishliligiga shubha qilsa, qolganlardan buni izohlab berish so‘raladi.

Mashg‘ulot yakunida ishtirokchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: “Davlatimizda olib borilayotgan buniyodkorlik ishlarini har gal ko‘rganingizda o‘zingizni qanday his qilasiz?”, “Nojo‘ya ish qilib qo‘yaningizda o‘zingizni qanday his etasiz?”.

Muhokamada trening qatnashchilari namoyon qilgan ijobiy va salbiy g‘oyalar orasida “Sizningcha, eng yoqimsiz his qaysi?”, “Qaysi biri eng yoqimlisi?”, “Quyida sanab o‘tilgan g‘oyalarni yuzaga keltiruvchi hislardan qay biri sizga yaxshi tanish?” kabi savollarga javob berish taklif qilinadi.

“Qaytarish” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: o‘smir shaxsida ijobiy yoki salbiy g‘oyalarni eshtish orqali yuzaga keladigan hissiy holatlarning namoyon bo‘lishi va o‘zga insonlarda mazkur g‘oyalar bilan ro‘y beradigan emotsional holatlarni anglash qobiliyatini rivojlantirish. Salbiy, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga nisbatan o‘smirlarda mustahkam mafkuraviy immunitet hamda g‘oyaviy kurashuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Ko‘rsatma: Mashqning o‘tkazilish tartibi: trener biror-bir qisqa jumlanı aytadi. Masalan, ijobiy g‘oya – “Ijtimoiy hamkorlikka doim tayyorman” yoki salbiy g‘oya – “Vatanfurushlik”, ishtirokchilardan biri esa ushbu jumlanı eshitib mimika va pantamika orqali uning mazmunini namoyon qiladi, trening ishtirokchilarining qolganlari esa bu qanday hissiyot ekanini topadi. Navbatma-navbat trening ishtirokchilari mazkur qoida asosida mashqni davom etirishadi. Trening oxirida ishtirokchilardan ijobiy va salbiy g‘oyalarning emotsional ko‘rinishlarini namoyon qilishlarida qanday hissiyotlar ularni chulg‘aganligi haqida birma-bir so‘rab chiqiladi.

“Hissiyotni top” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljallangan.

Maqsad: insonlarda buniyodkor yoki buzg‘unchi g‘oyalar bilan kechadigan emotsional holatlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish va ularni boshqarish. Bunda salbiy, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralarga nisbatan g‘oyaviy kurashuvchanlik xususiyatlarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Ko‘rsatma: uch kishidan iborat guruhlarga bo‘lining. Har bir guruhg‘a men ijobiy yoki salbiy g‘oyaviy hissiyot aks ettirilgan rasmni beraman. Sizning vazifangiz rasmlarda qanday g‘oyaviy

hissiyot aks ettirilganligini topish, keyin esa uni o‘zingiz istaganingizdek tasvirlashingiz kerak bo‘ladi. So‘ng ushbu g‘oyaviy hissiyotni qamrab oluvchi sahna o‘ylab toping. Qolaversa, ushbu g‘oyaviy hisning assotsiatsiyalarini toping, ya’ni nimalar (bunyodkor, shodlik, insonparvarlik, daxldorlik yoki buzg‘unchilik, zo‘ravonlik, axloqsizlik, xudbinlik, loqaydlik va hokazo) sizda ushbu g‘oyaviy hisni keltirib chiqarishini aniqlashtiring. Muhokama yakuniga yetganidan so‘ng sizlar biror bir g‘oyaviy his tasvirlangan o‘z rasmingiz, sahna ko‘rinishingiz va assotsiatsiyalariningizni guruh oldida ko‘rsatib berishingiz lozim bo‘ladi.

III- Axborot xurujlari vaziyatida o‘zini o‘zi nazorat qilishga yo‘naltirilgan trening mashg‘ulotlari.

“G‘oyaga qarshi – g‘oya” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljalangan.

Maqsad: o‘smir shaxsida xulq-atvor va xatti-harakatlarni nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ko‘rsatma: ishtirokchilar juft-juft bo‘lib ajraladilar. Trener kartochkalarga yozilgan ijobiy g‘oya va uning antonimi bo‘lgan salbiy g‘oyalar yozilgan kartochkalarni juft sheriklariga tarqatib chiqadi. Ishtirokchilar qo‘lidagi kartochkada yozilgan g‘oyani noverbal tarzda sheri giga yetkazadi. Juft sheri giga esa namoyish qilingan g‘oyani anglab, uni qarama-qarshi bo‘lgan antonimini ko‘rsatib berishi lozim. Masalan: ulardan biri salbiy g‘oya bo‘lmish “loqaydlik”ni turli harakatlar va mimikalar asosida sheri giga tushuntirib bersa, sheri g‘oya bo‘lmish qarama-qarshi antonimini “daxldorlikni” bajara boshlaydi. Bu ro‘yxatni davom etirish mumkin. Salbiy g‘oya “Prozelitizm”ning antonimi bo‘lmish ijobiy g‘oya “Vatanparvarlik”, “Buzg‘unchilik”ni antonimi “Bunyodkorlik”, “Mazoxizm”ning antonimi “Ibo, hayo”, “Sotqinlikni”ning antonimi “Sadoqat” kabilarni misol keltirish mumkin. Mashqning psixologik ahamiyati. Ishtirokchilarda sheri giga harakatlarini “oynadagi aks” kabi to‘liq qaytarish istagini oshirish orqali ularda buzg‘unchi, vayronkor g‘oyalarni anglashi va unga qarshi g‘oyaviy kurashchanlik hamda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanishini yuzaga keltirishidadir. Qolaversa, mashq sheri klarning bir-birini yaxshi tushunishlariga yordam beradi va guruhiy uyushqoqlikni oshiradi.

Muhokama uchun “Kimga harakatlarni namoyish qiluvchi shaxs yoki unga qarama-qarshi harakatlarni qaytaruvchi shaxs o‘rnida bo‘lish yoqdi?”, “Qanday real hayotiy vaziyatlarda sizga ko‘rsatilayotganlarni aniq teskarisiga qaytarish muhimmi?” kabi savollar qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

“Ta’qiqlangan g‘oya” mashqi

Trening 30 minutga mo‘ljallangan.

Maqsad: o‘smir shaxsidagi psixologik jarayonlarni nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantirish bilan bir qatorda ularda taqiqlangan g‘oya nimaga taqiqlanganligini, uning buzg‘unchilik va vayronkorlik xususiyatlarini anglash va shu asosda ularda mafkuraviy immunitet kuchayishi ko‘zda tutiladi.

Ko‘rsatma: Treningda 10-15 nafar ishtirokchi qatnashishi mumkin. Trener har bir ishtirokchiga navbat bilan biror bir salbiy g‘oyaga asoslangan turli mazmundagi savollarni beradi, (misol uchun o‘smirlarga taqiqlangan g‘oyalar to‘g‘risida quyidagicha “Axloqsizlik nima?”, “Diniy ekstremizm g‘oyasini bilasizmi?”, “Prozelitizm g‘oyasi nimani ilgari suradi?”, “Ludomaniyada qanday g‘oya yashirin?”, “Aqidaparastlik to‘g‘rimi?”, “Buzg‘unchi ommaviy madaniyatning ta’sirini nimalarda ko‘rish mumkin?” kabi savollar bilan murojaat qilish mumkin) ishtirokchilar esa savollarga tezda javob qaytaradilar. Lekin shartga ko‘ra javob berayotganda ishtirokchilar trener tomonida aytilgan g‘oyaga nisbatan nimaga taqiq qo‘yilganligini uning buzg‘unchilik va vayronkorlik xususiyati nimadan iboratligini asoslab berishi ko‘zda tutiladi. Agar ishtirokchi mazkur savolga javob bera olmasa, u vaqtinchalik o‘yindan chiqib turadi va o‘yinni uning sherigi davom etiradi. O‘yin birta ishtirokchi qolgunicha davom etadi. Oxirda qolgan ishtirokchi g‘olib hisoblanib, u guruhning “Eng yaxshi g‘oyaviy kurashuvchisi”, “Milliy g‘oya himoyachisi” kabi naminatsiyalarga loyiq deb topiladi.

Muhokamada “Mashqni bajarishda qanchalik qiyaldingiz?”, “Qanday vaziyatlarda va nima uchun bizga buzg‘unchilik va vayronkorlik xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan taqiqlar qo‘yilishi kerak?”, “Taqiqlangan g‘oyalarga nisbatan bizda g‘oyaviy kurashuvchanlik bo‘lishi kerakmi?”, “Taqiqlangan g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetimizni kuchaytirishimiz zarurmi?”, “Milliy g‘oya himoyachisi bo‘lish qiziq ekanmi?” kabi savollar atrofida fikr almashish maqsadga muvofiq.

“Mening samimiy bo‘la olish qobiliyatim” mashqi

Trening 30 minutga mo‘jalangan.

Maqsad: shaxsning o‘zini o‘zi, ijobiy va salbiy g‘oyalarni anglashi hamda o‘zga insonlarda kechayotgan psixologik kechinmalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish.

Mashqning o‘tkazilish tartibi: mashg‘ulot juftliklarda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi o‘zi ishongan bir sherikni o‘ziga juft qilib oladi. Bunda tomonlarning o‘zaro roziligi muhim emas. Mashq 10 minut davom etadi.

Ko‘rsatma: “yuzma-yuz o‘tirib bir biringizning ko‘zingizga qarang. O‘zingiz muhim deb hisoblagan g‘oya haqida gapiring. Bu g‘oya qiziqishlariningiz, g‘am-tashvishlariningizga yo‘g‘rilgan bo‘lishi mumkin. O‘z g‘oyangizni, his-tuyg‘ulariningizni bayon eting. Bir-biringizni tinglashningizda o‘zingizni erkin tuting. Umuman, sheringizingizni tushunayotganingizni xatti-harakatingiz bilan bir necha marta takrorlang.

Tahlilda mashg‘ulotdan oldin va keyin sheringizingizga nisbatan qanday tuyg‘ular kechgani, sheringizingiz qanday tinglagani, mashg‘ulot davomida nima asabni taranglashtirishga olib kelganligi haqida o‘ylang .

“Mening 10 ta kamchiligidim” mashqi

Trening 30 minutga mo‘jalangan.

Maqsad: o‘smirlarda shaxs sifatlarini shakllantirish hamda o‘zini o‘zi anglash mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat.

Ko‘rsatma: ishtirokchilar davra bo‘lib o‘tirishadi. Bir ishtirokchi tashqariga chiqib turadi. Guruhning qolgan ishtirokchilari tashqaridagi ishtirokchining o‘nta salbiy sifatlarini aniqlashga harakat qiladilar. So‘ng tashqariga chiqqan ishtirokchi xonaga qaytib kirishi taklif qilinib, ishtirokchilar uning muhokama qilingan salbiy xislatlaridan kamida betshtadan sanab o‘tilishi talab qilinadi. Ishtirokchi ushbu sifatlarni yuqorida ko‘rsatilgan miqdorda aytal olsa, unga o‘tirishga ruxsat etiladi. O‘yin shu qoida asosida davom etiladi. O‘yin oxirida trener ishtirokchilarga sizlarda sanab o‘tilgan salbiy sifatlar aslida har birimizda bo‘lishi mumkin, lekin bu o‘zimizning ko‘zimizga ko‘rinmaydi. Bu sifatlarni atrofingizdalar sizga aytishga qo‘rqishadi yoki parvo qilishmaydi. Bu treningda esa bu haqida xohlagancha gapirish mumkin. Biz hammamiz birgalikda bu kabi

salbiy sifatlarni o‘zimizdan bartaraf qilishga bugundanoq kirishishimiz kerak. Aks holda, bu sifatlar bizni buzg‘unchilikka, vayronkorlikka undashi hech gap emas. Har birimizdagi bu kabi salbiy sifatlarni bartaraf qilishga hammamiz bir xilday daxldormiz. Bu buniyodkorlik, erksevarlik, vatanparvarlik, do‘stparvarlik, sodiqlik, insonparvarlik va ijtimoiy sherikchilikka yo‘g‘rilgan jamiyatning bizlarga qo‘yadigan oltinga teng talabadir. Mazkur oltin qonuniyatni mas’uliyat bilan ado etishimiz barchamizning eng oliy fuqarolik burchimizdir.

“Avlodlar o‘rtasidagi nizo” mashqi

Maqsad: Trening ishtirokchilarida o‘z milliy qadriyatlarining qadrini anglanilishiga erishish.

Bunda uch kishi ishtirok etadi – yigit, qiz va katta yoshli odam. Avlodlar o‘rtasida “Eh, hozirgi yoshlar...” Masalan “Eh, hozirgi yoshlar juda dangasa”, “Eh, hozirgi yoshlar juda betgachopar”, “Eh, hozirgi yoshlar juda irodasiz” qabilida tanqid uyushtiriladi. Yigit va qizning vazifasi: imkon boricha xushmuomalalik bilan nizodan qochish. Hakamlar hay’ati har bir o‘quvchining harakatini baholab boradi. Trening so‘ngida trener katta avlod vakillari bilan hozirgi avlod vakillari o‘rtasidagi asosiy farqlanishni mazkur avlod vakillarining milliy qadriyatlar, milliy xarakter, milliy urfodatlaridagi ayrim bir uzulishlar misolida o‘z izohlarini berib o‘tishi zarur. Trener bugungi kunda buzg‘unchi ommaviy madaniyat ko‘plab yoshlarimizning ongini zaharlashga urinayotganligini sabab deb ko‘rsatishi kerak. Trener hayotiy misol va dalillarga asoslangan holda buzg‘unchi ommaviy madaniyatning yoshlarga o‘z milliy madaniyatlarini eskilik sarqitiga yo‘yib, buzg‘unchi ommaviy madaniyatni yangi zamonaviy madaniyat deb tushuntirishga urinayotganligini asoslab bermog‘i lozim.

“Men hech qachonmaganman” mashqi

Maqsad: Trening ishtirokchilarida buzg‘unchi g‘oya va mafkuralarga nisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish.

Ishtirokchilar navbatma-navbat “Men hech qachonmaganman” degan jumladan iborat gap aytishlari lozim (masalan, “Men hech qachon tatirovka chizdirmaganman”, “Men hech qachon uydan qochib ketmaganman”, “Men hech qachon sigaret chekmaganman”, “Men hech qachon birovlarni aldamaganman” va

